

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK81`373:821.512.133 (043.3)

YUSUPOVA DILDORA YUNUS QIZI

**HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATI
LINGVOPOETIKASI**

5A220102 –Lingvistika (o‘zbek tilshunosligi)
magistr akadem darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

(2019-2020-o‘quv yili)

**Ilmiy rahbar: pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent Yo‘ldosheva D.N.**

BUXORO – 2020

**Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti o`zbek tilshunosligi kafedrasida
bajarilgan.**

Ilmiy rahbar _____

**pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent YO`LDOSHEVA D.N.**

Kafedra mudiri _____

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent AHMEDOV A.R.**

**Magistratura bo'limi
boshlig'i _____**

**fizika--matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD) TO`RAYEV A.A.**

**“Halima Xudoyberdiyeva she’riyati lingvopoetikasi” mavzusidagi magistrlik
dissertatsiyasi**

ANNOTATSIYASI

Tayanch so'zlar: *lingvopoetika, she’riyat, til va adabiyot integratsiyasi, kommunikativ ehtiyoj*

Lingvopoetikani tilshunoslik fanlari qatoriga qo'yish ham, adabiyotshunoslik fanlari sirasiga kiritish ham to'g'ri emas; lingvopoetika tilshunoslik, adabiyotshunoslik va shevashunoslik fanlarida erishilgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etib, filologiyaning yaxlitligini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan filologik fandir (V.P.Grigorev). O'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she’riyati va uning o'ziga xos xususiyatlari hozirgacha til nuqtayi nazaridan maxsus tadqiqot manbayi bo'lgan emas. Zero, o'zbek xalqining otashqalb, o'ziga xos uslub va ovozga ega bo'lgan shoirasi Halima Xudoyberdiyeva she’riyati lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqot obyekti sifatida maxsus tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti sifatida Halima Xudoyberdiyevaning hozirgacha nashr qilingan she’rlari tanlab olindi.

Tadqiqot ishining maqsadi Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida poetik matnlar tilining o'ziga xosligi, ularda qo'llanilgan, tilimizda ifoda-tasvir vositalari deb yuritiluvchi birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini ochib berish va ularning poetik matnlarda badiiy tasvir berishda, lirik qahramon ichki dunyosini tasvirlashda, ma'no kuchaytirishda muhim vazifa bajarishini shoira ijodidan olingan misollarni tahlil qilish orqali dalillash, umuman, shoira poetikasida olam lisoniy manzarasining rang-barangligini ko'rsatib berishdan iborat.

Tadqiqot metodlari sifatida taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, alohidaliklarni aniqlash kabi tahlil usullaridan foydalanildi..

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi shuki, shoira Halima Xudoyberdiyevaning she’riy asarlari ilk bor lingvopoetik nuqtayi nazaridan tahlilga tortildi.

Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika muammolariga bag'ishlangan ishlar barmoq bilan sanarli bo'lganligi sababli mazkur magistrlik ishi katta ahamiyat kasb etadi. Ishda to'plangan materiallar, kuzatish natijalaridan lingvopoetika, Halima Xudoyberdiyeva she’riyati, unda qo'llanilgan birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy asarlar yozishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, ulardan lingvopoetika bo'yicha o'tiladigan amaliy mashg'ulotlarda til birliklarining matnda tutgan o'rni, lingvopoetik vosita sifatida qo'llanish imkoniyatlarini ko'rsatishda foydalanish ham o'rinli.

Tatbiq etish darajasi sifatida “Halima Xudoyberdiyeva she’riyati lingvopoetikasi” nomli monografiya xalqaro miqyosda (Международное издательство “Globe international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-60879-6.– 2020.–125 c.) chop ettirildi va “More books” savdo tarmog'ida dunyoning uch yuzdan ortiq mamlakati savdo do'konlariga 49,90€ bilan intellektual mulk sifatida sotuvga qo'yildi.

Qo'llanish sohasi, asosan, filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi hamda filologiyaning lingvokulturologiya, lingvopoetika sohalari hisoblanadi.

**Магистерская диссертация на тему “Лингвопоэтика поэзии Халимы
Худойбердиевой”
АННОТАЦИЯ**

Ключевые слова: *лингвопоэтика, поэзия, интеграция языка и литературы, коммуникативная потребность*

Неправильно включать лингвопоэтику в список языковых дисциплин или включать их в список литературных дисциплин; Лингвопоэтика – это филологическая наука, которая стремится обеспечить целостность филологии, применяя достижения лингвистики, литературы и лингвистики к анализу текста (В.П. Григорьев).

Поэзия узбекской поэтессы Халимы Худойбердыевой и ее особенности еще не являлись источником специальных исследований по языку. Актуальность выбранной темы определяется тем, что Халима Худойбердиева, огненный поэт узбекского народа с уникальным стилем и голосом, является предметом специального анализа лингвопоэтических особенностей ее поэзии.

В качестве **объекта исследования** были выбраны опубликованные стихи Халимы Худойбердиевой.

Цель исследования – раскрыть лингвистические и поэтические возможности единиц поэтического текста в поэзии Халимы Худойбердиевой, используемых в них единиц, которые в нашем языке называются средствами выражения, и их художественного описания в поэтических текстах, значения внутреннего мира лирического героя. Доказать, что оно играет важную роль в укреплении, анализируя примеры, взятые из творчества поэта, в общем, значит показать разнообразие языкового ландшафта мира в поэтике поэта.

Методы анализа, такие как сравнение, сравнение, обобщение, выявление различий были использованы в качестве методов исследования.

Научная новизна исследования заключается в том, что поэтические произведения поэтессы Халимы Худойбердыевой впервые были проанализированы с лингвопоэтической точки зрения.

Научная и практическая значимость результатов исследования. Эта магистерская работа имеет большое значение в узбекской лингвистике, так как существует всего несколько работ по проблемам лингвопоэтики. Материалы, собранные в работе, результаты наблюдений могут быть использованы при написании научных трудов по лингвопоэтике, поэзии Халимы Худойбердыевой, изучении лингвопоэтического потенциала используемых в ней единиц. Их также следует использовать для демонстрации роли языковых единиц в тексте на практических занятиях по лингвопоэтике и их потенциала для использования в качестве лингвопоэтического инструмента.

Степень внедрения: В качестве уровня реализации монография «Лингвопоэтика поэзии Халимы Худойбердыевой» была опубликована на международном уровне (Международная издательская группа «Глобус Международная издательская группа», ISBN: 978-620-0-60879-6.– 2020. – 125 с.) И «More books» выставлен на продажу в магазинах более чем 300 стран мира как интеллектуальная собственность за 49,90 евро.

Область применения – это, в основном, область филологии и преподавания языка (узбекский язык), а также области лингвокультурологии, лингвопоэтики филологии.

Master's thesis on «Linguistic poetry of Halima Khudoyberdieva's poetry»

ANNOTATION

Key words: *linguistic poetics, poetry, integration of language and literature, communicative need*

It is wrong to include linguistic poetics in the list of language disciplines or to include them in the list of literary disciplines; Linguistic poetics is a philological science that seeks to ensure the integrity of philology, applying the achievements of linguistics, literature and linguistics to the analysis of the text (V.P. Grigoriev).

The poetry of the Uzbek poetess Halima Khudoyberdieva and its features have not yet been a source of special research on the language. The relevance of the chosen topic is determined by the fact that Halima Khudoyberdieva, a fiery poet of the Uzbek people with a unique style and voice, is the subject of a special analysis of the linguistic and poetic features of her poetry.

Subjects of research: published poems by Halima Khudoyberdieva were chosen.

Purpose of work is to reveal the linguistic and poetic capabilities of units of a poetic text in the poetry of Halima Khudoyberdieva, the units used in them, which in our language are called means of expression, and their artistic description in poetic texts, the meanings of the inner world of the lyrical hero. To prove that it plays an important role in strengthening, analyzing examples taken from the poet's work, in general, means to show the diversity of the linguistic landscape of the world in the poet's poetics.

Methods of analysis, such as comparison, comparison, generalization, identification of differences were used as research methods.

The scientific novelty of the study is that the poetic works of the poetess Halima Khudoyberdieva were first analyzed from a linguistic and poetic point of view.

Scientific and practical significance of the research results. This master's work is of great importance in Uzbek linguistics, since there are only a few works on the problems of linguistic poetics. The materials collected in the work, the results of observations can be used when writing scientific works on linguistic poetics, poetry of Halima Khudoyberdieva, studying the linguistic poetic potential of the units used in it. They should also be used to demonstrate the role of linguistic units in the text in practical classes on linguistic poetics and their potential for use as a linguistic-poetic tool.

Degree of embed and economic efficiency: As a level of implementation, the monograph "Linguistic Poetics of Halima Khudoyberdieva's Poetry" was published at the international level (International Publishing Group Globus International Publishing Group, ISBN: 978-620-0-60879-6.– 2020. - 125 p.) And "More Books" is put up for sale in stores in more than 300 countries as intellectual property for 49.90 euro's.

Field of application: this is mainly the field of philology and language teaching (Uzbek language), as well as the field of linguistic and cultural studies, linguistic poetics of philology.

MUNDARIJA

	Ishning umumiy tavsifi.....	7
I bob	Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining fonetik hamda leksik-semantik xususiyatlari.....	15
1.1.	Shoir so'z aytgani kelar dunyoga.....	16
1.2.	Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining fonopoetik xususiyatlari.....	25
1.3.	Halima Xudoyberdiyevaning leksik tarkibdan foydalanish evolyutsiyasi.....	36
	I bob bo'yicha xulosa.....	57
II bob	Shoira Halima Xudoyberdiyevaning so'z imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati.....	60
2.1.	Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining morfologik xususiyatlari tahlili.....	60
2.2.	Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining sintaktik xususiyatlari tahlili.....	72
	II bob bo'yicha xulosa.....	82
III bob	Shoira Halima Xudoyberdiyevaning til grammatik imkoniyatlaridan foydalana olish san'ati.....	83
3.1.	Shoiraning badiiylikni ta'minlash uchun lug'aviy shakl vositalaridan oqilona foydalana olishi.....	83
3.2.	Ijodkorning sintaktik shakl vositalaridan poetik rang-baranglikni yaratish mahorati.....	92
3.3.	Halima Xudoyberdiyeva poetikasi tilining stilistik-tasviriy tizimi.....	101
	III bob bo'yicha xulosa.....	106
	Umumiy xulosalar.....	107
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	109
	Ilovaalar	114

REJA:

Ishning umumiy tavsifi.

I bob. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining fonetik hamda leksik-semantik xususiyatlari.

- 1.1. Shoir so'z aytgani kelar dunyoga...
- 1.2. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining fonopoetik xususiyatlari.
- 1.3. Halima Xudoyberdiyevaning leksik tarkibdan foydalanish evolyutsiyasi.

I bob bo'yicha xulosa.

II bob. Shoir Halima Xudoyberdiyevaning so'z imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati.

- 2.1. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining morfologik xususiyatlari tahlili.
- 2.2. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining sintaktik xususiyatlari tahlili.

II bob bo'yicha xulosa.

III bob. Shoir Halima Xudoyberdiyevaning til grammatik imkoniyatlaridan foydalana olish san'ati.

3.1. Shoiraning badiiyligni ta'minlash uchun lug'aviy shakl vositalaridan oqilona foydalana olishi.

3.2. Ijodkorning sintaktik shakl vositalaridan poetik rang-baranglikni yaratish mahorati.

3.3. Halima Xudoyberdiyeva poetikasi tilining stilistik-tasviriy tizimi.

III bob bo'yicha xulosa.

Umumiy xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining bir bo‘lagi bo‘lmish o‘zbek tilshunosligi ham keyingi ellik yilda taraqqiyot bosqichiga chiqib olganligi e’tirofga loyiq. Tilshunoslikning yangi yutuqlarga erishishi, uning boshqa sohalar bilan integratsiyasi pragmatolingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, gender tilshunoslik, lingvopersonologiya, lingvokulturologiya, lingvopoetika, narralingvistika kabi yangi-yangi fan va sohalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Hozirda mazkur sohalarga qiziqish kuchayganligi va shu yo‘nalishlarda ham ko‘zga ko‘rinarli tadqiqotlarning amalga oshirilayotganligi mazkur ishlarning milliylikimiz zaminidan uzilmagan holda jadallashuvi, tabiiyki, yurtimizning milliy mustaqillikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq, ya’ni erishilgan, erishilayotgan yutuqlar milliy istiqlolimiz mevalaridir. Zero, yurtimizda bugungi kun tartibiga qo‘yilgan: “...Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash vazifasi”¹ ham tilshunoslikning barcha yo‘nalishlarida davr ruhiga mos tadqiqotlar olib borish hamda turli amaliy tajribalar o‘tkazishni taqozo etadi.

Til, uning ifodalanish shakllari va badiiy matnda til vositalarining tutgan o‘rnini belgilash bilan bog‘liq masalalar – amaliy tilshunoslikning asosiy obyekti va muammolaridan biri hisoblanadi hamda u nihoyatda mashaqqatli va ko‘p qirrali jarayonlarni qamrab oladi. U kishilarning kommunikativ ehtiyojlari tufayli tildagi mavjud imkoniyatlarni o‘zida aks ettiradi. Badiiy asar ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liq holda xalq hayotidagi har bir yangilikni, til lug‘at tarkibidagi har bir o‘zgarishni o‘zida aks ettiruvchi vosita sifatida tilshunoslarning asosiy diqqat markazida turadi va hamisha tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. O‘zbek tilshunosligining mustaqillik davridagi taraqqiyoti xalqimiz hayotidagi eng muhim hodisa bo‘lib, uning boshqa fan sohalari qatori izchil rivojlanishini ta’minlab berdi. Zero, o‘zbek tilshunosligi o‘zining o‘tgan qisqa davr ichidagi taraqqiyoti davomida nazariy va amaliy jihatdan yanada takomillashdi. Inchunun, barcha

¹ <https://www.pv.uz> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – 26-yanvar, 2020-yil.

davrlarda, har qanday sharoitda ham o‘z ona tiliga va uning nufuzi, ravnaqiga e‘tibor qaratgan davlat, millat, xalq taraqqiyot karvonidan ortda qolmaydi². Shu boisdan ham ma‘naviyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan tilimizni “biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”³.

Til va adabiyot o‘zaro ajralmas, et bilan tirnoq darajasidadir. Mustaqillik yillarida yurtimizda ma‘naviyatimizning g‘oyat muhim va uzviy qismi bo‘lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar⁴ o‘z hosilini berayotganligi, badiiy adabiyotimiz mavzular ko‘lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo‘lib borayotganligi, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo‘layotganligi ma‘naviyatli kishilarni quvontiradi, albatta.

Keyingi yillarda tilshunoslarimiz e‘tibori (antroposentrik nuqtayi nazardan) alohida olingan shoir va yozuvchilarning individual uslubi, badiiy matn va u bilan bog‘liq muammolar yechimini topishga qaratilayotganligi ham til va adabiyotning o‘zaro aloqadorligi taqozosidan kelib chiqmoqda. Shu asosda tilshunoslikda matn lingvistikasi, lingvopoetika kabi sohalar shakllanib ulgurdi desak, xato bo‘lmaydi. Demak, hozirgi kunda aksariyat tilshunoslar e‘tiborini badiiy matnlarda olamning lisoniy manzarasi qay darajada aks etganligini shaxs~til~nutq~me‘yor prizmasida tadqiq etish masalasi ko‘proq tortmoqda. Ishga bu tarzda amaliy yondashish, tabiiyki, “kognitiv tahlilning bir turi, uning ma‘lum bir ko‘rinishda namoyon bo‘lishi”⁵ hisoblangan lingvistik tahlilni taqozo etadi.

Badiiy asar tilini o‘rganish – keng qamrovli jarayon, u nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy g‘oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik,

² <https://www.pv.uz> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2019 yil 21 oktabr.

³ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. Ma‘naviyat, 2008.– B.87.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2018-yildagi N PQ-3652-sonli “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori// Xalq so‘zi, 2018- yil 6-aprel.

⁵ Сафаров И. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006, 9-бет.

badiiy mahorat, balki tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog‘lanib, o‘zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi⁶.

Rus olimi V.P.Grigorevning “Поэтика слова” (М.: Наука, 1979) kitobi “Лингвопоэтика и стилистика” faslida “lingvopoetikani tilshunoslik fanlari qatoriga qo‘yish ham, adabiyotshunoslik fanlari sirasiga kiritish ham to‘g‘ri emas; lingvopoetika tilshunoslik, adabiyotshunoslik va shevashunoslik fanlarida erishilgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etib, filologiyaning yaxlitligini ta‘minlashni o‘z zimmasiga olgan filologik fandir”,⁷ degan edi. Darhaqiqat, lingvopoetika tilning yashirin imkoniyatlarini o‘zida namoyon etuvchi filologik fan ekanligi bilan ahamiyatlidir. Zero, jahon tajribasi ko‘rsatmoqdaki, istalgan tilning ijtimoiy xarakterini o‘rganishni individual shaxs nutqi tadqiqidan boshlash to‘g‘ri yo‘l, bu murakkab, ayni vaqtda keng qamrovli lingvopersonologik tahlil jarayoni bo‘lib, uni o‘rganish, tilshunoslikning shaxs nutqi, ijtimoiylik bilan bog‘liq soha sifatida alohida tatbiq etish o‘zbek tilshunosligining bugungi kun dolzarb muammolaridan biridir.

Til vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash badiiy matnlarga tayanishni, qator shoir va yozuvchilar asarlarini tahlil doirasiga tortishni taqozo etar ekan, o‘zbek she‘riyatida o‘ziga xos ovozga ega shoir Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati va uning o‘ziga xos xususiyatlarini shu yo‘nalishda tadqiq etmoqlik ham o‘zbek tili va uning nutqiy ifodalanishi imkoniyatlarini ko‘rsatib berishga xizmat qila oladi. Aytish zarurki, shoir Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari hozirgacha til nuqtayi nazaridan maxsus tadqiqot manbayi bo‘lgan emas. Demak, o‘zbek xalqining otashqalb, o‘ziga xos uslub va ovozga ega bo‘lgan shoirasi Halima

⁶ Хасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010, 8-бет.

⁷ Григорев В.П. Поэтика слова. – Москва: Наука, 1979. – 49-с.

Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqot obyekti sifatida maxsus tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida matn tahlili bilan bog'liq holda yuzaga kelgan lingvopoetikaning alohida yo'nalish sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishida X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzayev, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, M.Yo'ldoshev, S.Boymirzayeva kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi⁸. Ular alohida olingan ijodkorlar asarlarini tili va uslubi, asarlarda qo'llanilgan lingvopoetik vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini maxsus o'rganib salmoqli ishlarni amalga oshirdilar.

Hikoyalar tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalarni aniqlash bo'yicha tadqiqot olib borgan A.Hasanov shunday fikrlarni bildiradi: "Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so'z tanlash san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya'ni badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati – lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida san'atkor tomonidan estetik jihatdan qo'llangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bog'liqlik asosida birlashadi⁹.

Lingvopoetik tadqiqotlar ichida S.Karimovning "Zulfiya asarlari lingvostilistikasi" nomli monografiyasi alohida e'tirofga loyiq. Mazkur monografiyada xalqimizning ardoqli shoirasi Zulfiya Isroilovanning so'zdan foydalanish mahorati atroflicha ochib berilgan. Tom ma'noda, ushbu monografiya

⁸ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент, 1962.; Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981.; Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975.; Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.; Умурқулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Дисс... док.филол.наук.–Ташкент, 1992.; Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.–Самарқанд: СамДУ, 2006.–132 б.; Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.док... дисс.автореф. – Тошкент, 2009.

⁹ Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийлигини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фанлари номз...дисс.автореф. -Тошкент, 2010, 8-бет.

o'zbek lingvopoetikasida yaratilgan, yaratilayotgan ishlar uchun etalon vazifasini o'tay oladi.

Jahon lingvistikasida, jumladan, rus tilshunosligida lingvopoetika yo'nalishida yuzlab tadqiqotlar amalga oshirilganligi haqida internet sahifalarida ma'lumot berilganki, bu ma'lumot rus tilshunosligida mazkur sohaning shakllanishi va taraqqiy etishi ancha ilgari boshlanganligini ko'rsatadi. Agar antroposentrik tilshunoslik (lingvopersonologiya) tilshunoslikning alohida sohasi sifatida XIX asrning 20-yillarida G'arbiy Yevropa hamda Rossiyada shakllanib, keyinchalik keng ko'lamda taraqqiy etganligini, uning nazariy asoslari g'arb va rus olimlari V.fon Gumboldt, Boduen de Kurtene, G. Shteyntal, V. Vundt, A.A.Potebnya, G. Ostgof, K. Brugman, G.Paul, D.Ə.Rozental, M.A.Telenkova, A.V.Puzirev, A.A.Lipgart tadqiqotlarida ishlab chiqilgan¹⁰ligini inobatga olsak, lingvopersonologiyaning bir tarmog'i bo'lmish lingvopoetika yo'nalishi yevropa va rus tilshunosligida ikki asrdan beri mavjud. Chunonchi,

V.Gumboldt, V.V.Vinogradov, L.A.Golyakova, I.N.Suxix, V.I.Tyupa, N.D.Tamarchenko, O.I.Fedotov kabi yetakchi olimlarning darslik va qo'llanmalari¹¹ shular jumlasidandir. Shuningdek, bu borada qator ilmiy tadqiqotlar¹² amalga oshirilganligini ham e'tirof etish joiz.

O'zbek tilshunosligida jadid asarlari tili (Y.Saidov), Anvar Obidjon she'rlarining lingvopoetikasi (N.Sadinova), Sirojiddin Sayyid asarlari lingvopoetik

¹⁰ Ёўлдошева Д., Ортикава Х. Лингвоперсоналогия –тилшуносликнинг мустақил соҳаси. Илмий рисола. – Тошкент: Paradigma, 2018.–72 б.–5-б.

¹¹ Виноградов В.В. О языке художественной литературы. –М.: Гослитиздат, 1959. –654 с.; Голякова Л.А. Текст. Контекст. Подтекст. –Пермь: Изд-во Перм. ун-та, 2002. –231 с.; Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. –М.: Прогресс, 1984. –397 с.; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. –Л.: Худож. лит., 1974. –285 с.; Сухих И.Н.«Смерть героя» в мире Чехована: статьи, публикации, эссе. –М.: Наука, 1990. С. 65-76.; Тюпа В.И. Художественность // Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий / гл.науч. ред. Н.Д. Тамарченко. –М.: Изд-во Кулагиной; Intrada, 2008. –358 с.; Федотов О.И. Основы теории литературы: учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений. – М.: Гуманит., 2003. –272 с.; Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. –М., 2007.

¹² Воловой Г.В. Художественный подтекст как средство раскрытия характеров героев в повестях «Бэла» и «Максим Максимыч» в романе М.Ю. Лермонтова «Герой нашего времени»: дис. ... канд. филол. наук. Ма-хачкала, 2003. –114 с.; Серягина С.С. Подтекст в прозе М.Булгакова: лингвостилистический аспект: дис. ... канд. филол. наук.–Кемерово, 2007. –203 с.; Смирнова Л.Н. Полемика подтекст романа Ф.М. Достоевского «Бедные люди»: дис. ... канд. филол.наук. –Кострома, 2004.–182 с.; Степаненко А.А. Подтекст в прозе А.П. Чехова 1890-х – 1900-х гг.: дис. ... канд. филол. наук. –Сургут, 2007.–133 с.; Шадурский В.В. Поэтика подтекстов В.В. Набокова: автореф. дис. ... канд. филол.наук. – Новгород, 1999.24 с.; Шмараков Р.Л. Символический подтекст романа Ф.М. Достоевского «Бесы»: дис. ... канд. филол.наук. –М., 1999.264 с. va b.

tadqiqi (S.Zohidova), Usmon Azim she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari (M.Tillayeva), Zulfiya Mo'minova she'riyati lingvopoetikasi (Sh.Masutova) kabi turli hajmdagi fundamental va kichik tadqiqot ishlari ham mavjud. Ammo shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyati lingvopoetik jihatdan maxsus tadqiq etilgan emas.

Tadqiqotning magistrlik dissertatsiyasi bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafdrasida o'rganilayotgan "O'zbek lingvopoetikasi masalalari" mavzusidagi izlanishlar rejasining tarkibiga kiradi. Mavzu BuxDU rektori tomonidan tasdiqlanib, magistratura bo'limi saytida e'lon qilingan.

Tadqiqot ishining maqsadi. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida poetik matnlar tilining o'ziga xosligi, ularda qo'llanilgan, tilimizda ifoda-tasvir vositalari deb yuritiluvchi birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini ochib berish va ularning poetik matnlarda badiiy tasvir berishda, lirik qahramon ichki dunyosini tasvirlashda, ma'no kuchaytirishda muhim vazifa bajarishini shoir ijodidan olingan misollarni tahlil qilish orqali dalillash, umuman, shoira poetikasida olam lisoniy manzarasining rang-barangligini ko'rsatib berish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot ishining vazifalari quyidagilar:

- Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining fonopoetik xususiyatlarini aniqlash;
- Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining leksik-semantik xususiyatlarini tahlilga tortish;
- shoira she'riyatining morfologik xususiyatlari tahlili bilan shug'ullanish;
- shoira she'riyatining sintaktik xususiyatlari tahlilini amalga oshirish;
- shoiraning lug'aviy shakl vositalaridan badiiylikni ta'minlash uchun oqilona foydalana olish mahoratini ko'rsatib berish;
- ijodkorning sintaktik shakl vositalaridan poetik rang-baranglikni yaratish mahoratini shoira she'riyatini tahlil qilish orqali ochib berish;
- Halima Xudoyberdiyeva poetikasi tilining stilistik-tasviriy tizimini aniqlash;

– tahlil natijalarini umumlashtirish.

Tadqiqot ishining obyekti va predmeti. Halima Xudoyberdiyevaning hozirgacha nashr qilingan she'rlari mazkur magistrlik dissertatsiyamiz uchun tadqiqot obyekti qilib olindi. Shoir she'rlarida qo'llangan lingvopoetik tasvirni yuzaga keltiruvchi leksik-stilistik vositalarning she'riy asar tilining badiiy-estetik jihatdan o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qilishini lingvopoetik aspektda o'rganish tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot ishining metodlari. Tadqiqot ishining metodologik asosini istiqloq mafkurasining nazariy masalalari aks etgan O'zbekiston Respublikasi qonun va qarorlari tashkil etib, ishda taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, alohidaliklarni aniqlash kabi tahlil usullaridan foydalanildi. Bundan tashqari ishimizni yozishda o'zbek tilshunos olimlari Sh.Shoadurahmonov, U.Tursunov, A.Hojiyev, R.Qo'ng'urov, E. Begmatov, N.Mahmudov, I.Mirzayev, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, M.Yo'ldoshev, B.Umurqulovlarning lingvopoetika bo'yicha bildirgan ilmiy-nazariy fikrlariga ham tayanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

– Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining fonetik hamda leksik-semantik xususiyatlari tahlili umumlashmasi;

–shoira Halima Xudoyberdiyevaning so'z imkoniyatlaridan foydalana olish mahorati ochib berilgan tahlillar xulosasi;

–shoira Halima Xudoyberdiyevaning til grammatik imkoniyatlardan foydalana olish mahorati xususidagi umumlashma tahlil natijalari.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Shoir Halima Xudoyberdiyevaning she'riy asarlari ilk bor lingvopoetik nuqtayi nazaridan tahlilga tortildi.

Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika muammolariga bag'ishlangan ishlar barmoq bilan sanarli bo'lganligi sababli mazkur magistrlik ishi katta ahamiyat kasb etadi. Ishda to'plangan materiallar, kuzatish natijalaridan lingvopoetika, Halima Xudoyberdiyeva she'riyati, unda qo'llanilgan birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy asarlar yozishda foydalanish mumkin.

Ishdagi materiallardan kelgusida filologik yoʻnalishda ilmiy tadqiqot ishlarini yozishda foydalanish ham muhim. Bundan tashqari, ulardan lingvopoetika boʻyicha oʻtiladigan amaliy mashgʻulotlarda til birliklarining matnda tutgan oʻrni, lingvopoetik vosita sifatida qoʻllanish imkoniyatlarini koʻrsatishda foydalanish ham oʻrinli.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi kirish, uch asosiy bob, ichki 8 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

I BOB.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATINING FONETIK HAMDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Bugungi kun o'zbek tilshunosligi jahon tilshunosligi andozalari asosida o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga – o'zbek tilini o'rganishning amaliy bosqichida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar asosida bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hodisalar zahiridagi lisoniy mohiyatlarni idrok etishga – kirishdi. Ya'ni antroposentrik tilshunoslikda shaxs nutqi orqali uning tiliga va shu nutq mansub bo'lgan til tadqiqiga kirib borilmoqda. Ana shunday nutqiy hodisalardan biri bo'lgan matn va uning qurilishini o'rganish o'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda rivoj topayotgan antroposentrik tilshunoslikning tarkibiy qismlari bo'lgan matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvopoetika va kognitiv tilshunoslik sohalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etyapti. Tabiiyki, bu shaxs tili munosabatiga e'tiborni kuchaytirmoqda; til va nutq munosabatini uning egasi bilan birga idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan boyitmoqda.

O'zbek tilshunosligida hozirgacha lingvopoetik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda (Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Rabg'o'ziy, Muhammad Solih, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Yusuf Amiriy, Durbek, Abulg'oziy Bahodirxon, Umar Boqiy, Muhammad Shaboniy, Muqimiy, Furqat, A.Qodiriy, Cho'lpon, H.H.Niyoziy, Elbek, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, K.Yashin, Sh.Rashidov, Oydin, S.Ahmad, M.Shayxzoda, A.Muxtor, E.Vohidov, A.Oripov, Sh.Xolmirzayev kabi ko'plab shoir va yozuvchilarimizning asarlarini, xalq og'zaki ijodi namunalarini, jumhuriyatimizda paydo bo'lgan ilk vaqtli matbuot materiallarini til aspektida o'rganishga bag'ishlangan monografik kuzatishlar tadqiqotchilarimizning keng yo'lga tushib olganligidan, bu boradagi ishlarning birmuncha tartibga solinganligidan dalolat beradi) xalqimiz orasida yetishib chiqqan so'z san'atkorlarining badiiy ijod namunalari, ular tomonidan yaratilgan badiiy asarlar tilining uslubiy, badiiy-estetik jihatlari haqida so'z yuritilgan, ularda yozuvchi yoki shoirning o'ziga xos tili va uslubi, badiiy til vositalaridan

foydalanish mahorati, milliy an'ana va qadriyatlarimizga bo'lgan munosabati, voqea-hodisalar tasvirini berishda o'ziga xos yangidan yangi so'z va iboralar yaratishi kabi masalalar to'g'risida fikr yuritilgan.

Biz shu o'rinda hozirgacha yaratilgan lingvopoetik tahlil usullariga tayangan holda O'zbekiston Xalq shoirasi, o'zbek she'riyatida o'ziga xos ovozi, yo'li va o'rni bo'lgan shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining fonopoetik hamda leksik-semantik xususiyatlariga e'tibor qaratamiz.

1.1. Shoir so'z aytgani kelar dunyoga...

She'r bu shoirning o'zi.

Ibrohim G'afurov

Shu o'rinda Halima Xudoyberdiyeva haqida muxtasar so'z.

Bu yorug' olamda she'r ko'p, shoir ko'p. Biroq chaqnab chiqqan haqiqiy shoirlar ham, fikr-u yodingni tinch qo'ymaydigan asl she'rlar ham kamyob. Zero, badiiy adabiyotning oltin qoidasi bor: qachonki, tuyg'ular chuqur bo'lsagina, chinakam asar yaraladi. Halima Xudoyberdiyeva ijodida inja tuyg'ular, mag'rur "men"lik, rosmi vatanparvarlik, ona-xalqiga bo'lgan tizginsiz muhabbat, boshida qilich yaraqlasa-da, haqqparastlik, odamshunoslik, ayolparvarlik, chuqur-chuqur falsafa, donishmandona dunyoqarash, rostni yozishdan cho'chimaslik kabi oddiy insonlardan o'zgachaliklar juda ko'p va teran.

Halima Xudoyberdiyevaning umr yo'li, aslida, hamma oddiy ziyoli insonlarnikiga o'xshaydi. Ammo shundaymikin?!

Halima Xudoyberdiyeva 1947-yil 17-mayda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida Ummatqul Xudoyberdi o'g'li va Shafoat Xonnazar qizi oilasida dunyoga kelgan. Bo'lajak shoiraning onasi u ikki yasharligida hayotdan ko'z yumadi va unga xolasi Qarshigul Xonnazar qizi onalik qiladi.

Halima Xudoyberdiyevaning ilk she'rlari maktabning 7-sinfida o'qib yurgan paytlaridayoq tuman gazetasida bosilib chiqadi. Keyin uning ijodiy mashqlari tez-tez viloyat ro'znomasida ham ko'rina boshladi. Maktab o'quvchisining ijodiy mashqlari asta-sekin viloyat gazetasi sahifalaridan o'rin ola boshladi. Halima Xudoyberdiyevaning zamondoshi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Abduxoliq Abdurazzoqov o'sha paytlar haqida keyinchalik shunday deydi: "Men, she'rparast 8-sinf o'quvchisi yonimizdagi maktabning o'ninchi sinfida o'qiydigan Halima opani tanigan paytimda uning she'rlari Sirdaryo viloyatining "Sirdaryo haqiqati" gazetasida bosilib turar edi. Halima opa o'zi ham yaxshigina shoir bo'lgan adabiyot o'qituvchimiz Mirzabek Mirzaqulov tashkil etgan adabiyot to'garagining faol a'zosi edi¹³".

Tuman, viloyat matbuotida anchagina tanilib qolgan o'quvchi qiz Halima Sirdaryoga xizmat safari bilan borgan respublika rahbari Sharof Rashidovning nazariga tushib qoladi*. Bu haqda shoiraning o'zi xotiralarida shunday eslagan edi: "Sharof Rashidov she'rlarimni o'qiganlaridan so'ng Sirdaryoning o'sha vaqtdagi hokimi Nosir Maxmudovich degan kishini chaqirtirib: "Shu talantli qizchaga e'tibor berish kerak, kelajakda u, albatta, o'qisin. Qizchaning ota-onasi bilan gaplashinglar", degan ekanlar. Shundan keyin uyimizga viloyat hokimi Nosir Maxmudovich borganlari va otam bilan gaplashganlari esimda bor. Va shu bilan men Toshkentga o'qishga kelganman, bo'lmasa, u paytlar biz tomonlarda qizlarni o'qishga yuborishmasdi"¹⁴.

Yosh shoira yurt rahbarining e'tibori bilan Toshkentga o'qishga keladi. 1968-1972-yillarda Toshkent davlat (hozirgi O'zbekiston Milliy) universitetining jurnalistika fakultetida o'qiydi. Talabalikning dastlabki yilidayoq yosh ijodkorning "Ilk muhabbat" nomli birinchi she'riy kitobi bosilib chiqadi. "Bu kitob shunchalar katta mehr-muhabbat bilan kutib olindiki, buning uchun muxlislarimdan, ayniqsa, universitet domlari – ustozlarimdan minnatdorman. Ularning bir yutug'imga o'n yutuq qo'shib maqtashlari, ba'zan imtihon paytlari Rasul Hamzatov, Silva Kaputikyan yoki Eduard Mejelaytisdanmi yo Bella Axmadullinadan birorta she'r o'qitib (o'zbekcha tarjimada albatta yod o'qirdim) imtihon daftarchamga "5" baho

¹³ www.uz adabiyot/ Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol

* O'z xalqi va vatanini jon dilidan sevgan donishmand ziyoli va fidoyi davlat arbobi Sharof Rashidov vaqt topib, viloyat, hatto tuman gazetalarini ham muntazam kuzatib borgan va matbuot sahifalarida yilt etgan uchqun-ijodga iqtidori borlarning taqdiri bilan qiziqqan. Mana shu e'tibor tufayli yurtimizning uzoq kentlari va qishloqlaridan qanot yozib poytaxtga kelgan, o'zining yorqin faoliyati va ijodi bilan ma'naviy hayotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ko'plab ijodkorlarni adabiyot ixlosmandlari yaxshi eslashadi.

¹⁴ kh-davron.uz Xurshid Davron kutubxonasi. Halima Xudoyberdiyeva: Eng qora ish, eng toza ish–bizning ishimiz...

qo'yib berishlari meni qanotlantirib yuborardi"¹⁵, deb eslagan edi ilk yirik muvaffaqiyatini shoir.

Zero, yosh shoiraning bu muvaffaqiyati: "Oltmishinchi yillarning oxirlarida Toshkent viloyatining Boyovutidan Halima Xudoyberdiyeva xuddi ohuday adabiyot dargohiga kirib keldi. Uning yurishlari, xatti-harakatlari ham ohuday edi. Jasorati ham ohuning jasoratiday hurkak jasorat edi. U yangi gulga kirgan va yangi mevalar tukkan oq olma niholiday bo'lib she'rlar aytib yurdi. Uning ovozi she'r so'zi va dilrabo she'r ohanglariga ding quloqlarga darrov chalindi. Bu ovoz va Boyovut ovozlarini serdiqqat quloq bo'lib eshitganlardan biri va ilg'ori Zulfiyaxonim edi. U yangi ovozni bag'rini keng ochib, mehr bilan kutib oldi, katta yo'l oldidan oq yo'l tilab fotiha berdi. Zulfiya bilan birga Halima Xudoyberdiyevani katta adabiyot va katta avlod ham qutladi", deb yozgan Ibrohim G'afurov gaplarining isboti edi¹⁶.

U o'qishni tugatgach o'zining bir-biridan dilbar she'rlari doimiy chop etiladigan "Saodat" jurnaliga adabiy xodim sifatida ishga qabul qilinadi. Ijod namunalari allaqachon xos o'quvchilarini topib ulgurgan Halima Xudoyberdiyeva respublika xotin-qizlar jurnalida avval adabiy xodim, keyin esa (1975-yilgacha) bo'lim boshlig'i bo'lib ishlaydi. Shu yillar oralig'ida shoiraning yana ikkita she'riy to'plami – "Oq olmalar" (1973) va "Chaman" (1974) nashr etiladi. Halima Xudoyberdiyevaning she'riyat shaydolarining oromini o'g'irlab, qalblarini zabt etib ulgurgan ijod mahsullari, tabiiyki, uning nomini respublikaga yoydi. Xalq orasida "o'zbekning Halimasi" e'tirofiga sazovor bo'ldi; rasmiy, norasmiy yig'inlarda o'zbek xalq shoiralari ro'yxatida Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Zulfiyaxonimlar qatorida Halima Xudoyberdiyeva nomi ham qayd etila boshladi.

Shoiraning –

Men shunchaki o'ylagim kelmas,

Xayol – sharob misol qilsin sarxush, mast.

¹⁵ kh-davron.uz Xurshid Davron kutubxonasi. Halima Xudoyberdiyeva: Eng qora ish, eng toza ish–bizning ishimiz...

¹⁶ Гафуров И. Дарёнинг овози/Худойбердиева Х. Буюк кушлар.–Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 4-5-б.

Men shunchaki kuylagim kelmas,

Ovoz pardalarim chidab bersa bas—

misralaridan to'liqlangan ijodkor, adabiyotning katta bilimdoni, "O'zbek shoirlari" kitobini nashr ettirishdek xayrli ishni uddalagan To'xtasin Jalolov uning she'rlari xususida "Tuyg'ular tug'yoni" sarlavhali maqola yozadi va maqolada shunday deydi: "Halima o'zbek ayol she'riyatida kutilmagan hodisa, ungacha bu san'at koshonasida qandaydir sukunat, osudalik hukm surib, kishini mudroq bosardi. Halima bu dargohga bo'ron bo'lib, suron bo'lib kirib keldi-da, to'liqib, oshiqib, toshiqib baland pardalarda qo'shiq boshladi"¹⁷.

U jurnalning mas'ullaridan biri sifatida tinimsiz izlanar, respublikaning turli viloyat, tuman va qishloqlarida bo'lib "Saodat"ning saodatlilarini izlab topar, ular haqida goh publitsistik, goh badiiy ishlar yozardi. Shoira ijtimoiy hayotning turli lavozimlarida faoliyat yuritisa-da, bir nafas ham she'riyatdan uzoqlashmadi.

1975-yilda she'r ilmini, badiiy adabiyot sirlarini chuqurroq o'rganish maqsadida shoira Moskvaga Maksim Gorkiy nomidagi ikki yillik Oliy adabiyot kursiga tahsil uchun jo'naydi. Moskvada o'tgan shu ikki yil yosh o'zbek shoirasini jahon adabiyoti durdonalari bilan yanada yaqinlashtiradi. Buni shoira o'z xotiralarida alohida e'tirof etgan: "U yerda o'tgan ikki yilni hech qaysi yillarga almashtirib bo'lmaydi. Moskva menga juda ko'p narsa bergan. Men u yerda dunyo adabiyotiga kirib bordim desam bo'ladi...O'sha davrda yozilgan she'rlarning ham ruhi boshqacha"¹⁸.

Shoiraning "Suyanch tog'larim" (1976) "Bobo quyosh" (1977) to'plamlari Oliy adabiyot kursi tahsili davrida yaratildi va she'r ixlosmandlari qo'liga yetib bordi. Uning tarjimon sifatidagi samarali ijodi ham shu davrdan boslandi. Halima Xudoyberdiyevaning Fazu Aliyeva, Silva Kaputikyan, Ibrohim Yusupov asarlaridan qilgan tarjimalari hamisha e'tiborli.

Halima Xudoyberdiyeva 1978-1982-yillarda "Yosh gvardiya" (hozirgi "Yangi asr avlodi") nashriyotida bo'lim boshlig'i, 1983-85-yillarda "Saodat" jurnalida

¹⁷ www.uz adabiyot/ Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol

¹⁸ www.uz adabiyot/ Halima Xudoyberdiyeva bilan suhbat

bosh muharrir o‘rinbosari, 1985-94-yillarda esa “Saodat” jurnalining bosh muharriri vazifalarida ishladi. (“Saodat” jurnalini Zulfiya Isroilovadan keyin Halima Xudoyberdiyeva o‘n besh yil boshqaradi.) Shu bilan bir vaqtda “qaysi yerda bo‘lmasin o‘sha yerni gullatib o‘tirish odamning burchi” deb hisoblagan shoira 1989-94-yillarda Respublika xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimida ham faoliyat yuritdi. Shu yillar oralig‘ida ijodkorning “Issiq qor” (1979), “Sadoqat” (1983), “Muqaddas ayol” (1987), “Bu kunlarga yetganlar bor”, “Hurlik o‘ti” (1993), “To‘marisning aytgani” (1996) kabi qator to‘plamlari nashr yuzini ko‘rdi.

Ayni paytda Moskvada uning “Faxr” va “Oq olmalar” she‘riy to‘plamlari rus tiliga tarjima qilinadi. Keyinroq esa “Решимость” nomli she‘riy tarjima kitobi ham chop etiladi va rus kitobxonlari auditoriyasiga yetib boradi.

1990-yilda Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati bo‘lgan shoira 1-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati sifatida ham faoliyat yuritadi.

Ilk she‘rlari bilanoq o‘zbek adabiyotiga voqea bo‘lib kirib kelgan Halima Xudoyberdiyeva 1992-yilda “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoniga muyassar bo‘ladi.

*Yuragimga ona arslon qo‘ygan in,
...Men taslim bo‘lmay turib, so‘rmalab,
Qonimizni ichadigan mast yo‘qdir.
Ona arslon o‘lmay turib, o‘rmalab
Bu o‘rmonga kiradigan kas yo‘qdir,*

deb mardona she‘rlar yozgan, o‘zbek she‘riyati osmonida yorqin yulduz sifatida chaqnagan shoiraning yelkalarini ham tazyiq toshlari ezmay qo‘ymadi.

1994-yilda shoiraning turmush o‘rtog‘i (o‘sha paytlarda respublikamizda davlat maslahatchisi bo‘lgan iqtisod fanlari doktori Mavlon Bobojonovich Umrzoqov (bizga noma‘lum sabablarga ko‘ra) ishdan olinadi va Halima Xudoyberdiyevadan ham ishdan bo‘shash haqida ariza yozish so‘raladi. Shoiraning she‘rlari maktab darsliklaridan chiqariladi. (Tom ma‘noda, yozganlari kechagina “ko‘zga surtilgan” bo‘lsa, boshiga tushgan tashvish tufayli shoiraning she‘rlari maktab darsliklaridan yiritib olib tashlanadi.)

Shoira o'shandan so'ng ikki yil (turmush o'rtog'i qamoqda bo'lgan payti) uydan ko'chaga chiqmaganini aytgan edi. Afsuski, Halima Xudoyberdiyeva uchun o'g'ir bo'lgan yillarda shoiraning biror misrasi biror o'rinda chop etilmadi...

Hayot davom etardi. Tirik inson yashashi kerak. "Keyinroq, bir amallab ("Guliston" degan jurnal bo'lardi o'sha paytda), adabiy xodim bo'lib ishga kirganman. Bu ishga, odatda, universitetni tugatgan yoshlar kelishardi", deb eslagan edi shoira o'sha kunlarni.

Halima Xudoyberdiyeva "Osoyishta sham"da u holatni shunday tasvirlaydi:

Koshonamni, xos xonamni sinchiklab ko'radilar,

Ko'nglim ko'rar, ko'nglim so'rar bir do'st topmay hayronman.

Bir o'y singdi yuragimga xuddi nashtar, xuddi o'q,

Yiqilmagin, yiqilganni suyaydigan odam yo'q.

Besh farzandning onasi bo'lgan shoiraga yonida tog'day bo'lib yurgan pahlavon farzandi Umidbekdan judolik ham – To'maris onamiz o'g'li Sparganizdan ayrilib qolgani kabi – juda-juda og'ir bo'ldi. Hayot hech kimni asal tutib siylagan emas. Irodasi mustahkam, o'z yo'lida sobitqadam shoira yuragining "eng ichkin", "eng to'rida" buni chuqur his etar ediki, bu uni yana oyoqqa turg'aza oldi. Zero, shoiraning o'zi aytganidek: "To'marisdek oyoqqa qalqqan ayol o'lmaydi! To'marisning tumorin taqqan ayol o'lmaydi!"

Halima Xudoyberdiyeva 1996-yillarda "Yozuvchi" nashriyotida yetakchi mutaxassis va "Guliston" jurnalida adabiyot bo'limini boshqardi. "Sanam" jurnalida bosh muharrir o'rinbosari (1998-2003), 2004-yildan "XXI asr" gazetasida bo'lim muharriri bo'lib, 2018-yildan "Dugonalar" jurnalida bosh muharrir vazifasida ishladi.

Asosiysi, hayotda o'z tamoyillariga sadoqat bilan yashagan, she'riyatda mardona nafasli, o'ziga va so'ziga munosib shoiraning qalami qo'lidan tushmadi... Inchunun, o'ning o'zi aytgandek:

Men otilgan o'qman, ortqa – qaytish yo'q...

Shoira she'riy titratmaning aks sadosi va ayovsiz larzasida har kim ham aytishga jur'at etolmaydigan misralar orqali o'z taqdirini shunday bashorat etgan edi:

*She'riyat, ko'ksimga xanjaringni sanch,
Bu qurbonsiz umr meniki emas...* (“Holat”, 1986)

Uning “Saylanma” (2000), “Yo'ldadirman” (2005), “Buyuk qushlar” (2012), “Osoyishta sham” (2017) to'plamlari shoira hayotidagi “*qattiq boshimga tegib ming bo'ldi bir tuhmat tosh*” davrlaridan keyin yaratildi va chop etildi.

Halima Xudoyberdiyeva mahoratli publitsist hamdir. Uning “Yuragimning og'riq nuqtalari” to'plamiga kirgan maqolalarida zamonamizning dolzarb muammolari haqida mushohada yuritiladi.

Halima Xudoyberdiyevaning “Osoyishta sham” to'plami¹⁹da “Tobora yaqin” she'ri bor. Bu she'r shoira hayotining kuchli alg'ov-dalg'ovli yillaridan so'ng o'zi bir umr orzu qilgan va har doim yaxshi kishilarga sog'ingan “dopilomon kunlar” kelishidan bashoratga o'xshaydi go'yo.

*Boshimdagi bulutlar ko'chadigan kunlarim,
Ko'ksimdagi burgutlar uchadigan kunlarim,
Quvonch daryolarini kechadigan kunlarim,
Yaqin, tobora yaqin!*

Ha, shoira hayotida “*quvonch daryolarini kechadigan kunlar*” keldi. Haq nihoyat qaror topdi. 2017-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra milliy adabiyotimiz rivoji yo'lidagi ijodiy mehnati, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shgan munosib hissasi, mamlakatimizning ijtimoiy hayotidagi samarali faoliyati uchun O'zbekiston Xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva “El-yurt hurmati” ordeni bilan mukofotlandi.

Ilk she'rlari 1964-yil – o'quvchilik yillarida Yangiyer tumani gazetasida bosilgan Halima Xudoyberdiyevaning hozirga qadar “Ilk muhabbat” (1968), “Oq olmalar” (1973), “Chaman” (1974), “Suyanch tog'larim” (1976), “Bobo quyosh” (1977), “Issiq qor” (1979), “Sadoqat” (1983), “Muqaddas ayol” (1987), “Bu

¹⁹ Худойбердиева Х. Осоишта шам. Шеърлар, назм.—Тошкент: Ўзбекистон, 2017.—168 бет.

kunlarga yetganlar bor”, “Hurlik o‘ti” (1993), “To‘marisning aytgani” (1996) “Saylanma” (2000), “Yo‘ldadirman” (2005), “Buyuk qushlar” (2012), “Osoyishta sham” (2017); rus tilida “Гордость”(1976), “Белое яблоко”(1979), “Решимость”(1985) kabi she‘riy kitoblari, “Yuragimning og‘riq nuqtalari” nomli publitsistik asari nashr etilgan. Shuningdek, shoira Halima Xudoyberdiyeva To‘fon Minnullin ijodidan erkin tarjimai bo‘lmish “Alla” pyesasi O‘zbek Milliy akademik drama teatri sahnasida ko‘p bora qo‘yilgan.

Halima Xudoyberdiyevaning she‘rlari ko‘plab xorijiy tillarga tarjima ham qilingan²⁰.

Taniqli shoira Halima Xudoyberdiyeva 2018-yilning 17-avgustida tabarruk 71 yoshida vafot etdi.

Shoira hayotligida ham, uning vafotidan so‘ng ham u haqida o‘nlab o‘tli maqolalar yozilgan²¹.

“...o‘zbek she‘riyati qahkashonida asl nusxa shoir bo‘lish oson ish emas. Ayniqsa, Siz she‘riyatga kirib kelgan o‘sha 60-yillar so‘nggi va 70-yillar avvalida. Kirib kelganlarning yarmini Abdulla Oripov o‘z ta‘siriga olgan bo‘lsa, qolgan yarmining yuragini Erkin Vohidov, Rauf Parfi, Omon Matchon kabi shoirlar “ishg‘ol” qilgandi. Siz esa xuddi 70-yillar avlodining zabardast shoirlari kabi ish tutdingiz – tayyor, tekis yo‘llardan yurishni qo‘yib, o‘zga bir yo‘l izladingiz va topdingiz. Demak, Halima Xudoyberdiyeva deganlari o‘zbek she‘riyatida o‘z qiyofasiga ega, baquvvat shoirdir...! Ijodning eng muhim, eng baland nuqtasi ham mana shu asllikdir. U hammaga ham nasib etavermaydi. Zero, XX asr o‘zbek she‘riyatida minglab shoirlar mavjud. Lekin o‘shalardan bir necha (4ta) avlodning bir necha shoirigina millat badiiy tafakkur tadrijiga chinakamiga ta‘sir ko‘rsatgan. Siz ana shu sanoqlilar qatorida borsiz...! Xo‘sh, qolganlar-chi? Qolganlar shular ochgan izdan yurib, she‘riyat davrlarining to‘laqonli

²⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Halima_Xudoyberdiyeva

²¹ Орипов А. Жонфидалик/Худойбердиева Х. „Сайланма“ (Тошкент: Шарк, 2000.) сўз бошиси.; Расулов А. Ҳалима Худойбердиева/ Китоб: Ўзбекистон Ёшлари мукофоти лауреатлари. Тошкент: Ёш гвардия, 1977, 140-146 б.; Ражабова Р. „Мен Туроннинг қадим кўнғироғи...“ „Гулистон“ журнали, 1997, 5-сон.; Раҳимжонов Н., Ҳамидова М., Ҳалима Худойбердиева лирикаси, –Т., 2004.; www.uz/ Ot haqida she'r yozgan Boyovutlik qizaloq.; www.uz/adabiyot/ Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol.; kh-davron.uz Xurshid Davron kutubxonasi. Ulug‘bek Hamdam. Qarzдорlik va umidvorlik tuyg‘usi va b.

manzarasini yaratishga xizmat qiladi. Ammo takror aytaman, “muzyorar”lar barmoq bilan sanoqlidir”, deb yozadi “O‘zbekiston Xalq shoiri H.Xudoyberdiyeva shaxsiyati va she’riyati haqida ikki og‘iz so‘z” aytgan Ulug‘bek Hamdam o‘zining “Qarzdorlik va umidvorlik tuyg‘usi” maqolasida.

Ulug‘bek Hamdam ishlatgan tashbehlarda hech bir mubolag‘a yo‘q: “o‘zbek she’riyati qahkashonida asl nusxa shoir”, “muzyorar shoir”. Bilamiz, “asl”lar, “muzyorar”lar oramizdan jisman yo‘qolsa-da, ularni “o‘ldi” deb bo‘lmaydi. Sababki, o‘sha asllar, o‘sha muzyoralar yaratgan beqiyos merosi bilan nomini mangulikka muhrlaydi.

Fikrimizni darhol dalillaymiz. Agar ayol haqida, ayniqsa, o‘zbek ayoli haqida gap ketsa-yu, uning ta’rifiga tashbeh qidirsak, eng avvalo, tilimizga, dilimizga keladigan bir satr bor: “*Sen baribir muqaddassan, muqaddas ayol...*” Shu birgina satrni o‘zicha xirgoyi qilmagan, qo‘shig‘ini eshitganda to‘lqinlanmagan biror bir o‘zbek bormikan?! Demak, oddiy insonlarning ham tilida aylanadigan asl she’r bor ekan, shoir hech qachon o‘lmaydi.

Zero, shoira o‘zi ta’kdlagan edi: “Adabiyot – ko‘ngil uchun ishlaydi. Uni dag‘allashib, toshga aylanib ketishdan saqlaydi. U odamlarni mehr-muhabbatga o‘rgatadi. Bir-biridan teskari tomonga emas, bir-biriga peshvoz yurishga undaydi. Peshvoz yurganda ham birinchi qadamni ikkilanmay o‘zing tashlashing kerakligiga o‘rgatadi. Qanday sevish, qanday yashash kerakligini o‘rgatib oqayotgan toza daryo suvlaridan ichmay yashab bo‘ladimi?!²²” Adabiyot – bu asl she’riyat. Asl she’riyat – bu Halima Xudoyberdiyevaning ijodiy merosidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ko‘ngli nozik, irodasi metin, zuvalasi toza, iqtidori chin, ruhi jilvakor, hassos shoira Halima Xudoyberdiyevaning “she’rlaridan daryoning ovozi keladi. Xalq esa daryosiz yashay olmaydi”²³. Zero, shoira o‘zining ijodiy merosi “qanday sevish, qanday yashash kerakligini o‘rgatib oqayotgan toza daryo” – adabiyotning o‘zidir.

²² kh-davron.uz Xurshid Davron kutubxonasi. Halima Xudoyberdiyeva: Eng qora ish, eng toza ish–bizning ishimiz...

²³ Гафуров И. Дарёнинг овози/Худойбердиева Х. Буюк кушлар.–Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 10-б.

1.2. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining fonopoetik xususiyatlari

*She'riyat, ko'ksimga xanjaringni sanch,
Bu qurbonsiz umr meniki emas...*

H.Xudoyberdiyeva

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador, nutqning boshqa biror ko'rinish-u shakllarida takrorlab bo'lmas ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikni ta'minlashga nutqning eng kichik birliklari bo'lmish nutq tovushlarini tovlantirib, o'rni bilan topib-topib, chertib-chertib qo'llash orqali erishiladi. She'riyatda asosan,

alliteratsiya (undoshlar takrori),

assonans (unlilar takrori),

geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi ²⁴.

Nasrda ham, nazmda ham unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda "aynan" ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Aflotun va Arastu yashagan zamonlardayoq so'zning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga ko'chirish muammosi mutafakkirlar e'tiborini o'ziga jalb qilgan edi. Hatto bu notiqlik san'ati bilan bog'liq bo'lmagan ravishda, so'zning, so'zdagi harflarning talaffuzi bilan bog'liq ohanglar garmoniyasi buyuk faylasuflar uchun ilhom manbayi bo'lgan edi. Ular so'z tarkibiga singib o'ziga xos ma'no va ohang kasb etib ulgurmagan harflarga ham o'zgacha mazmun berishga intilishgan edi. Masalan,

[r] harfi – tezlikning, shiddatning ramzi,

[I]–harfi viqorning, silliqlikning, yaltiroqlikning ifodachisi,

[i] – torning, [a]– keng va kattaning,

²⁴ Ёўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.–Тошкент: Фан, 2006.

[e] –abadiyatning belgisi sifatida talqin qilingan.

Keyinroq tovushlar tabiati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar [u], [d], [r] tovushlari dahshatni yodga solishi, [i] xursandchilikning, [m], [n], [i] tovushlari nazokatning sirli ramzlari ekanligi haqidagi mulohazalarini bayon qilishgan. Tovushlarga, ayniqsa, harflarga bu tarzda ma’no yuklash, albatta, jiddiy ilmiy asoslarga ega emas. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o‘ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo‘lish, xafa bo‘lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, so‘roq, ta’kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo‘llab quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan foydalanadilar²⁵. Masalan,

1.Unlilarni birdan ortiq yozish orqali ijodkor aytmoqchi bo‘lgan yoki aytayotgan fikr lirik qahramonning voqelikka munosabati sifatida oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me’yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanilishi ta’kidlanadi.

Belgining kuchsizligi, davomiyligi: “Tomirida To‘maris qoni oqayotgan” shoira maydondan qochib erka tuyg‘ularga panalamaydi. U faqatgina intim hislarga ham bog‘lanib qolmaydi. Yuragida “*ona arslon in qo‘ygan*” shoira otasi, onasi kabi oddiy mo‘te inson sifatida “*tiz cho‘kkancha yashab*” o‘tmoqqa also ko‘nmaydi. U butun elda, yurtida erk shamoli esishini istaydi. Ijodkor istak-xohish bilan cheklanib chetda tomoshabin bo‘lmoqchi emas. U yalov tutib g‘aflatdagi yurtodoshlarini o‘yg‘otmoq uchun yaratgandan “*Turk, Turonni ko‘tarmoqni o‘zimga ber*” deb iltijo qiladi.

Otam, onam ko‘ngli yig‘lab, bo‘sha-a-b o‘tdi,

Otam, onam yog‘iyga par to‘sha-a-b o‘tdi,

Otam, onam tiz cho‘kkancha yasha-a-b o‘tdi,

Xudo, endi madoringni tizimga ber.

Ko‘klamlarim taloshlarda talo-o-n bo‘ldi,

²⁵ Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлилига бағишланган янги тадқиқот ҳақида//Филология.10-чиқиш. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.

*Uvuz etda kuydim, yig‘i, o‘la-a-n bo‘ldi,
Yozim–balog‘atga yetgan nolo-o-n bo‘ldi,
Endi ozod qo‘shiqlarni kuzimga ber.*

*Soviy-soviy muzlagan dil muzliklarim,
Eriy boshlab so‘z ochmoqda so‘zliklarim.
Qaytsa, qaytmas bo‘lib ketgan o‘zliklarim,
Turk, Turonni ko‘tarmoqni o‘zimga ber.*

(“Turk, Turonni ko‘tarmoqni o‘zimga ber” she‘ridan)

She‘r misralarida qofiya tarkibida unlilarni birdan ortiq yozish shu so‘z ifodalayotgan leksik mazmunga qo‘shimcha davomiylik ma‘nosini ham yuklaydi va unda ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Belgining ortiqchiligi: Halima Xudoyberdiyeva shunchaki she‘rparast emas yoki vatan haqida jimjimador misralar yozib o‘z yozganlarining ketidan kerilib yuradigan shuhratsevar ham emas. U vatanini, elini butun borlig‘i bilan sevishini tabiiy hol deb hisoblaydi, o‘zini uning bir parchasi, o‘zligi deb biladi. Shuning uchun ham u yurtini, xalqini asrash uchun: “*Mendan qay ish lozim bo‘lsa, Barchasiga tayyorman!*” deb xitob qiladi. Bu ijodkor – xalqparast. Bu shoira–yurtparast. Nega?! Chunki u uchun turkiy eli “*Iymoni(m)ga o‘rab yurgan boyligi(m)*”: shoraning yozganlari “*eli(m)ning jon-jigariga ko‘zmunchoq*”, u shu yurt, shu el uchun “*boshdan oyoq HURLIKni kiy*”gan. Shu boisdan shoira xudodan ham, avvalo, eliga, yurtiga omonlik tilaydi va junbushga kelgan tug‘yonlarini shunday yozadi:

*Dilda o‘sib, nurab yurgan boyligim,
Bor dunyodan so‘rab yurgan boyligim,
Iymonimga o‘rab yurgan boyligim,
Turk elimni shafqatingga zo-o-r qilma.*

*Bor yumushim bitib, ketar mahalim,
Nuray-nuray yitib ketar mahalim,
So‘ray-so‘ray o‘tib ketar mahalim,
Iltijom shu: “Turkistonni xo-o-r qilma”. (“Iltijom shu” she‘ridan)*

Shuningdek, badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan afsuslanishi, hayratlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarini ifodalashda ham foydalaniladi. Masalan, *O-o-o-o...Allaqachon unutdim bari-barini, "Allaqachon" aldamayman men o'zimni o'zim. Ortda qolgan muhabbatning qo'shiqlarini, Eslatma, deb o'z-o'zimga tilayman to'zim...* ("Unutgan ma'qul" she'ridan)

O'rtoqlarim joni po'lat, joni qil,

Biri sariq, biri kamqon, biri sil

*Hali **uz-oq** davolanar, **uz-oq** yil*

O'lmay qolsa bo'ldi. Qayta bo'lmas moh

Qo'llarimning kishani yo'q, yo Olloh! ("So'nggi oh" she'ridan)

Mazkur fonografik usuldan badiiy matnda xitob, chaqirish, da'vat, tinglovchi e'tiborini jalb qilish, hatto istehzo qilish holatlarini ifodalashda ham foydalanilishini kuzatish mumkin. Shoir "Sulton qaroringni ber!" nomli she'rini Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti" kitobidagi quyidagi lavhadan ta'sirlanib yaratadi:

"Bu fojialardan ko'p ta'sirlangan sultonning onasi, ahli ayoli unga yukindi: "Allohni o'rta qo'yib iltijo qilamiz. Bizni o'zing o'ldirib asirlikdan qutqar!" U noiloj barchasini suvga cho'ktirishni amr etdi". Dunyoda haqiqiy erkak zoti borki onasini, ahli ayolini har qanday sharoitda har nedan, har qanday xavfdan, hatto begona nazardan ham himoya etadi. Bilamiz, yurt, millat qayg'usi jismi joniga singgan milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdi onasi, ahli ayolini dushman iskanjasidan qutqarmoq uchun ularning hayotiga o'zi nuqta qo'yish amrini berishga majbur bo'ladi. Halima Xudoyberdiyeva Jaloliddin Manguberdining ilojsiz, ammo o'sha vaziyatdagi eng to'g'ri qarori bugun bizga ham zarurligini aytadi. Yo'q, u buni shunchaki aytmaydi. Bugunning beparvolariga istehzo bilan aytadi: yurtning har bir erkagi Jaloliddin sulton, har bir ayoli uning oqila zavjasi, mard onasi kabi bo'lishini istaydi. Yurt, uning har siqim tuprog'i uchun o'zidan, yurtdoshlaridan jonfidolik so'rab shunday yozadi:

Sulton, qahringni ber,

*Qahr lanaylik,
So'kilsin osoyish ko'ngilning choki.
Sulton, zahringni ber, zahar lanaylik,
Bemormiz, bu zahar sog'aytsin toki.
Yoronlar!
Biz ham **bi-i-ir** sultonlanaylik
Uning yo'lbars ruhini o'zga o'tkarib,
Bo'laylik sultonga suyakli qayliq,
Sultonning onasi bo'laylik, g'arib...
Hatto
Xayolidan boryapman o'rlab,
Bizda-da **bi-i-ir** yashab, ko'karsin sulton.
Dunyoga larzalar solarak gurlab,
Turkiy qavmlarni ko'tarsin sulton!
Qodir Alloh,
Bir bor kechsin shunday hol,
Keyin,
Keyin mayli, ne g'am chekdirsin,
Yog'iy oyog'ida qilmasdan poymol.
Bizni onasiday...
Xotiniday bizni...
Daryo suvlarida o'zi cho'ktirsin.*

Ha, har na etsa, Vatan etsin, Yurt etsin, "yog'iy oyog'ida qilmasdan poymol". Shoir beparvo kun o'tkazmoqni yashash deb bilmaydi. Shu boisdan ham beparvolarga istehzo etayotganligini she'r bandida bir necha o'rinda unlilarni cho'zish orqali ifodalaydi.

2.Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida orfoepik me'yor bo'yicha bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo'lgan so'zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiv va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. So'zlovchining ichki ruhiyati (siqilish, ichikish, xursandlik, ko'ngil to'lishi kabilar) va maqsadini

kitobxonga “aynan” yetkazish uchun ijodkorlar badiiy matnda bu holatni undoshlarni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Bunda belgining me’yordan ortiqqligi, harakatning davomiyligi yoki oniyliigi (bir onda ro’y berganligi), takroriyligi, tovush kuchining balandligi yoki pastligi kabi ma’nolar ifodalangan bo’ladi. Ammo shoira Halima Xudoyberdiyeva undoshlarni majburan qavatlamaydi. Grammatik talablarga mos qavatlangan undoshlardan mahorat bilan foydalanishga harakat qiladi. Masalan,

belgining ortiqqligi:

*Menga tanish **ikki** odam so‘zlashar xoli,*

Yo‘qqa o‘xshar bir-biridan yashirin siri.

*Biri **jannat** bog‘larining xushbo‘y shamoli,*

***Hatto** do‘zax oloviga pand berar biri.* (“Bir qirg‘oqda” she’ridan)

She’r misralaridagi *ikki*, *yo‘qqa*, *jannat*, *hatto* so‘zlari she’r ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Chunki, shoira qofiya talabiga ko‘ra *jannat* so‘zi o‘rnida *rizvon*, *yo‘qqa* o‘xshar o‘rnida *yo‘q ularning* shakllarini qo‘llashi mumkin edi, ammo bunday holatda mazmun butunligi saqlansa-da, she’rning ta’irchanlik kuchi pasayar edi.

*...Endi erir tog‘lar qori, Bizning bog‘lar **gullamas**. Soching **oppoq** oqarar-u Birov sevib, silamas...* (“Ro‘molcha” she’ridan)

Harakatning davomiyligi: *Yo‘q **hamma** ham bir emas, minglarcha mard, pok yurak, Ammo **bugunning** ishi – keskin har qalbgaga kirmoh. Razil **bitta** bo‘lsa ham alafday urmoq kerak, Loqayd **bitta** bo‘lsa ham bir xas kabi supurmoq. Yo‘qsa, kapalakmijoz ishq dod bo‘lib yashaysiz, Yo‘qsa, Ona tarixga isnod bo‘lib yashaysiz.* (“E’tiqod” she’ridan)

Harakatning oniyliigi: *Hozir bu yurak **taqqa** to‘xtaydi... **Shartta** xotiradan kechib bo‘lmaydi...*

*Shunda meni ul **ummonga** Qaytarkansan topshirib; **Ikkov** yashagan makonga, Qandoq kelasan kirib? Qay tarz eshik itarasan, Qaltiramay befaryod? **Qadding** qandoq ko‘tarasan, Ko‘kragingdan **bossa** dod!* (“Ro‘molcha” she’ridan)

Shoiraning ko'zlarida hamisha hayrat bor, tafakkuri hamisha tahlilda, mushohadada. Ulug'larning har bir so'zi uni to'ldiradi, obrazlar harakati uni ta'sirlantiradi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ida: "Otabekning Zaynabga aytgan "taloq" so'zini eshitib, jon talvasasida yotgan Kumush "yarq" ko'zini ochdi... va qayta yumdi" degan o'rinni Halima Xudoyberdiyeva o'z tyg'ularida shunday ifodalaydi: *Uzun qabohat kuli yuldi sarv-u sumanni, Zaharga qo'shib qordi otash shirinsuxanni. Kelgan joyi shu bo'ldi ishq deb yo'lga chiqqanning, Kumush, ko'zlaring qayta yumilmasa bo'lmasmi, Shunday sarv tuproqqa ko'milmasa bo'lmasmi?! ("Kumushning o'limi" she'ridan)*

Ovoz kuchining balandligi: *Ohhh! Bu urush... tina boshlar qaytadan ko'zim oldi, Yongan o'tinmas, odamning kuli tushib ko'ngilga. Tasavvur qil, bir yosh yigit gulga aylanib qoldi, Biz bir tirik jondan ayru, ega bo'ldik bir gulga. ("To'raqo'rg'onda" she'ridan)* Misralarni oddiy bir kitobxon sifatida o'qir ekanmiz, shoira chekkan oh bizga ham "yuqadi". Bu shunchaki *oh* emas, bu – *ohhh!* Nolakor oh ich-ichimizdan chiqqan xo'rsiniqqa aylanib cho'kib ketaveradi go'yo. Demak, shoira "yuqtirgan" dard – she'rdagi mazmun xayolimizni o'ziga bog'lab oladi.

Ovoz kuchining pastligi: *Jimmm... To'raqo'rg'on tumanida mingta qizil gul yotar – Mingta shunqor yigit ramzi, ko'ngil faryod solma, bas, Oppoq-oppoq tonglar otar, qirmiz-qirmiz kun botar, Bul yigitlar qattiq uxlar, Zuhrolarin eslamas... ("To'raqo'rg'onda" she'ridan)* Ich-ichimizga xo'rsiniq bo'lib cho'kayotgan nolakor oh To'raqo'rg'ondan Afg'on urushiga ketib, jasadlari (balki ruslarning ichi bo'sh temirqutilaridir) qaytgan navjuvon yigitlarning qabri tepasida endi yurak sanchig'iga aylanadi. Shundog'am qabristonda ovozni ko'tarib bo'lmaydi: *jimmm...* Ha, misra boshida kelgan *jimmm* – lirik qahramonning qalb ingrog'i, so'ngsiz armon ifodasi, o'lim qarshisida insonning imkonsizligi. O'lim haq. Nega buni aqlan tushungan inson (lirik qahramon) unga ko'nmaydi?! Chunki To'raqo'rg'ondan Afg'on urushiga ketib, shahid bo'lgan yigitlar qora niyatli urushocharlarning nafs qurbonlariga aylangan. Bunga chidab bo'ladimi?! Qizil

urush ochadi Qoraga. Jangga solinadi o‘zbekning o‘g‘lonlari... Mana shoiraning ichki ingrog‘i sababi nimada...

3. So‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish. Og‘zaki nutqda turli sabablarga ko‘ra ayrim so‘zlar, masalan, o‘zlashma so‘zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xatoni so‘zlovchining o‘zlashgan so‘z imlosini to‘g‘ri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi, deb izohlash mumkin. She‘riyatda bu usuldan lirik qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og‘zaki – jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida ham foydalaniladi. (Ayrim o‘rinlarda kulgi qo‘zg‘atish maqsadida ham so‘zlar atayin buzib talaffuz qilinadi va o‘sha tarzda yoziladi.) Masalan,

Eslasang... xotirga qyunlar ketgay, Eslasang, qorayar ko‘zlaring oldi. Qiyg‘oc bog‘lar ketib shamolga betkay, O‘rnida yap-yaydoq dalalar qoldi... (“Muammo” she‘ridan)

So‘z tashib, so‘z tashib xuddi bolari, Biz qaygacha borsak, so‘z-la boramiz. Siyrak tortib qolsa so‘z dalalari, Uni bolalarga qandoq beramiz? (“Muammo” she‘ridan)

Qandoq unutamani, unutay qanday, Ayniqsa, ko‘rganda bu –jang boshini. Majnuntol bukilib sadr tushganday Sannab yo‘qlayversa to‘kib yoshini, Opam, singlim degil majnuntollarni! (“Mening so‘nggi tunim bo‘ldi” she‘ridan)

Agar shoira “Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar” she‘rida **bo‘pti** shaklini **bo‘libdi**, **ko‘pdi** shaklini **ko‘pni** tarzida bersa, she‘rning ta‘sirchanligi bu darajaga yetmas edi:

Endi deganlarida “qarchigay yigit bo‘pti”, Asta egilib qizni yo o‘pmadi yo o‘pdi. Ammo uchib ketdilar lochini bo‘lib ko‘pdi, Ammo yurt qon qaqshadi, yurtda qiyomat qo‘pdi, Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar. (“Qirchillama qirq yigit uyga qaytmagan kunlar” she‘ridan)

Yoki “Eng toza meva” she‘rida zuriyyot so‘zi *zuryod* shaklida qo‘llanilgan:

Mevam, qaysi bog‘da bunyod bo‘lding sen, Qay noshud bog‘bon u – mevasin otgan. Qay bir qondan bino, zuryod bo‘lding sen, Onam deb har kimga jovdirab yotgan.

Shoira ijtimoiy hayotdagi hech bir voqelikka befarq emas. Tug‘ib tashlab ketilgan bolani “eng toza meva” deb unga achinadi. Norasidaning ota-onasidan qahrilanadi: ota bo‘lmishni “*mevasin(i) otgan noshud bog‘bon*” deya ataydi; farzandini “*onam deb har kimga jovdirab yotgan*”, tug‘iiboq baxtsizlik tamg‘asi peshonasiga bosilgan go‘dakka aylantirgan ona bo‘lmishdan nafratlanadi, ularning bu mudhish xatoni tuzatishlarini istaydi. Va yana bu holatga bevosita aralasha olmaganidan kuyinadi.

Alliteratsiya. Badiiy nutqning ohandorligini va ta’sirchanligini ta’minlashda alliteratsiyaning o‘rni beqiyos. She’riy nutqda misralar, undagi so‘zlar hamda bo‘g‘inlar boshida yoki oxirida bir xil unli yoki undosh tovushlarning takror qo‘llanilishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan sharq she’riyatida keng qo‘llanilib kelingan. Ko‘hna badiiyatshunoslik (“ilmi bade’”)da alliteratsiya “tavzi’ san’ati” deb yuritilgan.

Nasrda alliteratsiyadan foydalanish badiiy effekt berishi qiyin. Shuning uchun nasrda kamdan kam hollardagina alliteratsiyani kuzatish mumkin bo‘ladi²⁶. Biroq alliteratsiya nazmning joni, o‘ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiruvchi holat hisoblanadi.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida sof (to‘liq) alliteratsiyadan foydalangan o‘rinlar deyarli uchramaydi. Ammo qisman alliteratsiyali o‘rinlar mavjud. Masalan, *Girdingizda daryoday oqqanim oqqan bo‘ldi, Joningiz alqab jonim yoqqanim yoqqan bo‘ldi, Bukilmang, deb ko‘z uzmay boqqanim boqqan bo‘ldi, Non-tuzini ko‘z yoshday yomg‘ir, qorga qorgan xalq, Oxir-oqibat ozod, ko‘ksini ko‘targan xalq.* (“Xalqimga” she’ridan)

Bilmadim, men seni sevgan lahzadan, Boshimga ne baxt-u balolar tushdi. Hech kimga bo‘y bermay, bermadim men tan, Garchand she’rimga qon, lolalar tushdi. (“Uchinchi do‘st” she’ridan)

Bog‘imda birovning bulbulginasi, Bog‘imda chorlangan do‘st-u yor jami. Ko‘zimning ustiga uzri, ginasi, Ko‘zimning ustiga poyi qadami. (“Kelin tushirgan oqshomda” she’ridan)

²⁶ Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: Ўқитувчи, 1995.

Assonans. Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsionalik, ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan. (Unlilarning takrorlanishi xalq maqollarida ko‘p kuzatiladi: **O‘zing o‘yda bo‘lsang ham, o‘ying uyingda bo‘lsin kabi**)²⁷.

Assonans she‘riy matn tarkibida, ko‘pincha, qofiyadosh so‘zlar tarkibida kelib, she‘riy nutqqa ko‘tarinki ruh va o‘ziga xos musiqiylik baxsh etadi. Chunonchi, [a] hamda [o] harflari assonans hosil qiladi: *Avval-oxir shoirni o‘tda ko‘rdim, momojon, Azal shoir dardini katta ko‘rdim, momojon.!* (“Bu o‘t...” she‘ridan)

[o‘] hamda [u] harflari assonans hosil qilishi mumkin:

Hayhot, boshda o‘q yomg‘iri, botib qonli kechuvga,

Sherigini o‘qdan to‘sib o‘zi o‘qqa uchgan jon –

Ruhi bugun duch kelarkan goho yuragi quvga,

Nechun tuproq o‘t olmaydi, yerga qulmas osmon –

Jangdagilar yovlashganlar yurt bilan jon talashib,

Biz goh nega yovlashamiz mansab-u shon talashib! (“Ittifoq” she‘ridan).

Bu kabi misollar shoira she‘riyatida ko‘plab uchraydi.

Geminatsiya. Badiiy nutqda keng qo‘llaniladigan fonetik usullardan yana biri geminatsiyadir. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da mazkur hodisa “qo‘sh undoshlik – ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi” sifatida izohlanadi²⁸. “O‘zbek tili tarixiy fonetikasi” o‘quv qo‘llanmasida esa bu hodisa “qo‘shoqlanish” yoki “ikkilangan undosh” deb yuritiladi: “qo‘shoqlanish–undoshlarning cho‘zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o‘zgarishlar sirasida ko‘rib chiqish o‘ta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo‘la olishi bilan fonetik o‘zgarishlarga o‘xshaydi. Qo‘shoqlanish, asosan, ikki unli orasida kelgan [k], [q], [t], [l] tovushlarida va faqat 2, 7, 8, 9, 30, 50 sanoq

²⁷ Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: Ўқитувчи, 1995.

²⁸ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.–Т.: ЎЗМЭ, 2002.

sonlarini nomlashda sodir bo'ladi. Bu sonlarni bir undosh bilan ham, ikkilangan undosh bilan ham talaffuz etish mumkin bo'lgan. Sanoq sonlar nomidagi bu xil qo'shoqlanish sabablari haligacha ochilmagan. Lekin *katta, latta, yakka, yalla, chakki, ukki* kabi so'zlardagi ikkinchi [t], [l], [k] lar tarixan morfologik ko'rsatkich bo'lib, ulardagi qo'shoqlanish singish (adaptatsiya) natijasidir degan fikrlar ham fanda mavjud²⁹. Olim Adham Abdullayev esa "undoshlarni qavatlash" atamasini ishlatgan³⁰.

Undoshlarni qavatlab qo'llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan, *Balli, ko'zlarimdan dardimni uqding, Ammo ko'zarimga kelmagil kirib. Dardimni qo'ymoqqa boshqa joy yo'qdir, Ko'zimga qo'yaman yashirib.* ("Ko'z" she'ridan)

Sen tog'ga qilganing bilan arzi-dod T o g'– tog'-d a , sir bermay turgani turgan. Cho'qqidan kutmagil biror-bir imdod, Egilgan cho'qqini aytgil, kim ko'rgan? ("Menga ayt" she'ridan)

Halima Xudoyberdiyeva she'rlariga samimiy insoniy tuyg'u va fazilatlar – sevgi va sadoqat, mehr va muruvvat o'ziga xos tarannum etiladi: *Hayot abadiy deb gullar teraman, Quchasan, o'zim ham gullayveraman, Bu ne chanqoqlikdir, cho'llayveraman, Sen menga ishq jomin tutganda, jonim.* ("Jonim" she'ridan)

Keltirilgan keyingi misoldagi takrorlar tarkibida undoshlarning qavatlanishi (*gullar, gullayveraman, cho'llayveraman*) lirik qahramon tabiatidagi (sevmok bilan bog'liq) subyektiv holatni ifodalashga xizmat qilgan. Ishq-sevgi haqidagi mashhur: "Muhabbat sho'r suvga o'xshaydi, uni ichganing sari chanqayverasan", iborasini shoira mutlaqo yangicha shaklda ("*Bu ne chanqoqlikdir, cho'llayveraman*") ifoda etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Duch kelgan tovushni qavatlab qo'llab bo'lmaganidek so'zda turli

²⁹ Ўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари.—Тошкент: Фан, 2006.

³⁰ Fikr quydagi manbadan olindi: Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): дисс... док.филол.наук.—Ташкент, 1992.

sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo'lavermaydi.

1.3. Halima Xudoyberdiyevaning leksik tarkibdan foydalanish evolyutsiyasi

*O'quvchim, to'kildi og'u bilan bol,
Men she'r deb atadim uning otini.
Hayajonli kunlar mevasini ol,
Ol, uyqusiz tunlar mukofotini.
H.Xudoyberdiyeva*

Til va yozuvchi o'rtasidagi munosabat shaxmat va shaxmatchi o'rtasidagi munosabatga qiyoslanadi³¹. Shaxmatda har bir donaning mavqeyi, darajasi, shaxmat taxtasi ustidagi harakatlanish qoidalari avvaldan belgilangan. Ana shu qoidalarini tugallash oqibatida yuzaga kelgan yuksak mahorati tufayli shaxmatchi tamoman yangi, kutilmagan yurishlar qilinadi, betakror kombinatsiyalar yaratiladiki, bu unga raqibini mag'lub va muxlisini maftun qilish imkonini beradi. Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari, ya'ni leksik valentlik hodisasi mavjud. Ana shu qonuniyatlardan to'la xabardor bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak ijodkor betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon uning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda ijodkor umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

So'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emas ekanligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning aslini aniq tasavvur, his etish lozim. Albatta, so'zning qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo ta'kidlash joizki, bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari aksariyat hollarda, avvalo, so'z ma'no qurilishining

³¹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.—Тошкент: Фан, 2006.

o'zida imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishi tarkibida ilgari qayd etilgan bo'ladi³².

Ma'lumki, tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihat tushunchasiga alohida e'tibor qilinadi. Bu masalani monografik tarzda tadqiq etgan V.N.Teliya ta'rificha, "konnotatsiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okkozional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy– baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat"³³dir. Konnotatsiya, ta'rifidan ko'rinib turganiday, so'zlovchining borliqni ifodalash vositalariga munosabatiga daxldor bo'lgan jihat hisoblanadi³⁴.

V.N.Teliya so'zning leksik ma'nosini, kamida, uch makrouzvning kombinatsiyasi sifatida tasavvur etish mumkinligini aytadi:

- 1) ma'noning borliqdagi muayyan reallikni ifodalovchi denotativ uzvi;
- 2) kategorial-grammatik uzvi;
- 3) nutq subyektining so'z orqali ifodalangan narsaga munosabatini anglatadigan emotiv-modal uzvi.

Ana shu uchinchi uzv ekspressiv bo'yoq, uslubiy bo'yoq, emotsional bo'yoq, subyektiv baho kabi tushunchalarni umumlashtiruvchi konnotativ ma'nolardir. Bunday uzvning mazmun-mohiyati o'zbek tilshunosligida ham ancha keng ochib berilganligini qayd etishimiz zarur.

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida ijodkorning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va ulardan asarda qanday maqsadda foydalanilgani izohlanadi.

³² Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.

³³ Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М., 1986.– 5-с.

³⁴ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.–Тошкент: Фан, 2006.–162 б.–65-б.

Quyida Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining leksik-poetik xususiyatlarini shu asosda tahlil etishga harakat qilamiz.

Ma'nodosh so'zlar shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksema turi, ya'ni *sinonimlar* (gr. *synonymos* – “bir nomli”). Sinonim leksema orasidagi munosabat *sinonimiya* yoki *sinonimik munosabat* deb yuritiladi³⁵.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi*. O'zbek tili ma'nodosh so'zlarga juda boy. So'z qudratini, nafosatini, uning ta'sir kuchini his eta oladigan, til sezgirligi yuqori bo'lgan haqiqiy ijodkorgina tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiyatiga muvofiq keladigan aniq munosib so'zni topib o'z asarida qo'llaydiki, shu tariqa o'z o'rniga tushgan so'z o'quvchini ohanrabodek o'ziga tortadi, uning tiliga, diliga ko'chadi. O'z o'rnida qo'llanilgan so'zgina qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko'rsatib berishga qodir bo'ladi. Badiiy matndagi ma'nodosh so'zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ijodkor–

1) ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlaydi. Jumladan,

jannat ~ behisht ~ rizvon

Quyidagi she'rda shoira *behisht* so'zi o'rnida uning boshqa sinonimlari *jannat* yoki *rizvon* so'zlarini qo'llasa ham, she'r vazniga (bo'g'in soniga) putur yetmas edi. Ammo shoira deyarli barcha o'zbek uchun umumiste'mol so'zga aylanib ulgurgan *jannat* birligini qo'llamaydi yoki “Qur'oni Karim” oyatlaridan, hadisi shariflardan xabardor bo'lmagan kishi *rizvon* so'zining lug'aviy ma'nosini tushunmasligi ham tabiiy hol. Shunday sharoitda ijodkor “ko'pchilikning qulog'iga tekkan” birlik(*behisht*)ni ajratib qo'llaydiki, bu uning so'zdan o'rinli foydalana olish mahorati bilan bog'liq.

³⁵ Жамолхонов Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. (Лексикология ва фразеология. Лексикография.) –Т., 2004.

* Ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida sinonimiya, variantlilik va graduonumiya hodisalari aniq farqlangan tadqiqotga duch kelmadi. Masalan, *respublika*, *jumhuriyat* so'zlari ba'zi o'rinlarda sinonim birliklar deb aytilsa, ba'zi adabiyotlar ularni variant leksemalar deb beradi.

Ustoz G‘afur hakimona bashorat qila bilgan – Qalb qonidan bo‘lmoqligin qiz deganning barini. Odam Ato yigit chog‘da qiz bola deb quvilgan, O‘ksinmasdan tashlab ketgan behishtning bog‘larini. (“Singlim Gulnoraga” she’ridan)

Mazkur she’rdagi o‘ksinmasdan so‘zi o‘rnida ranjimasdan birligini qo‘llash ham mumkindek ko‘rinadi, biroq o‘ksinmaslik so‘zining ma’no darajasi ranjimaslik, hatto xafa bo‘lmaslik, achchiqlanmaslik kabilardan ko‘ra yuqoriroq.

bo‘ron ~ to‘fon ~ bo‘hron ~ qasirg‘a

Nahot sor burgutni shubhalar yengdi, Nechun qarashingda azob surati. Ne uchun ko‘zingda gohi goh endi, Men uqib yetmagan to‘fon turadi. (“Iqrorlik” she’ridan)

Band oxirida shoira nega aynan to‘fon so‘zini qo‘llagan? “Men uqib yetmagan to‘fon turadi” misrasida qofiya jihatidan bo‘ron, bo‘hron so‘zlari ham to‘g‘ri keladi-ku? Yoki bu qo‘llash tasodifiymi?

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga murojaat etamiz.

Bo‘ron 1 To‘zon yoki qor-yomg‘ir aralash esadigan shiddatli shamol. *Bo‘ri bo‘ronda quturar.* (Maqol)

...3 ko‘chma Shiddatli, davomli harakat; oqim; to‘fon. *Nahot yovuz bo‘ron xasdek uchirgay.*

To‘fon [a] kuchli suv toshqini; zo‘r g‘avg‘o; to‘polon. 1 Shiddatli bo‘ron, dovul. ...*terakning shovullashi to‘fon bosib kelayotgandek kuchayaverdi.* (A.Muxtor)

...4 Diniy afsonalarga ko‘ra, odamlarning gunohi uchun butun dunyoni bosgan suv toshqini.

Agar izohlarga e‘tibor bersak, o‘z ma‘nosiga ko‘ra bo‘ron – shiddatli shamol; to‘fon esa kuchli suv toshqini. Aslida bu so‘zlar zamiridagi harakatning tezligi (*shiddatli, kuchli*) o‘zaro ma‘nodosh. Ammo bo‘ron va to‘fon tabiatdagi bir xil hodisalar emas. Aslida, “*Ne uchun ko‘zingda gohi goh endi, Men uqib yetmagan to‘fon turadi*” misralarida ko‘chma ma‘no bo‘lib, undan “o‘zim bilmagan qaysi gunohlarim uchun sening ko‘zlaringda (menga atalgan) kuchli suv toshqini turibdi”, degan mantiq kelib chiqyapti. Agar inson ko‘zi orqali suv (ko‘zyoshi)

to‘kishini va yana kishi, odatda, o‘ziga juda yaqin tuyg‘u–muhabbatdan voz kechayotganda ham ko‘zlaridan achchiq alam yoshi chiqishini hisobga olsak, misrada to‘fon so‘zi o‘rnida kuchli shamol ma’nosini beruvchi bo‘ron so‘zini qo‘llay olmaymiz.

Demak, shoiraning she’riy misrada to‘fon so‘zini qo‘llashi tasodifiy emas.

ko‘klam ~ bahor ~ navbahor

Hali ham ketgan yo‘q madori, Hali soz sozlarga o‘xshaydir. Bahordan yosh edi bahori – Kuzi ham yozlarga uxshaydir. (“Kuzgi daraxt” she’ridan)

oqshom~tun~ kechqurun~ shom

Balki kimdir zor ketgandir mehrim, yurak taftimga, O‘ltiribman yashab o‘tgan umrim qisqa tuyulib Yarim umr o‘tdi, oldim, yurak, seni kaftimga – G‘amgin shotut soyasida shom kelarkan quyulib. (“Yarim umr o‘ylari” she’ridan)

2) ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma’nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg‘un holda qo‘llashi masalasidir. Chunonchi,

dil~ko‘ngil~yurak

Deylik, bir but dilga sachrab ketdi qon, Bir ko‘ngil o‘tlarda qovrilar, tutar. Ayting, malham qayda, kelar u qachon, Bir ko‘ngil yarasi qanchada bitar? Menga mana shuning hisobi kerak, Tag‘in izi qolmay bitarmi yurak? (“Hisob-kitob haqida” she’ridan)

sevgi ~ ishq ~ muhabbat

Muhabbat, sevardim seni jon qadar, Sen bunda ishqmas, yo‘q, kulfatsan, mastsan. Sevgi, sen ham endi ketarsan badar, Qaytib bu kuylakni dazmollamassan. (“Eng toza meva” she’ridan)

ma’yus~mungli~ munis

Ko‘nglim ma’yus tortadi kuzgi bog‘dagi holdan – Qushlar mungli, izlashar xayrlashmoq chorasini. Rangpar daraxtlar munis sollanishib shamolda, Bosh chayqashib qilarlar “yoq, yo‘q” ishorasini. (“Kuzgi bog‘” she’ridan)

ona~ena; dast~qo‘l

Bellari bukilib, ko'tararkan dast, Ezgu umidlarga yo'g'rilgan chog'da Munavvar kelajak ota-onamas, Enalar qo'lida yo'lga kirmoqda. ("Onalar haqida" she'ridan)

Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so'z, so'z birikmasi, nutqiy ko'chma so'z bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi vosita sanaladi³⁶. Ma'nodoshlikdan ikki holatda—

1) nutqiy hosilalarning takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi, rangsizligi va siyqalikdan qochish uchun;

2) tasvir obyektiga e'tiborni jalb qilish uchun rang-baranglikni ta'minlash maqsadida foydalaniladi.

Muvaqqat yoki matniy ma'nodoshlik (kontekstual sinonimiya). Mahoratli ijodkorlar faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh birliklardangina foydalanmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydilarki, o'quvchi, kitobxon tomonidan bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Masalan,

qiz~gul

Bu qiz ham bировга ketadigan gul, Ushlab qololmagay na zar, na tillo. Mendan-da mehribon kimsa bo'lar ul— Mevdan-da vafodor chiqar ul illo. ("Bu o'g'il meniki emas aslida..." she'ridan)

hayot~yo'lak

Voqjab, bul qadar yolgizlik nega, G'aroyib bu hayot — biz o'tar yo'lak. Hech kim, hech narsaga men bo'lmam ega, Sevgilim, senga o'z ishqimdan bo'lak. ("Bu o'g'il meniki emas aslida..." she'ridan)

ishq~kiyik

³⁶ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. — Самарқанд: Зарафшон, 1992.; Каримов С. Бадий услуб ва тилининг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. — Самарқанд: СамДУ, 1994.; Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.—Самарқанд: СамДУ, 2006.; Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. — Т.: Ўқитувчи, 1995.

Ishq kiyik-ku, qilib bo'lmas ov, Sayyod yurmas ko'ngil tog'imda. Kim uchun deb boqmagil sinchkov Talx zardoblar yutar chog'imda. (“Savollarga meni o‘rama” she’ridan)

ishq ~ uchinchi do‘st ~ (o‘sha do‘st ~ u do‘st)

Shoira “Bir xonadonda” she’rida moddiy jihati yetarli, hatto ortiqcha ham bo‘lgan oilada er-xotin orasida mehrsizlik jabrini har ikkisiga talpinayotgan farzand tortayotganini ta’sirchan tasvirlaydi. Moddiyatda “kabir”-u, ishqda “sag‘ir” er-xotinni shoira “*nurayotgan ikki tog‘*”ga o‘xshatadi va ularning nurab borishi “*bir go‘dakka qilar og‘irlik*”. Ijodkor she’rda (boshqalarda duch kelmaganimiz) betakror matniy sinonimlardan foydalanadi va “*ishq*”ni “*uchinchi do‘st*” deb ataydi.

Xo‘sh, agar ishq uchinchi do‘st bo‘lsa, birinchi va ikkinchi do‘st qani? Shoira she’rning biror o‘rnida er-u xotin o‘sha birinchi va ikkinchi do‘stlar demaydi, hatto bunga ochiq ishora ham qilmaydi. “*Go‘dak bir vaqt o‘sha do‘st sabab, Bunga kelgan, sevilgan jondan. Keyin bilmas o‘tdi nima gap, U do‘st ketdi bu xonadondan.*”

Bunda boylik, davlat qatma-qat, Jondan boshqa topilar, so‘z yo‘q. Ikkisini bog‘lagan faqat Ishq, o‘rtada – uchinchi do‘st yo‘q. (“Bir xonadonda” she’ridan)

H.Xudoyberdiyeva “*oralaridan ishq ketgan*” er-xotin va “*begunoh jon*” – farzand holatini shunchaki tasvirlamaydi; bu holatda taqdir o‘qiyajak hukmni shunday ifodalaydi: “*Yo‘q, bir o‘zi berolmaydi tob, Ishq yashasa qaydadir sag‘ir. Axir ikki qulayotgan tog‘ Bir go‘dakka og‘ir, ko‘p og‘ir.*”

Demak, hukm aniq: “*Go‘dak ketar ertami indin Shu – uchinchi do‘stning ketidan.*”

Shoira ochiqdan ochiq: “Oila qurdingizmi, “er-xotin bir-biringizga muhabbatli bo‘ling^{*}”, demaydi. Ammo shunday “baxtdan mosuvo” oilaning holatiga, “begunoh bolajon”ga ich-ichidan kuyinish, achinish orqali ijodkorning: “Oilani saqlash uchun ham bir-biringizni seving! Ishqingizni yo‘qotmang! Ishqingizni asrang, toki u sizlardan ketmasin!” degan hayqirig‘i uning bo‘g‘zidan

^{*} Er-xotin bir-biringizga muhabbatli bo‘ling (Hadisi sharifdan)

kitobxonning qalbiga ko‘chadi, to‘laonli har bir insonning tafakkurida aks-sado bo‘lib jaranglayveradi.

Halima Xudoyberdiyeva she‘rlarida matniy sinonimlar shu darajada ko‘p va rang-barangki, ular shoira ijodida quyma misralarning yuzaga kelishini ta‘minlovchi vositalardan biriga aylangan.

Frazeologik ma‘nodoshlik. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavdalandirishda frazeologik iboralarning ma‘nodoshligidan keng foydalaniladi. *Oyog‘ini qo‘liga olib – o‘pkasini cho‘pga ilib, yuz o‘girmoq – bet qaytarmoq, yaxshi ko‘rmoq - ko‘ngil bermoq, ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq - oyoq tirab olmoq, oyog‘i kuygan tovuqdek – pashsha talagan itdek* kabilar frazeologik ma‘nodoshlikka misol bo‘ladi. Jumla tarkibida kelgan ma‘nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtiradi, tafsilotning ikir-chikirigacha ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Masalan,

yuragingga kirgan mard ~ bosh(ing)ga qo‘ngan xumo (seviklisi, baxti)

Men Seni yer-ko‘kka ishonardimmi, Qizning chin baxti – bu, taqdir ishi –bu. Mayli, yuragingga kirgan mardiningning – Boshga qo‘ngan, ketmas xumo qushi bo‘l. (“Qizini uzatayotgan ona o‘ylari” she‘ridan)

ostona(si)dan oyoq uzmoq ~ xonadon(i)ni huvillatib qo‘ymoq (ketgan)

Ne deyin, ne deyin, men ham deyin, Qizim ostonamdan oyoq uzar chog‘. Xonadon huvillab qolgandan keyin Qushini uchirib yuborarkan bog‘. (“Qizini uzatayotgan ona o‘ylari” she‘ridan)

qo‘li baland~ko‘kragi baland~ ko‘ksida erk guli ochilgan (ozod, hur)

To abad qo‘li baland, ko‘kragi baland xalqning... Shundan ko‘ksingizda erk, kurash guli ochilgan...(“Surur qo‘ng‘irog‘i” she‘ridan)

yo‘ldan ozmagan~ xiyonatda ko‘ngil yozmagan (halol)

Taqdirlari lavhin qon bilan yozsa Yozgan, xiyonatda ko‘ngil yozmagan. Bir qadam oldinga o‘tganlar o‘zsa Ahddan o‘zganlar, yo‘ldan ozmagan. (“Surur qo‘ng‘irog‘i” she‘ridan)

O‘zbek tilida *yo‘ldan ozish* yoki *yo‘ldan ozmaslik* iboralari bor. Ammo aynan *xiyonatda ko‘ngil yozmaslik* shaklidagi ibora nutqimizda ommalashmagan.

Shoiraning mahorati shundaki, u o'zbek nutqidagi *ko'ngil yozmoq* iborasining bo'lishsiz shakliga ishlov berib uni aynan *halol* ma'nosini beruvchi *yo'ldan ozmagan* frazeologik birligiga ma'nodosh sifatida topib qo'llaydi.

Demak, shoir ba'zi iboralarni aynan qo'llasa, ba'zi iboralarda mazmunni saqlab, shaklni she'riy matnga shunday moslaydiki, bu uning noyob iste'dodidan darakdir.

Leksik-frazeologik ma'nodoshlik. Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la olishini bilamiz. Masalan, *sho'x – yerga ursang, ko'kka sapchiydigan; bosiq–qo'y og'zidan cho'p olmagan; beg'am–dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydigan* kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi. Jumladan,

Ishdan ketdi, shunday oddiy hol kechdi, Ilk bor ko'rdi so'nggi so'qmoqlarini. Hokimik libosin (jimgina) yechdi, Chetga qo'ydi g'azab to'qmoqlarini... (“Ishdan ketdi” she'ridan)

Ay dunyo-ya, Sen shundayin ko'hna bozor Narx-navosin tayini yo'q, tayin g'am bor. Tag'in, tag'in Sen ayolni qaqshatding zor Hindiqushdan olov keldi, jola keldi U kelmadi, ko'kka o'rlab nola keldi. (“Hindiqushdan nola keldi” she'ridan)

Men asrab tishimda tishlab yuribman, Bag'rimda ilonni ushlab yuribman, Inshoolloh, Kimni himoyalab, suyib yopgaysan, Sen ham mendek undan ilon topgaysan. (“Xolis niyat” she'ridan)

Dil tubidan tuyg'ularni qirib olmoq, qulog'i bo'shamas, hokimik libosin (jimgina) yechmoq ijodkorning o'z fikr mahsullaridir.

Darajalanuvchi so'zlar. **Graduonimiya** (gr. *gradatio* – “ko'tarilish”, “o'sish”, *onymo* – “nom”). Lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra

ma'lum bir darajalanish qatorini hosil etishi³⁷. Darajalanish qatori a'zolari kamida uchta bo'ladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog'langan so'zlar qatorini:

- a) g'ayrilisoniy asos;
- b) sof lisoniy asosga tayanib ajratish mumkin.

G'ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson *go'daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik* holatini; o'simlik *navnihollik, ko'chatlik, yetilganlik, quriganlik (qavjirash)* davrini boshidan kechiradi – o'sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo'yoqchilar birgina qora rangning hatto o'ndan ortiq turi (*qop-qora, tim qora, go'ngut qora, oqish qora, ko'kish qora, nim qora* va h.)ni ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo'lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalanadi. Chunonchi, *nihol – ko'chat – daraxt; ninni – chaqa – chaqaloq – go'dak – bola; buzoq – tana – g'unajin – sigir* kabi.

Lug'aviy graduonimik qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:
a) ma'noviy omil va b) so'zlararo paradigmatic munosabat³⁸.

Graduonimik qatorni ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Graduonimik qator ijobiy yoki salbiy belgining darajama-daraja ortib borishini aniq ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan,

g'iybat ~ fisq ~ fitna ~ fasod ~ bo'hton ~ ig'vo ~ malomat ~ tuhmat

Bul kun tuhmat – tog'day tik, Bul kun ig'vo – ko'p ulug', "Bul qaro-ku, qaro" deb, Oq ustida o'ynaydi. ("Bir kun kimdir o'ynasa" she'ridan)

³⁷ Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари.– Т.: Фан, 1996.; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Т.: Fan va texnologiya, 2010.

³⁸ Орипжонов Ш.Г. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол.фанлари номзоди ...дис. автореф. –Т.: ТАИ. 1995.; Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари.– Т.: Фан, 1996.

*Yorug' kunga qolganda bir on, Haqning yuzi tuproqqa botdi. Chunki **ig'vo** keldi noayon, Chunki **fitna** burchakdan otdi. ("Tarafkashlik" she'ridan)*

*O'chkor kelding, **fitna-fasod** bazmini tuzding, Teng-to'shingni zaharlading, o'stirmay uzding. Zahring o'zing bilan ketmay sochding ortga ham, Ortdan kelar suvlarni ham ta'mini buzding. (To'rtliklardan)*

*Garchand men – **fisq-fasod**, g'orat qilgan uy, Sinchlarim mayishib, munkib tolaman. Qaldirg'och qaytadan menga qurar in, Tiklanib olaman. ("G'orat uy" she'ridan)*

*Endi yangi **malomatlar** to'qib ketmasmikan deb, Tuzim ichib, tuzlig'imni to'kib ketmasmikan deb... ("Xavfdaman" she'ridan)*

ko'kat ~ maysa ~ o't ~ chim~alaf ~ buta ~ daraxt

*Xutga aytdim, **maysa**, o'tni ko'kararmi deb, Ko'kartmoqqa yer borarmi, ko'k borarmi deb, Tuproq qo'pgan piyodani ko'tararmi deb, Oyog'i uzangidagi hamrohga aytdim. ("Tavba" she'ridan)*

*Bu yer kimning, bu ko'k kimning Egasi bor har **o't**, **chimning**. O'z yerida O'zbekimning O'zi qolgan Vatandir bu. ("Vatandir bu" she'ridan)*

*Razil bitta bo'lsa ham **alafday** o'rmoq kerak, Loqayd bitta bo'lsa ham bir xas kabi supurmoq... ("E'tiqod" she'ridan)*

*Urushdan qaytganlar yo qaytolmagan, Bevaqt qo'porilgan **daraxt**, otalar. Qaytib dardin aytgan, yo aytolmagan, Go'ng otalar, soqov, karaxt otalar. ("Vatan baxti" she'ridan)*

Sas ~ sado ~ un ~ tovush ~ ovoz ~ hayqiriq ~ o'kirik ~ na'ra

*Qantariqlik otni bo'sh qo'ying, Qozig'ini sindirmasidan. Ketmoqda-ku ko'zi yo'l o'yib, Ufqlarning chorlash **sasidan**. ("Bo'shatilgan ot" she'ridan)*

*Har bir so'zni mahkam, daraxtday ushlab, Silkitgin, har bir so'z bersin **sado**, **un**. Ko'kartir, ko'kartir tishingda tishlab, Tilni asramoq ham muammo bugun! ("Muammo" she'ridan)*

*Yodga Mohlaroyim tushmoqda takror, Eshitgim keladi **tovushlarini**. Qo'qonga borsam va aqalli bir bor, Kiyib ko'rsam deyman kovushlarini. ("Qo'qonga borsam" she'ridan)*

Tenglashib kuylarman men guldurakka Bu jarangsiz ovoz meniki emas...
(“Dengizga” she’ridan)

Yo’lbarsday lashkarni ketarmi boshlab, Barsiy o’kiriq-la, sadolari-la...
(“Bayroqni bermasdan” she’ridan)

Hamon qon tomadi yaralarimdan, Hamon qizartirar izlarim qorni. Mening bu hayqiriq, na’ralarimdan Sergak tortayotgan bir bola bormi? (“Hurriyat toji” she’ridan)

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi lug‘aviy graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning ma’lum bir belgining oz-ko‘pligiga qarab, lug‘aviy ma’no qatorida, tizimda namoyon bo‘lishidir, bunda dominanta va qurshov leksema farqlanadi.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatning yana bir turi giponimiya (aniqrog‘i, gipo-giperonimiya), ya’ni tur-jins munosabati.

Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) farqlanadi.

Giperonim – jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko‘pgina ma’noni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasi, dominantasi sifatida namoyon bo‘luvchi lug‘aviy birlik. Giponim esa ma’lum jins turining nomini hamda o‘zining semantik tarkibida implisit tarzda jins ma’nosini ham ifodalovchi, semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlik³⁹.

Giponim va giperonim orasidagi aloqa mantiqiy asosga ega. Bu esa obyektiv borliqdagi umumiylik tushunchasi bilan bog‘liq. Masalan, *daraxt* giperonimi jins ma’nosini ifodalovchi leksema sifatida daraxtning barcha turini ifodalovchi leksemalarni leksik-semantik munosabat asosida birlashtirib, muayyan uya, guruhni hosil qiladi. Shu boisdan *daraxt* leksemasi giperonim sifatida giponimi bilan leksik-semantik aloqaga kirisha oladi. Masalan, *daraxt – qayin, daraxt – terak, daraxt – dub, daraxt – archa*⁴⁰.

³⁹ Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари.– Т.: Фан, 1996.

⁴⁰ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2010.

OILA (giperonim) – bobo ~ buvi (momo)~ota ~ ona ~ farzand ~ bola ~ o‘g‘il ~ qiz (giponimlar)

*Otaginam, oq olmani sevardiniz **boladay**,*

Sizga olma terar qo‘lim bu kun termasdan toldi.

*Oq soqolli **bobolarni** tavof qilardim-ku men,*

Oqlik ko‘rib izida.

*Sizga **otam** mo‘ysafidlik umrin tilardim-ku, men,*

Tilaklarim to‘zidi.

Bilardingiz uyalibmi, boqolmasdim sizga tik,

To‘yib qaramagandim.

*Tirikchilik, kuningizga rizqi to‘kin **farzanddek**,*

Hali yaramagandim.

*“Ota meros” uyni qurib, to‘ng‘ich **o‘g‘ilni** oylab,*

Uzatmoqchi edingiz-a endigina oyoqni...

...Samaningiz turar usha qozig‘ida depsinib,

***Akam** minib, balki bir kun sizday chavandoz bo‘lar.*

...Ammo toylar ot bo‘lguncha yuraklar lat bo‘lar, deb

Onam yo‘qlar yo‘qdovlarda, siz yodiga tushganda.

*Yillar osha **ukalarim** takrorlab yurar mendek:*

*“Biz **otamdan** ayrilganmiz oq, olmalar pishganda...”*

(“Oq olmalar pishganda” she‘ridan)

Shuningdek, shoiralarida **inson**–ayol~erkak~nasl~farzand; daraxt~tol~terak~olma~nok~chinor...; **qush**–sor~lochin~burgut~chumchuq~qarg‘a~hakka~oqqush~bulbul~zog‘... kabi yuzlab gipo-giperonimik qatorlar uchraydi.

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Zid ma’noli so‘zlar. Tilda zid ma’noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotda juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. “Shoir uchun juda zarur bo‘lgan san’atlardan biri tazoddir. Bu san’at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod

va takofu deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi"⁴¹.

Yevropa filologik an'anasida bu san'at "antiteza" deb yuritiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan ham foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi. Masalan,

Demasman, dunyoda ortiq bor, kam bor, Yashashimga arzir yorug' bir sham bor. So'ng kunimgacha shoh yo gado bo'lib, Eshigimga kelar b i t t a odam bor. ("Sadoqat" she'ridan)

Go'dakday ko'zlarin ketmasmi yoshlab, Chekinib to'qlari, gadolari-da? ("Bayroqni bermasdan" she'ridan)

Bayroq bugun ham iymon-iymon sotilmagaydir, Qon kechgan urushlar yo omon-omonlarda ham. Iymon yo'li bitta, u qayta o'tilmagaydir, U deb jondan kecharlar bizning zamonlarda ham. ("Bizning zamonlarda ham" she'ridan)

Axir kuymay bo'ladimi bir yarimjon pok odam, Bir oyoqli Ikrom uyi xoin uyi atalar. ("Ufq"ni o'qib" she'ridan)

Tun bag'rida qolsin dardim, ko'rmasinlar, ko'rmasinlar, Ko'rib birov rost-u, birov ro'yo tomon burmasinlar...

...Aminmanki, avjim bilan shu birinchi davridayoq, O'zimga tong yaratarman, tongim mening otar oppoq. Tunda qolar dardim mening, nurlar chayar yuzlarimni, Unutishning seli yuvar, dilning armon izlarini. ("Men sen bilan xayrlashgan tun" she'ridan)

Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirish maqsadida foydalaniladi. Masalan,

Yosh burgutlar, Yosh singillar, yosh inilarim, Parvoz oldi tag'in shiddatliroq silkining. Yosh burgutlar, erkin shamol og'aynilari, Qanotlarni yozing, o'tdi jaholat tuni... ...Chidamasmiz Vatanfurush, vatanxo'rlikka, Ko'tararkan

⁴¹ Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари.— Тошкент: Фан, 1977.

bayrog‘ini bosh uzra tikka, Biz sug‘urib yuragimiz berdik Hurlikka, Eslab qoling, yosh singillar, yosh inilarim! (“Yosh burgutlar, eslab qoling” she’ridan)

Bu nutqiy parchada *yosh burgutlar* va *vatanfurush, vatanxo‘r* birliklari bilan antonimik munosabatga kirishgan.

Zid ma’nolilikni barqaror birikmalarda ham ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Masalan, iboralarda:

O‘tgan o‘tdi, dil taskin top, Bo‘lsa hamki xuddi tush. Kechagi chekilgan azob, Bugungi quvonchdan xush. (“Kechagi kun” she’ridan)

Qaytarmoqdamiz yo‘l shukuhsiz, Qaytmoqdamiz ko‘ngil g‘ash. O‘ch hissimi ko‘zda qalqir, Bir loqayd, dil xotirjam... (“Siz yo‘qlabsiz” she’ridan)

Ijodkorlar o‘z asarlarida turg‘un birikmalardan ikki xil shaklda – yo mazmunan, yo aynan foydalanishlarini bilamiz. Yuqoridagi misollarda shoira *azob chekmoq – taskin topmoq, ko‘ngli g‘ash – ko‘ngli xotirjam* kabi antonimik munosabatli iboralardan mazmunan va ayni paytda aytilayotgan fikrning ta’sir kuchini oshirishda unumli foydalana olgan.

Shoira she’rlarida **barqaror birikmalardan** unumli foydalanilganligini kuzatamiz. Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyilishini bilamiz. Iboralar, tilimizga ko‘chgan izofalar, maqol-matallar va hikmatli so‘zlar barqaror birikmalar hisoblanadi.

Iboralar. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalandirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir.

Ijodkorlar, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning

usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga "umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funktsiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin"⁴².

Frazeologik birliklarni qayta ishlashning turli usullari Bekmurod Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan. Badiiy matnda eng ko'p uchraydiganlari quyidagilardan iborat:

1. Ibora tarkibini aynan qo'llash. Masalan,

Bir yurakni nishon olib, So'z otarkan dangallar. U majlisda yiqiladi, Ko'kragini changallab. ("Aziyat" she'ridan)

Bu o'rinda *so'z otmoq* iborasi *gapirmoq* so'zi o'rnida qo'llangan.

Jon-joningda do'sting o'ssa, Tunlarda oy to'lin, yaxshi. Unga balo boqsa, to'ssang, Uzun bo'lsa qo'ling, yaxshi. ("O'lim yaxshi" she'ridan)

Ammo aminmanki, tilimni tishlab, Ko'zimni ko'r qilib bo'lsa ham endi Men uning haqida ochmagayman gap, Qalbdagi uning yodi shishaday sindi. ("Xayr" she'ridan)

Bu o'rinda *tilimni tishlab, gap ochmaslik* (*gapirmay, gapirmaslik*) iboralarida inversiya o'chrassa-da, shakl va mazmun o'zgarishsiz qolgan.

Yillar kapalak siyoqli qo'nmayoq uchar, Otam jon berib, jon olib kanal qazgan dam. ("Qahramonlik" she'ridan)

Aslida, nutqimizdagi bu birlik ko'proq *jon olib, jon berib* shaklida qo'llaniladi. Tahlildagi misrada u o'zgargan tartib (inversiya)da berilgan.

2. Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni almashtirish:

O'lmoqlikning yo'llari ko'p, Bugun yurak tosh olar. Jaholatning qo'llari ko'p, Salla desang bosh olar. ("Aziyat" she'ridan)

Mazkur iboraning tildagi ko'rinishi *yuragi tosh qotmoq* shaklida bo'lib, u sovimoq, bezmoq ma'nolarini beradi.

⁴² Жамолхонов Х.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. (Лексикология ва фразеология.Лексикография.) –Т., 2004.; Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т., 1991.

Xalqim, senga yetmaydirmi, Chor atrofdan tekkan sang. O‘z-o‘zingni yiqitmoqqa, Munchayam shay turmasang. (“Aziyat” she’ridan)

Mazkur iboralarning nutqiy ko‘rinishi o‘zi o‘tirgan shoxni kesmoq; *shay turmoq* shaklidir.

Yerni yarim dil kasod, bozor qilma, Xudoyim. (Aslida: *dili yarimta yoki dili yarim*)

3.Ibora tarkibini kengaytirish. Odatda, bunday holatlarda nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra ibora tarkibiga yangi so‘z kiritiladi. Chunonchi,

Inson boqmay qo‘ydi. Bu ne sinoat? Huvillab qolganday yurtning o‘r, qiri, Yigitlarda shahd kam, qizlarning siri, Odamzod birining ko‘ngliga biri, Chiroq yoqmay qo‘ydi. Bu ne sinoat? (“Evrilish bo‘lmasa” she’ridan)

Mazkur o‘rinda shoira “*ko‘ngliga chiroq yoqmoq*” iborasining tarkibini (*odamzod birining ko‘ngliga biri* tarzida) kengaytirgan, iboraning bo‘lishsiz shaklini qo‘llagan va undan o‘quvchining shuuriga tez yetib boradigan tarzda mahorat bilan foydalana olgan.

Miyamga chaqinday birdan qon urib – Bo‘shashadi oyoq-qo‘llarim shu on. Yelka qisib qo‘ysa holimga biri, Biri ko‘z tashlaydi achingansimon.

Aslida, *miyasiga urgan* iborasi *chaqinday birdan qon* shakllari bilan kengaytirilib ibora ifodalagan ixcham ma’no mag‘zi ochib berilgan.

Sen mening qalbimni etmading fahm, Buni yashirib ham nima qilaman. U yolvorar, men ham qilmayman rahm, Men uning ishqidan kulaman.

(Aslida: *qalbini bilmoq/dilini bilmoq/yuragini bilmoq/ichini bilmoq*)
Sen mening qalbimni etmading fahm misrasini tashkil etgan ibora *anglamading* ma’nosini beradi.

4.Ibora tarkibini qisqartirish.

Ibora tarkibidagi ayrim so‘zlarni tushirib qo‘llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshadi. Inchinun, yozuvchilar bundan o‘ziga xos badiiy-ifodaviy maqsadlarda ustalik bilan foydalanadilar.

Faqat... boshga yog‘gan do‘l-u yomgirlardan Chuqqan saroy – erta ketgan otam mening... (Aslida: *har kim o‘z boshiga yog‘gan qorni o‘zi kuraydi*)....

Badiiy asarda qo'llanilgan iboralarni o'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan biri sanalmoqdaki, ana shunday tahlilda ijodkorning imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati to'laroq namoyon bo'ladi.

Maqollar – grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda ham maqollarga murojaat qilinadi. Qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida ham maqollardan keng foydalaniladi ⁴¹.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ham maqollardan unumli foydalanilganligini kuzatamiz. Masalan,

Balki “chervones” olib belidagi chorsidan, “Qiz yurakning qoni” deb qo'yib ishq-u binosin. Bugun katta to'y, tong-la, keltirgandir Chorsudan Suyuk Olmos opaning qo'lidagi xinosin. (“Oqar daryo” she'ridan)

Xalqimizda “Qiz yurakning qoni”, “Qiz yurakning qonidan yaraladi” kabi maqollar borki, ularda o'zbek oilalarida “ota uylarida mehmon” bo'lgan qiz bolaga e'tibor bilan munosabatda bo'lishni eslatib turadi.

(Shu o'rinda bandning juft misralarida *chorsi–Chorsu* paronimlari qo'llanilib so'z o'yini ham qilingan.)

So'rang, yuragingizga qachon sanchilgan tig'lar, Axir azaga borgan o'z dardin aytib yiglar. (“Shoira singillarimga” she'ridan)

Nutqimizdagi “Azaga borgan xotin o'z dardini aytib yig'laydi” maqolidan shoira ustalik bilan foydalana olgan.

Mingi kelsa qoshiq ko'tarib, Bitta-bitta olganida ham, Tagi ko'rinadi qozonning... (“Yeb bitirishmadimi Sizni” she'ridan)

Bu o'rinda shoira "*Ko'p qoshiqlab olsa ham, qozonning tubi ko'rinar*" maqolidan mantiqan (ya'ni maqolning asl shaklini aynan saqlamay) o'quvchining shuuriga tez yetib boradigan tarzda mahorat bilan foydalana olgan.

Salla desang ataylab bosh keltirsa, To'g'ri so'zing hasad-u tosh keltirsa, Davron oqil qolib, pastkash keltirsa, Ko'ra-ko'ra ko'ngli sinar odamning. ("Bu dunyoda" she'ridan)

Yuqoridagi misollarning bittasida xalq maqoli aynan, qolgan uchtasida esa shaklan o'zgartirilib qo'llangan. Bular: 1) *Qiz yurakning qoni* (Bu maqol aynan she'r mag'ziga va lirik qahramonning ruhiy holatiga singdirilgan.); 2) *Azaga borgan xotin o'z dardini aytib yig'lar* ("Men ham siz –shoira singillarimga "she'riyat yo'liga kirib, shoirlikni o'zimga taqdir deb bilib" qancha qiyinchiliklarga duch kelganimni aytib beray" ma'nosida qo'llanilgan.); 3) *Ko'p qoshiqlab olsa ham, qozonning tubi ko'rinar* (Bunda lirik qahramonga aziyat yetkazgan "oshiq"ning ma'shuqa boshiga ayriliqni tashlab ketish holati tasvirlanadi va mehr paymol etilaversa, bir kun u ham tugaydi, degan ma'noga urg'u beradi.); 4) *Salla desang, kalla keltirar* ("Bu dunyoda" she'ri tarkibida qo'llanilgan bu maqolda lirik qahramon "charxi kajraftor"dan aziyat chekadi.)

Ijodkor **izofalar**^{*}dan hamda izofa qolipidan unumli foydalana olgan: *ishqi yolg'on, ishqi rost* (Ishqi yolg'on, ishqi rost kimlar...Birga ketar kunlar bormi, yor!), *do'sti yolg'on, do'sti chin* (Do'sti yolg'onim ko'p, do'sti chin yo'qdir...), *shakli shamol* (Shakli shamol chiqdi, mazmun chiqmadi), *dunyoyu g'amboda* (Ey dunyoyu g'amboda, bodangdan quy, sipqoray...), *dili ozor* (Dili ozor, dili toshga kelmasmiz...), *dunyoyi qadim* (Menga qo'l uzatmadi bu dunyoyi qadim hech...), *xalqi nodon* (Kimga suyanasan xalqi nodonim, Iymon asolari shoirlaringsiz), *yori aziz* (Bizni yori aziz unutgandaylar), *ro'zi ravshan* (Na xush ey, na alomat ro'zi ravshan fasl bu), *jismi jon* (Jismi jonim qirqim-qirqim, jodida kuydim), *ongi sahro* (Yana qancha ongi sahro, yobonlarni ko'raman) va b.

^{*} <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/izofa-uz/>. IZOFA (arab.) — arab, fors va ko'p turkiy tillar grammatikasida aniqlanmish bilan aniqlovchi munosabati; urg'usiz bog'lovchi element orqali ifodalanadi (masalan, shahri azim, oynayi jahon).

Shoira noodatiy izofalardan shu qadar ustalik bilan foydalanadiki, ayni o‘rinda o‘sha izofalar she‘rning ta‘sirchanlik kuchini oshiradi, unga musiqiylik, o‘ziga xos onang bag‘ishlaydi.

Shoira she‘riyatida o‘ziga xos **okkazional so‘zlar**^{*} ham uchraydi. Masalan,

Siz, ey bu dunyoning hisobdonlari,

Taxminan bo‘lsa ham qilingiz hisob,

Qanchalik umri bor sun‘iy shonlarning,

Sun‘iy ko‘rk qanchada bo‘lrusi xarob. (“Hisob-kitob haqida” she‘ridan)

Ijodkor nutqimizdagi hisobchi so‘zi ifodalagan ma‘nodan “qoniqmaydi” va yangi *hisobdon* so‘zini yasaydi. Bilamizki, sifat yasovchi -don affiksi bilimdon, gapdon kabi yangi so‘zlar yasab, yasama so‘zlar ifodalayotgan ma‘noda belgining ko‘pligini bildiradi. (Shoira okkazionalizmida ham hisobdon so‘zi bizga “hisob-kitobni juda yaxshi biladigan” ma‘nosini beradi.)

Chidamasmiz Vatanfurush, vatanxo‘rlikka,

Ko‘tararkan bayrog‘ini bosh uzra tikka,

Biz sug‘urib yuragimiz berdik Hurlikka,

Eslab qoling, yosh singillar, yosh inilarim!

(“Yosh burgutlar, eslab qoling” she‘ridan)

Odatda, -xo‘r affiksoidi yemoq harakati bilan bog‘liq (nimanidir yeyishga berilgan, ro‘ju qo‘ygan) shaxs oti hamda xususiyat bildiruvchi sifat yasashini bilamiz. Shoira okkazionalizmida **vatanxo‘rlik** o‘ziga xos, o‘quvchini to‘lqinlantiradigan (vatan+xo‘r+lik) mavhum ot yasalgan.

G‘irko‘k yoli bo‘ron yanglig‘, ucharak,

Ko‘zlarida o‘t, shon yanglig‘ ucharak.

Omaddan bir nishon yanglig‘ ucharak.

^{*} **Okkazional** atamasi tilimizga rus tili orqali ingliz tilidan kirib kelgan bo‘lib, bunday so‘zlar so‘zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o‘z fikr va maqsadini o‘ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o‘zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo‘lgan o‘z munosabati, ya‘ni his-tuyg‘ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo‘llaniladi. Okkazionalizmlar tasvir obyektni tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganda yoki nutq egasi axborot qabul qiluvchini hayratga solishni istaganda yaratiladi. (Manba: Toshaliyeva S.I. O‘zbek tilida okkazional so‘z yasalishi. Filol. fanlari nomzodi ... dis. – T., 1998. – 170 b.)

Okkazional so‘zlar bir marta qo‘llanishi va o‘ta ta‘sirchanligi, obraz yaratishda nihoyatda qulayligi bilan til birliklaridan farqlanib turadi.

Aka, uchar chog'lar fasli bu fasl. (“Bu fasl” she’ridan)

Bu o’rinda *ucharak* okkazonalizmi *uchadigan* sifatdoshi ma’nosini berib she’rga avj pardada badiiylilik bag’ishlagan.

Shuningdek, H.Xudoyberdiyeva ijodida *go’daksaxt, jomso’z, qiyoda, betirak* kabi okkazonal so’zlar ham uchraydi.

Sheva so’zlari. Ijodkorlar o’z qahramonlarini o’zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so’zlarni ishlatadi. Sheva so’zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o’zida aniq aks ettirish bilan birga “badiiy nutqda muayyan estetik funktsiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me’yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo’llanishi bilan bog’liq”⁴³.

Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida sheva so’zlari ham o’ziga xos ishlatilganligini kuzatamiz. Masalan,

*Menda esa yurak notinch qoldi-ku suron boshlab, Bolamga kim aytar bugun ena*sin ertagini.* (“Ship-ship oyoq tovushlari” she’ridan)

Kelin emas, sho’rli bolam, bolam bo’lding, Jon chiqquncha ko’ksimdagi nolam bo’lding (“Yolg’iz o’g’il armoni” she’ridan)

Bug’doy chochsin, tariq chochsin, gul kelinim, Yo’llaridan yovlar qochsin, gul kelinim, Bu sho’r-u tor peshonamga sigmading-ku, Peshonangni xudo ochsin, gul kelinim. (“Yolg’iz o’g’il armoni” she’ridan)

Shoiraning “Yolg’iz o’g’il armoni” she’rida yana **keb** (*Odam qiziq, ekan, opang bo’lsa keb, Boshing silab, dardga darmon bo’larkan*), **jiq** (*So’ng so’zni qaytardi tushib jiq terga: “Enajon, ne uchun...tegmading...erga?!”*) sheva so’zlari ham uchraydi.

Kun bo’lar, ishq jilpanglaydi, Oy deganing yerga tenglaydi. “Taqdir”, deb urmay manglaydi, Oting polvonma, kurashgin (“Baxshining to’yidagi kurashda aytganlari” she’ridan)

⁴³ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.

* Shoiri ena, enajon sheva so’zlarini ellikdan ortiq she’rlarida qo’llaganligini kuzatdik.

Qayinzorda qolg'on bobom esladim, "Dushmanlig'i" yolg'on bobom esladim. Bir poy maxsi kiyib, biri qo'ltiqda, Sibirga yo'l olg'on bobom esladim. ("So'nggi oh" she'ridan)

Shu o'rinda aytish zarurki, shoira she'rlarining aksariyati o'zbek ayolini kuylashga; urush asoratlarini ko'rsatib berishga hamda oddiy insonlar mehnatini ulug'lashga, his etishga qaratilganligi bilan e'tiborlidir. Balki shu boisdandir Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida samimiyat, ravonlik, ixchamlik hamda falsafiylik barq urib turadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Lingvopoetikani tilshunoslik fanlari qatoriga qo'yish ham, adabiyotshunoslik fanlari sirasiga kiritish ham to'g'ri emas; lingvopoetika tilshunoslik, adabiyotshunoslik, shevashunoslik va stilistika sohalarida erishilgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etib, filologiyaning yaxlitligini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan (V.P.Grigoryev) filologik fandır.

2. Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan to'la xabardor bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon ijdkorning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda yozuvchi umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Halima Xudoyberdiyeva XXI asr o'zbek she'riyatida ana shunday yuksak mahoratga erisha olgan yetuk namoyandalaridan biridir.

3. Shoira she'rlarida lirik qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda fonografik vositalar(*alliteratsiya* (undoshlar takrori), *assonans* (unlilar takrori), *geminatsiya* (undoshlarni qavatlash) kabilar)dan unumli foydalana olgan.

4. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatini lisoniy tahlil qilish jarayonida she'riy misralardagi emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklar aniqlandi va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilganligi haqida mulohaza yuritish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ijodkorning tildan foydalanish mahoratini leksik vositalar (ma'nodosh, uyadosh, darajalanuvchi, zid ma'noli, ko'p ma'noli so'zlar, yangi yasalmalar, shuningdek, iboralar, izofalar, xalq maqollari, sheva so'zlari va b.) to'laroq namoyon eta olgan.

II BOB.

SHOIRA HALIMA XUDOYBERDIYEVANING SO‘Z IMKONIYATLARIDAN FOYDALANA OLISH MAHORATI

Haqiqiy shoirlikda hech bir so‘z, til birligi shunchaki ermak yoki matnni to‘ldirish, butlash uchun ishlatilishi mumkin emas. Hatto oddiy nutq tovushini ham, bo‘g‘in, so‘z, so‘zshakl, ibora, izofa, gapni ham uning o‘z ma‘no tovlanishiga, qiymatiga ko‘ra qo‘llash joiz bo‘ladi. Shundagina tilning har fonetik, morfologik, leksik-semantik, sintaktik birligi o‘z o‘rniga maqsadga muvofiq tushgan poetik talqin vositasiga aylanadi; joziba kasb etadi; o‘quvchi ruhiyatini she‘r olamiga bog‘lab oladi. Halima Xudoyberdiyeva she‘riyati bu yuksak talablarning milliy adabiyotimizdagi o‘ziga xos amaliy ko‘rinishi bo‘lgan adabiy hodisadirki, u lingvopoetik tadqiqda yanada ko‘proq qirralarini namoyon etaveradi.

Biz bilan bir zamonda yashab o‘tgan Halima Xudoyberdiyeva ona tilimiz imkoniyatlaridan to‘g‘ri va oqilona foydalana olish mahoratiga, o‘z uslubiga ega; har bir she‘riyat ixlosmandi qalbiga “Sen baribir muqaddassan, muqaddas ayol”, “Dorilomon kunlar keldi shafaqlari ol”, “O‘stir xudo degan shu mamlakatni!” degan hayqiriqlar bilan kirib bora olgan ijodkor edi.

2.1. Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatining morfologik xususiyatlari tahlili

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlili morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog‘liq holatlar haqida fikr yuritishni ham taqozo etadi. Tahlillarimizni shu asosda davom ettirishga harakat qilamiz.

Fonetik, leksik, frazeologik vositalar kabi grammatik vositalar ham tilning stilistik aktualizatsiyasida keng qo‘llaniladi. Nutq jarayonida grammatik sinonimiya qatoridagi nisbatan qulay variantlarni ajratish zarurati tug‘iladiki, bu narsa grammatik vositalarni umumiy stilistika fonida o‘rganishni taqozo etadi. Shu ma‘noda quyidagi tezisni keltirish o‘rinlidir: “... grammatika so‘z, forma va konstruktsiyaning predmet-logik hamda grammatik ma‘nosini o‘rgansa, grammatik

stilistika ana shu asosiy ma'no ustiga qurilgan ekspressiv, konnotativ ma'nosini yoki uning funksional xususiyatini o'rganadi”⁴⁴.

Zero, grammatik vositalarning ko'plab variantlari mavjudligi, ulardan birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin yoki mumkin bo'lmashligi grammatik sinonimiyani o'rganish masalasini keltirib chiqaradi va tadqiqotchidan grammatik vositalarni tahlil qilish jarayonida bu masalalarni diqqat markaziga qo'yishni talab etadi⁴⁵.

Fe'l. O'zbek an'anaviy tilshunosligi fe'lning leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini batafsil o'rgangan. Bu boradagi ilk ilmiy tadqiqotlar A.N.Kononov, A.Fulomov, A.M.Shcherbak, A.A.Koklyanova singari turkolog olimlar qalamiga mansub bo'lsa, keyinchalik esa bu kuzatishlar A.X.Sulaymonov, A.Hojiyev, Sh.Shukurov, S.A.Akbarov, T.Xo'jayev, R.Rasulov va boshqalar tomonidan amalga oshirildi. Tabiiyki, bu ishlarda so'zning leksik-grammatik xususiyatlarini, harakatning semantik fragmentini o'rganish birinchi o'ringa qo'yildi. O'ziga xos ma'no guruhlariga, grammatik kategoriyalarga va bevosita sintaktik aloqaga daxldor bo'lgan fe'l o'ziga xos rang-barang stilistik imkoniyatlarga ham ega*.

O'zbek tilshunosligida fe'lning stilistik imkoniyatlari o'rganishga bag'ishlangan yirik hajmdagi tadqiqot M.Sodiqova tomonidan amalga oshirilgan⁴⁶.

Fe'lning ma'no guruhlaridan foydalanish. Fe'lning umumiy grammatik ma'nosi “ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalash”; anglatgan qator lug'aviy ma'nolariga ko'ra harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq ma'nolarni yoritishini bilamiz. Shu jihatiga ko'ra fe'llar harakat, holat, nutq, tafakkur fe'llari kabi lug'aviy ma'no guruhlariga bo'linadi.

⁴⁴ Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари, 10-б.

⁴⁵ Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.—Самарқанд: СамДУ, 2006.—53-б.

* Hazrat Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida 100 ta fe'lni chuqur tahlil qilib, “bu turkum so'zlardagi ma'no nozikliklarini ochib berganligi”, o'zbek tilining boy tasviriy imkoniyatlarga ega ekanligini isbotlagani ham bejizga emas.

⁴⁶ Содиқова М. Феъл стилистикаси.—Т.: Фан, 1975.; Садыкова М. Стилистика глагола в современном узбекском литературном языке: Автореф. дис. ...д-ра филол.наук. — Т., 1991.

Shoira ham o'z ijodida ana shu til vositalaridan keng doirada foydalanib, ularni she'rlarining g'oyaviy mazmunini yoritishga, fikrning obrazli-estetik ifodasini ta'minlashga xizmat qildiradi. Jumladan,

Shoira bir to'rtligida buyurokrat rahbar-u rahbarchalarning tazyiqlaridan zada bo'lgan qahramon holatini oddiy harakat fe'llari orqali ta'sirchan yoritadi: *Xushyorlar ko'p tepkiladi. Kirlangan chim men. Xushyorlar ko'p so'roq qilar. Soqov men. Jim men. Agar Xayyom qaytib kelsa do'st tutinardim, Mayxonada sharob bilan yuvinardim men.*

Ijodkor "O'zbekiston" she'rida zalvarli mazmunni nutq fe'llariga yuklaydi: *Navbat berib dedilarki, "O'zbekistan so'zlaydi", So'zla yurtim, meni Sening timsoling dedilarmi? Onam, sening "yuzing"ni deb, ular meni "siz"laydi. Yo'qsa bu g'o'r shoiringni to'sh kurib edilarmi?!*

Holat fe'llari orqali insonga xos inja tuyg'ular, beqiyos holatlar she'riy misralarga tiziadi: *Borimni chuldiroq bolamga tutdim, Ug'il-qiz ko'zimga ko'rinar qantday. Ammo men... Onajon... sizni unutdim, Unutdim qanday?!*

"Alvido deng" she'rida harakat fe'li (to'kilmoq) ko'chma ma'noda holat fe'li vazifasini bajara olgan: *Alvido, yor, to'kilmoqda toqat degan jom, Ketmoq ishqi kuydirmoqda o't bo'lib mani...*

Shoira o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq kabi tafakkur fe'llarini ham inson ruhiyatining cheki-chegarasi ko'rinmas ichkari holatlarini ifodalashga xizmat qildiradi. Jumladan, *Ketdim, o'yladimki sendan qutildim, Endi sensiz kutgum har tongotarni. Ismingni ko'ksimdan chechakday yuldim, Yorab, chechak shunday ildiz otarmi?*

Na ijtimoiy hayotning biror qirrasi, na oddiy insonning biror tashvishi, na tabiat o'zgarishlari, boringki, insonga va uni qurshab turgan borliqqa tegishli bo'lgan nimaki bor ijodkorni befarq qoldirmaydi. Respublika gazetalaridan birida (mustaqilligimizning dastlabki yillarida erkimizni yo'q qilishga uringan voqealar yuz berib turdi, shunday mudhish urinishlardan biri "Andijon voqeasi" haqida)

xabar bosilgan edi*. Mash'um xabardan butun borlig'i nafratga to'lgan shoira shunday yozadi:

*...Onang oqib baliq bo'ldi, Akbarjon,
Ukang oqib baliq bo'ldi, Akbarjon,
Endi qaydan bo'lsin ular daragi,
Bu ters hukmi xoliq bo'ldi, Akbarjon,
Unutganning kuysin ikki dunyosi!*

*...O'tgan o'tdi. Bo'lmas ortga qaytarib,
Faqat yurak zirq-zirq sanchgan paytlari,
Bu yashinvor chinqiriqli Turonda,
Ota Turkdan tarqalganga aytarim:
"Unutganning kuysin ikki dunyosi!"*

Mana shu "Unutganning kuysin ikki dunyosi" she'rida shoiraning munosabat fe'llari* dan foydalanish mahorati po'rtanani yuzaga keltirgan.

Fe'lning nisbat shakllaridan foydalanish. Halima Xudoyberdieva ijodida harakat va uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlarini ifodalovchi nisbat kategoriyasining uslubiy imkoniyatlari fe'lning boshqa kategoriyalaridagi singari aniq bo'rtib turmaydi. Masalan, *Garchand ketmadi sho'rimiz, Ochimiz och, to'qimiz to'ygan. Bizlar ojiz ona bo'rimiz, Bolalarin odamlar so'ygan...*

"Biz ojizimiz" she'ridan olingan parchada, me'yor bo'yicha kesim vazifasini bajargan fe'l (ega ko'plikni ifodalagach) birgalik nisbatda berilishi kerak edi, biroq vazn talabiga ko'ra *so'ymoq* fe'lining aniq nisbatda berilishi ish-harakat bajaruvchilari ko'pchilik (odamlar) ekanligiga qaramay ifoda mazmuniga deyarli putur yetkazmagan.

* "Andijon shahar klinikasida yotgan 16 yashar Akbarali bunday deydi.: "Oilamiz, "Qurshob" sovxoziga qarashli dalalarda piyoz ekkandi. To'rt xo'jalikda o'n sakkiz kishi edik. O'sha 5-iyun kuni biz to'qayga berkindik. Yarim kechada yashiringan joyimizdan chiqib yo'lga tushdik. Soy bo'yiga chiqqanimizda bizni bosqinchilar ushlab olishdi. Onamning qo'lida ikki yarim yashar ukam bor edi. O'sha ukamni onamning bag'ridan uzishib soyga otib yuborishdi. Onamni ham suvga oqizishdi. Ularning ortlaridan otam, akam o'zlarini suvga otishdi. Oyoqlarimga o'q tegib yiqildim... Onam bilan singlimning haligacha daragi yo'q..." (Gazetadan)

* Tilimizda *erkalamoq, suymoq, yaxshi ko'rmoq, parvona bo'lmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, yon bosmoq, maftun bo'lmoq, e'zozlamoq* kabi ijobiy xarakterdagi; *beti qursin, xudo olsin, qorasi o'chsin, baloga giriftor bo'lsin, juvonmarg bo'lgur* kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe'llari ham mavjud.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ko'p hollarda poetik obrazning real tasviri o'zlik nisbat shaklida beriladi. Jumladan, "Mening to'zmas bol-u parim" she'rida shunday yozadi: *Harchandki kuyib ishlab, yetgan joyi **kuyindi**, Oftoblari kuydirgich, ko'kda oyi **kuyindi**. Jonigacha qardoshga tutgan mo'mintoylarim, "O'zbek ishi"dayin toj, tuhmat tojin **kiyindi**.*

She'rda aniq bir shaxsning fojiasi haqida emas, balki butun xalq to'g'risida mulohaza yuritiladi. Agar bu yerda fe'llar *kuydi, kiydi* shaklida, ya'ni aniq nisbatda berilganida edi, misralarda zalvarli fikrning obrazli ifodasini aniq berish imkoni bo'lmas edi.

Yana bir misol: *Boshimga urayinmi o'tar dunyo shonini, U, kuygan o'tlarimda qaytadan **kuyayinmi**? Guldan baldoqlar taqqan jononlarning jonini Bir siqim tuproq qilgan dunyoni **suyayinmi**?* ("Faqat...Bobur yig'lagan" she'ridan)

Shoira she'rlari "men" tilidan aytilib insonga xos tuyg'ular nazmiy titramalarda, asosan, aniq nisbatdagi fe'llar bilan ifodalangan o'rinlar anchagina ekanligini kuzatdik. Masalan, *Hozir chetga surib qo'ydim, men barcha ishni – O'qish, ishlash, qor saylining tartibin **buzdim**. Bu kech daraxt butog'idan uchmagan qushni, O'z onamning suratini yurakka **chizdim**.* ("Onam surati" she'ridan)

Ba'zan kishining jon tomirini zirillatadigan ichki tug'yonlar majhul nisbatdagi fe'llar orqali ham ifodalanadi: *Sen qaydan bilasan, men ham zor goho, Yostig'im ko'z yoshdan **yuvilganini**, Mening bosh egganim – men uchun daho Yigit xayolidan **quvilganimni** Sen qaydan bilasan?!* ("Xayr dedim..." she'ridan)

Fe'lning o'zgalovchi kategoriya shakllaridan foydalanish. Fe'lga xos shunday grammatik shakllar borki, ular fe'lni kesimlikdan boshqa turkumga ravishga, sifatga, otga moslaydi⁴⁷.

1) ravishdoshni *-(a)y, -(i)b, -gach, -guncha, -gancha, -ganda, -gani, -may/masdan* shakllari yuzaga keltiradi. Masalan, *Ba'zan yiroqdagi misga ko'z*

⁴⁷ Bu shakllar fe'lga nutqda o'zga turkum xossalarini "yopishtirganligi" uchun bir butun holda *o'zgalovchi kategoriyasi* atamasi bilan nomlanadi. (Manba: Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek tili.–T, 2010.)

tikib – **Berilib ketamiz** unga butunlay. Yetishmoq qasdida **shoshib**, **entikib** – **Oltinlarni bosib o‘tamiz** bilmay. (“Go‘dakka ham qiyin” she’ridan)

2) sifatdosh **-gan**, **-ayotgan**, **-adigan/ydigan** shakllari orqali yuzaga keladi. Masalan, “Bolalarim, qadni kotaring!” she’rida shunday yozadi: **O‘tgan qora kunlardan hali-hanuz karaxtman, Har yaprog‘i yurakday titrab turgan daraxtman. Shu holda ham oldinga tashlanguchi tik shaxdman, Bolalarim, qadni ko‘taring!**

3) harakat nomi shakllari **-moq**, **-ish**, **-uv** affikslari orqali hosil bo‘ladi. Masalan, **Shunchaki yozmoqqa**, **ko‘ngil to‘lmaydi**, **Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo‘lim. Shunchaki yozganga chidab bo‘lmaydi, Shunchaki yozmoq bu–shoirda o‘lim.**

Fe’lning harakat tarzi kategoriyasidan foydalanish. Tilimizdagi 27ta mustaqil ma’noli fe’l harakat tarzi shakllari tarkibida mustaqil ma’nosini yo‘qotib ko‘makchi fe’l vazifasida kelishi bizga ma’lum. Shoira shunday fe’llarning ajratib yoziladigan shakllaridan ham, qo‘shib yoziladigan ko‘rinishlaridan ham ko‘p va xo‘p foydalana olgan. Masalan, **G‘am kelsa ham kuyib icha beringiz, Tiriksiz-ku, suyib icha beringiz, To‘zim to‘nin kiyib icha beringiz, Axir ko‘zda jola ko‘zga mehmondir.** (“Mehmondir” she’ridan)

Menam o‘z-o‘zimcha roz aytdim, ketdim. Ne aytdim. O‘zimga xos aytdim. Ketdim. Bu dunyoga kelib bor qilgan ishim – Bir ikki so‘z aytdim. Rost aytdim, ketdim. (To‘rtliklaridan)

O‘zim – suvman, suv ersam-da, oh, qizib ketdim, Marjon-marjon terlarim–dur, men tizib ketdim. Qancha kuchli, qarqarali daryo esam-da, To‘lqinimda yolg‘iz Sizni oqizib ketdim. (To‘rtliklaridan)

Yuqorida berilgan she’riy parchalar tarkibida harakat tarsi mantiqan teng keladigan so‘zlar (**roz aytdim, ketdim–roz aytdim, aytdim ketdim–aytdim, rost aytdim, ketdim–rost aytdim; qizib ketdim – qizidim, tizib ketdim – tizildim, oqizib ketdim – oqizdim**) qo‘llansa, ulardagi joziba yo‘qoladi.

Fe’lning bo‘lishli/bo‘lishsiz shakllaridan foydalanish. Har bir fe’l harakatning bo‘lishli yoki bo‘lishsizligini ifoda etadi. Fe’lning bo‘lishli shakli maxsus affiksga ega emasligi ma’lum. Bo‘lishsiz shakl esa maxsus grammatik vositalar orqali hosil

qilnadi. H.Xudoyberdiyeva she'rlarida inkor ma'nosini ifodalash uchun fe'ning bo'lishsiz ko'rinishini ifodalovchi **-ma** affiksi, **emas** to'liqsiz fe'li, **na** inkor yuklamasi, **yo'q** inkor so'z-gapidan unumli foydalanadi.

Ba'zan shoira bir satrning o'zida fe'ning ham bo'lishli, ham bo'lishsiz shaklidan shunday foydalanadiki, o'quvchi lirik qahramon "men"ning o'rnida beixtiyor o'zini qo'yib ko'radi. Chunki she'rdagi "men"da individuallik emas, butun yurtparvar, vatansevar, elfidolarga tegishlilik sezilib turadi. Buni "Afsus" she'rida kuzatamiz: *Zamon dardin **chekmoq bo'ldim, chekolmadim**, So'kilganni **tikmoq bo'ldim, tikolmadim**. Ming yurakni **ishg'ol qilgan bo'lib yurib**, Biroviga birorta so'z **ekolmadim**.*

Fe'ning bo'lishsizlik shakli ritorik so'roq gapli misralarda tasdiq ma'nosini beradi: *...ko'k maysa diydorin, Kurtaklar bo'rtig'in **qumsamaydi** kim?!* ("O'zimizning bog'lar" she'ridan)

*Qachon ona **sut bermas** bu achchiq alaflarga Qachon bu xil qotillar **tug'ilmaydi** onadan?!* ("Qo'sh go'dagin yetaklab kampir" she'ridan)

Ba'zan shoira bo'lishsizlik shaklidagi fe'lni inkor ma'nosini beruvchi boshqa so'z bilan birga qo'llab, ifoda ma'nosini chuqurlashtiradi: *"**Yo'q, bo'lmaydi**",-der otam dangal, Hafsala-la mo'ylovin burab.* ("Sovchi keladi" she'ridan)

Ijodkor fe'ning bo'lishsizlik shakli **-ma** va uning variantlari **-may/-mayin/-mas/-masdan/-maslik** kabilarni goh so'z o'yini qilish, goh ma'noni kuchayirish maqsadlariga bo'ysundiradi. Chunonchi, *Xato **takrorlanmas, takrorlanmaydi** Odam o'ylab, ko'rib tursa har lahza. Kim alahlab kelgan joyiga qaytdi, Badanin kuydirib o'q lahcha, lahcha...Urush – mash'um xato, **takrorlanmaydi!*** ("Xato takrorlanmaydi" she'ridan)

Odatda, fe'ning bo'lishsizlik shakli **-ma** va uning variantlari inkor ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Halima Xudoyberdiyeva ularni o'ziga xos mahorat bilan ijobiy ottenkalar tashiydigan vositalarga aylantiradi. Masalan, *O'rtoqlarim, **boshingizda so'nmasin quyosh**, Barchangizni tole suysin, **baxt qolmasin kech**. Biringizning g'amingizda ko'zga olib yosh –Kuyar damga **duch kelmayin, duch***

kelmayin hech... Men chizayin chizib bo'lmay quvonch rangini... Do'stlarimning qora kunin ko'rsatma taqdir. (“O'rtoqlarim” she'ridan)

Ot. Zamonaviy texnika vositasida shoira she'rlarining tarkibini statistika etsak, unda ijodkor qo'llagan so'zlarning 60-65 foizini ot so'z turkumiga tegishli birliklar tashkil etishi ayon bo'ladi.

Atoqli otlardan foydalanish. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida qo'llanilgan atoqli otlarning ham o'ziga xos o'rni bor.

1) shaxs otlaridan: shoira she'rlarida qo'llanilgan ismlar ichida alohida uslubiy maqsad yuklanganlari ham borki, ular ijodkorning g'oyaviy-badiiy niyatini aniqlashga yordam beradi. Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida eng ko'p sohibqiron Amir Temur (42 o'rinda), Ahmad Yassaviy, To'maris, Shiroq, hazrat mir Alisher Navoiy, shoh va shoir Bobur nomlari uchraydi. Masalan,

Yer ostida Shiroq, Temur, Ko'ksi tog'lar yig'lagay. “Boy ham bo'lding biyday-biyday, Faqat... yurt egasiz uyday”, Deb tuproqda Yassaviyday, Qo'ng'iroqlar yig'lagay. (“Yig'lagay” she'ridan)

O'gli Bobur Hind sori bosdi, ...Nodirasin jaholat osdi, ...Mashrab Balxda, dorda salanglar, Usmon qah-qah urib, alanglar. ...Hamzasini tilkalar sanglar... Amir Temur yodi o'stirar Yassaviyning oti o'stirar, Turkistonning onalarini... (“Turkistonning onalari” she'ridan)

“To'marisdek osmonda balqqan ayol o'lmaydi!” deb hayqirayotgan shoira hamisha Xalq, Vatan, Turon so'zlari bilan To'maris, Temur, Yassaviy nomlarini yonma-yon qo'llaydi. Ularga avlod ekanligidan faxr etadi. Ularning ruhlaridan o'ziga, zamondoshlariga madad so'raydi, ulug'larning ruhlariga yukunadi. Yurtdoshlarining har birida ularning shijoati, iymon-e'tiqodi bo'lishini istaydi. “Xalq qonida ulug'lar qoni uxlab yotibdi, ularni uyg'otish shart”, deb hisoblaydi. O'zbek ayollarining hamisha ona To'marisdek oqila, mard bo'lishga, yurt erkaklarini Amir Temurday yovqur, oliyjanob, halol bo'lishga chorlaydi, yon-atrofimizda uchrab turadigan befarqlik, vatanxo'rlik, onalikni eplolmaslik, nomardlik holatlari shoirani larzaga soladi. Bu larza shoira she'rlariga isyon, ezgulikka da'vat bo'lib ko'chadi.

Ulug' Istiqloldan keyin shoira qalbida umid uchqunlari yonadi: *“Eng kamida Temur bo‘lar endi bu yurt erkagi, Endi To‘maris bo‘ladi xotinlarin eng kami”* (“Xavfdaman” she’ridan), deb yozadi.

Shoira atoqli shaxs otlaridan shunchaki foydalanmaydi, she’rlarida o‘tgan azizlarimizning, ulug‘larimizning ruhini yod etib biz zamondoshlariga qarata “ularga munosib bo‘lishimiz shart”, degan mas’uliyatni yuklaydi.

Shoiraning *“Vatan, Vatan...Mashrab asli, Balxda osilgan”*, *“Haqdin aytdi Yassaviyning qalandarlari”*, *“Ko‘rdim...dorni sudrab kelayotgan Dukchi Eshonni”* kabi o‘t-olov misralari Muhammad Yusuf, Zulfiya Mo‘minova kabi otashnafas ijodkorlarni ilhomlantiganini sezish qiyin emas.

Shoiraning mahorati ham shunda. U hech bir birlikni shunchaki qo‘llamaydi. Misralar ortida teran mushohada, sinchkovlik, milliy qarashlarimizdan yetarlicha xabardorlik turibdi.

Yuqoridagi misollarda shoira atoqli otlar orqali mashhur ajdodlarimiz nomlarini bilan birga *“Odam Atoga sodiq Momo Havo o‘ldirgay”*, *“Ostonada bir to‘p Yusuf yo‘qlar Zulayholarin”*, *“Men ko‘rganman ketgan Tohir, ketolmagan Zuhroni”*, *“Majnun ketib Layli qolsa o‘t olardi sahroni”* misralarida doston qahramonlari; *“Yana esga oldi shunday To‘ychibek o‘lgan chog‘i Ko‘ksin tutib, ajal sochgan to‘p o v o z i n o‘chirib”* da urush qahramoni; *“Na‘matakka aylandi-yu ustoz Oybek ijodi...”*, *“Ustoz Hamid ko‘zlarini g‘oyibdan tiklar yodim”*, *“Shayxzoda bayozida qomat tiklading bo‘y-bo‘y”*, *“G‘afur G‘ulom na‘rasida yuksakligingni ko‘rdim”* misralarida ulug‘larimiz nomlarini ham keltiradi.

Shoira ijodida *“Mirzo Ulug‘bek”* (M.Shayxzoda), *“O‘tkan kunlar”* (A.Qodiriy), *“Ufq”* (Said Ahmad) asarlari qahramonlari nomlari keltirilgan she’rlar ham bor.

“Gul suvida Gulnoraning sochin yuvmish onasi”, *“Faqat yuzga kirganida Omon Muxtor”*, *“Bu qulagan tik terakmi, Bo‘ylaringmi, Muhammad”*, *“Ilk ko‘klam chechagini, kiprigida qalqib yosh, Qo‘sh qo‘llab uzatmoqda Muharramxon ayaga”* kabi o‘nlab she’rlarida o‘zi bilgan, o‘zi tanigan, o‘zi hurmat

qiladigan oddiy insonlar nomi orqali hissiy kechinmalarning yorqin ifodasini bera oladi.

2) o‘rin-joy otlaridan:

*Bugun to‘s-to‘s **Turon***im birlashmasa til topib, Gumroh tortgan qavm ichra gumroh bo‘lib o‘taman.* (“O‘taman” she‘ridan)

Shoira “Bugun turkka ne kerakdir”, “Navro‘z”, “Inshoolloh” kabi o‘nlab she‘rida ham **Turon** so‘zini bir-ikki martadan ishlatadi, xolos. “**Turon–ota, Turon–tuproq, Turon–erk, Turon–erklik bayrog‘i, Turon –yurt, Turon –xalq**” deydi u boshqalardan farqli o‘laroq va keyingi o‘rinlarda ota-yurtga qarata to‘g‘ridan to‘g‘ri otam tuprog‘im, erkim, bayrog‘im, yurtim, xalqim deb murojaat qilaveradi.

O‘ngimda ruhimga o‘q otgan fikr, Ko‘nglimga bir yorug‘ cho‘g‘ otgan fikr. Uyqumda qonimni uyg‘otgan fikr: “Turklikning muqaddas o‘chog‘i Turon” (“Turon” she‘ridan)

O‘quvchi tasavvurida **Turon** toza fikr, teran aql, tog‘dek yuksalib turgan ota sifatida gavdalanadi.

Shoira she‘rlarida quyidagi atoqli o‘rin-joy nomlari qatnashgan misralar ham uchraydi:

*Onam berib ketdi deb “sig‘in” O‘zi yotgan **Boyovutini**.* (“Boyovutda” she‘ridan)

***Qashqadaryo** uning ko‘zida yashar Shamol, jazirama quyoshi bilan* (“Qashqadaryoda” she‘ridan)

***Sirdaryoning** sohilida bog‘lar tutash, Goh shodumon, goho ma’yus chog‘lar tutash* (“Sirdaryo” she‘ridan)

***Andijonda** ko‘tarib qad, **Shoshga** shoshib botdingmi? Elkezarim, endi abad Turmas bo‘lib yotdingmi?* (“Muhammadning yo‘qlovi” she‘ridan)

Boyovut–shoiraning tug‘ilib o‘sgan yurti. **Andijon**–shoira e‘zozlagan M.Yusuf tug‘ilgan yurt nomi.

* Statistik ma’lumot: shoira she‘rlarining 67 o‘rinida Turon so‘zi qo‘llanilgan.

Turdosh otlardan foydalanish. Bir turdagi shaxs, narsa, o‘rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar turdosh otlar sanalishini bilamiz.

1) shaxs otlaridan: Shaxs otlari, odatda, kishilarni yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko‘ra nomlab keladi. H.Xudoyberdiyeva she‘rlarida shaxs otlaridan ham unumli foydalana olgan. Chunonchi,

*Kim bilar bu hayotda qay taqdir a‘lo bo‘lg‘ay, Shoirga o‘z yuragi bir umr
balo bo‘lg‘ay, Qayda dard eli bo‘lsa **shoir** muftalo bo‘lg‘ay* (“Bu o‘t” she‘ridan)

Ijodkorning fikricha, shoir uchun hayotdagi, turmushdagi biror dard, alam, g‘am, tashvishning begonasi bo‘lmaydi. Shoir shu she‘rida ajdodi Uvaysiyga murojaat etib men ham shu “mubtalolik dardiga merosxo‘rman”, deydi. Va yana “Avval-oxir **shoirni** o‘tda ko‘rdim, **momojon**, Azal **shoir** dardini katta ko‘rdim, **momojon**” misralarida turdosh shaxs otlaridan xalqona murojaat yo‘lida foydalanadi.

Shoir she‘rlarida *hoqon, amir, pir, shayx* kabi eskirgan lavozimlar bilan bog‘liq; *kampir, ona, momo, ayol, xotin, yanga, kelin, qaynona, singil, opa, amma, xola, qiz, bola* kabi ayol qavmi bilan bog‘liq; *ota, bobo, aka, uka, jiyan, er, begim, amaki, tog‘a, qaynota, o‘g‘il* kabi erkak qavmi bilan bog‘liq; *usta, me‘mor, shifokor, rassom, shafyor, ustoz* kabi ko‘plab kasb-kor bilan bog‘liq shaxs otlaridan foydalanadiki, bu shoir she‘rlarining xalqchilligini, tili ravon va sodda, ammo pishiqligini ta‘minlay olgan.

2) o‘rin-joy otlaridan:

Tengsizga borarlar, tengliga bormas Ming qo‘yliga borar, mo‘ngliga bormas To‘yiga, uyiga borar, vodarig‘ Hech kim bir-birining ko‘ngliga bormas.

*Qaldirg‘ochning uyasicha bitta **kulba**-yu, Sizning bilan bo‘lsam birga, menga kifoya.*

*Ko‘zimiz o‘ngida qancha **qasrni** Buzdi-yu qaytadan tikladi odam. Kecha kezgan bo‘lsak vayronalarda, Bugun tor sozladik **koshonalarda**.*

Otasini o'ldirib qo'ygan, O'g'il aqldan ozmay, yashaydi... Ozod qizi, uchirgan qushi, **Fahshxonaga** borib qo'nadi. Lablarini qonatar tishi, Labin gajib.. Ona... ko'nadi... Men ko'nmayman, tirik o'laman, Tentib befayz ko'**chalarida**. Yig'lab bodomqovoq bo'laman, Elning qaro kechalarida...

To'yxonaga do'ngandir yer, **Mayxonaga** do'ngandir yer. Xushlashganlar... goh **jinnixonalarda** tishlashar...

Boshqalarga chopdim **shahar**, **kentda** men – Bir qaytarib, yo bir kesatmadingiz. “Menam g'animatman, menam ketaman”– Deb nechun bir bora eslatmadingiz? Onam, onam-a?!..

Goh tikan ko'klarkan **gulzorlarida**, Ko'nglim yerga kirdi ozorlaridan – Kir-chir qo'llar tegib **bozorlarida**, Ohori to'kilgan mato, ketdim men.

Halima Xudoyberdiyevaning mahorati shundaki, masalan, biz har kuni ishlatib yurgan o'rin-joy otlarini bizning tasavvurimizga kirmagan mavzularda qo'llaydi. Buning yorqin misolini yuqorida biz saralagan misralarda ko'rishimiz mumkin.

Yana ta'kidlash lozimki, shoira vatan so'zini ko'p ishlatmaydi, uning ohorini saqlaydi. Ammo bu shoira vatan haqida ko'p yozmaydi, degani emas. Uning 80 foiz she'rlari vatanga bag'ishlangan. Shoira vatanni shunchaki sevmaydi, uning taqdiridan tashvishlanib, mustaqilligini himoyalashga shay turib, kerak bo'lsa, jonidan kechib sevadi. Hatto insoniy tuyg'ular tasvirini ham vatanning sha'ni, ornomusi bilan bog'laydi.

Shoira vatan mustahkamligining asosi oila bilan, oila a'zolarining teran tafakkuri-yu, ota-onalik mas'uliyati bilan, erkak va ayolning oilaga, insoniy tuyg'ularga sadoqati vatanga bo'lgan sadoqatning bir bo'lagi bilan bog'liqligini shu qadar teran, shu qadar otash bilan ifodalaydiki, o'quvchi nutqida ishlatib yurgan har bir oddiy so'zida mo'jiza, sehr borligini his etmay iloji qolmaydi.

Umuman olganda, shoira ijodidan barcha so'z turkumlariga oid morfologik xususiyatlarni ifodalagan, she'r misralariga stilistik jihatdan singdirib yuborilgan birliklarni istagancha kuzatishimiz mumkin.

Shu o'rinda shoiraning bir "Dorilamon kunlar keldi..." she'ri doirasida morfologik tahlilning ma'lum bir qismini amalga oshirishga harakat qilamiz.

fe'l (38 ta)	<i>keldi, borsang, shaylanishlar, sozlashlar, surtasan, yetganlar(2ta), yetmaganlar(2ta), ucharkan, rostlay boshlar, qayt, yumib, boshlanmasin, desang, qilar, bo'lay, tur, boq, yonar, tikilgan, ketsin, qoplaydir, bossang, yayraydi, yashamoq, ursang qo'l, ochiladir, borgan, yetilgusi, tortma, kelar, ochishib, chorlaganda, deb, sozlanganda, pichirlagan</i>
ot (55 ta)	<i>onaginam(2ta), kunlar(2ta), shafaqlari, tor (2ta), olcha, gulin, ko'zlaringga, lablaringdan, so'z, otaginam, xayolimda, qad, ko'z, onam, qiyomat, tabiat, ko'zlari, sharobdan, og'udan, belginangga, tirak, dilda, onajonim, quyoshga, quyosh, yuzing, ko'zlaringda, umid, oni, dunyoni, dunyoning, qir-darasin, xosiyati, yerni, oyoq, taning, taom, ishtahang, shox, rizqdir, rizqqa, dil, o'g'lonlaring (2ta), quchoq, meva, shirinlikdir, davralardan, el, tiriklikning, bayrami, lablar</i>
Sifat (25 ta)	<i>dorilamon (3ta), ol, behol, so'lg'in-so'lg'in, o'ksik, suyumlidir, ko'r, mast, ardoqli, issiq, mahvash, qorli, dilingdagi, g'ash, qizg'ish, lolarang, mo'l, yalang, tansiq, bog'lardagi, mevali, ilinjli(k)dir, so'lg'in</i>
son (2ta)	<i>bir (2ta)</i>
ravish (3 ta)	<i>kunlarga (3ta), qasdma-qasd, bu kun, har, doim</i>
olmosh (12 ta)	<i>qayon, bu (3ta), shu, bizni, unga (2ta), saning, bizga, ana, o'zing (2ta)</i>
bog'l. 7ta	<i>va (2ta), goh (2ta)</i>
ko'mak. 6ta	<i>bilan (2ta), sari, qadar, -day(2ta)</i>
yukl. 1ta	<i>ham</i>
so'z-gap 4ta	<i>bor (4ta)</i>

Shoira she'rlarida imkon qadar oddiy, barchaga tushunarli bo'lgan so'zlardan foydalanadi va go'zallik soddalikda ekanligini qayta-qayta isbotlayveradi.

2.2. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining sintaktik xususiyatlari tahlili

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev "sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq" kabi uslubiy figuralar "fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi"ga xizmat qilishini ta'kidlaydi. "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko'rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: "anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar". Bu uslubiy vositalar mavzuga aloqador bo'lgan deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi⁴⁸. Fikrni umumlashtiradigan bo'lsak, quyidagi holat yuzaga chiqadi:

- 1.Sintaktik parallelizm. 2.Emotsional gap. 3.Ritorik so'roq gap.
- 4.Inversiya. 5.Ellipsis. 6.Gradatsiya. 7.Antiteza. 8.Farqlash. 9.O'xshatish.

Sintaktik parallelizm. Badiiy matnda, shuningdek, uning bir ko'rinishi bo'lgan she'riyatda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladiki, ular she'r ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o'rganiladi. Parallelizm (yunoncha, parallelos-yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi⁴⁹. Masalan,

- 1) *Garchi bugun charchagan, garchi bugun horg'indir,*
Ko'kka o'rlab kishnamas, oyoqlari ozg'indir,
Lek, yollari o'shanday olovli bir yolqindir,

⁴⁸ Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.—Тошкент: Фан, 2006.

⁴⁹ Шукуров Р.М. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари // ЎТА, 2004.—№2, 73-75-б.

To‘marisning otini boqqan ayol o‘lmaydi! (“To‘marisning tumori” she’ridan)

2) *To‘marisdek oyoqqa qalqan ayol o‘lmaydi!*

To‘marisning tumorin taqqan ayol o‘lmaydi!

(“To‘marisning tumori” she’ridan)

Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish, o‘quvchi e’tiborini o‘sha nuqtaga jalb etish orqali ta’sirchanlikni oshirish va, eng muhimi, unga o‘quvchini to‘la ishonтира olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo‘lib, poetik nutqda ko‘p qo‘llanadigan, eng mahsuldor va ta’sirchan sintaktik birlik hisoblanadi⁵⁰. Bir xil shakllangan gaplar badiiy nutq ta’sirchanligini boyitish bilan birga ma’noni kuchaytirishga va fikrning batafsil-atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog‘liq ma’lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qiladi. Masalan,

Vatan, ko‘rdim to‘ningning suzilib turgan yerin,

Shuni ko‘rib ko‘nglimning buzilib turgan yeri,

Shuni ko‘rib ko‘nglimning uzilib turgan yeri,

Vatanim onaginam... (“Vatanim onaginam” she’ridan)

Bu misolda lirik holatning ikki xil harakati ikki xilda shakllangan gaplarda ifodalangan, ya’ni *Shuni ko‘rib ko‘nglimning buzilib turgan yeri*(dir *Vatanim onaginam*) – *Shuni ko‘rib ko‘nglimning uzilib turgan yeri*(dir *Vatanim onaginam*).

Yoki

O‘zimni bilmasmen, xasmanmi, xormen,

Menga diydor kerak, yashashim uchun.

Men-ku bir diydorga zor, intizormen,

Menga ham zor kerak, yashashim uchun. (“Yashashim uchun” she’ridan)

Bunda lirik qahramonga murojaatda bir xil harakatning ikki xilda shakllangan gaplarda ifodalangan, ya’ni muddao – *diydorlashish*. Faqat qanday diydorlashish? (U) *ham (mendek diydorga) zor* bo‘lishi kerak.

⁵⁰ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.—Тошкент: Фан, 2006.; Шукуров Р.М. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари // ЎТА, 2004.—№2, 73-75-б.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida sintaktik parallelizmlarning go'zal namunalarini ko'plab uchratish mumkin. Jumladan,

Dunyoning borligi – Siz borligingiz,

Dunyoning torligi – Siz torligingiz,

“Men bilan qiynalib ketding” dedingiz,

Qiynalib yashamoq– yozug'im mening! (“Mening yozug'im” she'ridan)

Mazkur banddagi sintaktik parallelizm *Dunyoning borligi – Siz borligingiz, Dunyoning torligi – Siz torligingiz* milliy mintaletimiz bilan bog'liq kuchli mantiqqa ishora qiladi. Odatda, haqiqiy o'zbek ayollari turmush o'rtog'ini “ko'z ochib ko'rganim” deb qabul qiladi va (yostiqdoshi bilan bog'liq) boshiga har neki sinov-sinoat tushsa ham, undan voz kechib o'ziga “qulay sharoit” yaratish haqida o'ylamaydi hatto. Bunday xayolga bormoqning o'zi sadoqatli ayol vijdonini kirlaydi go'yo.

Halima Xudoyberdiyevaning da'vat ruhidagi kuchli asarlaridan biri “Bolalarim, qadni ko'taring!” degan hayqiriq she'ridir. Ona-O'zbekiston 1991-yilda Milliy Istiqlolni qo'lga kiritdi: bundan toza tafakkurlilar, yurtparvarlar, tobelik aziyatini chekkanlar, elning Najmiddin Kubrosi, Jaloliddin Manguberdisi, Dukchi Eshoni, Abdulla Qodiriysi, Fitrat, Fayzulla Xo'jasi, Cho'lponi, Elbek-u Botusi qayg'usiga sherik bo'lganlar, Oybekning tili, Saida-yu Said Ahmadlarning, Shukrullo-yu Shayxzodalarning tinchini, navqiron yillarini yeb qo'ygan qora davr dahshatlarini anglab achinganlar sevindilar. Biroq yurt mustaqilligining yashab ketishiga ishonmay ikkilanganlar, uni yo'qotishga harakat qilganlar ham bo'ldi.

Shunday kezlarda shoira Halima Xudoyberdiyeva “Bolalarim, qadni ko'taring!” she'ri orqali ona-Turon timsolida xalq farzandlariga murojaat etadi (*Ulug' mamlakatni ko'taring!*), ularni g'aflatdan uyg'onishga, birlikka chorlaydi (*Har yurakda bir Turon minorlari tiklansin*), ularga kimliklarini eslatadi (*Temurlarim. Ishongan xoqonlarim, amirlarim*) va o'zidagi shijoatni, o't-olovlikni, arslonyuraklikni, yurtfidolikni sintaktik parallelizmlarning betakror namunalari orqali vatandoshlariga yuqtirishga kirishadi.

Tekinxo'r ataladingiz, bu xo'rlik meni yedi,

Mushtumzo‘r ataladingiz, bu zo‘rlik meni yedi.

Bu karlik meni yedi, bu ko‘rlik meni yedi,

Boshimdan tuhmatni ko‘taring!

She‘rda sintaktik parallelizmlar ta‘sirchanlikni kerak nuqtaga olib bora olgan:

Tekinxo‘r ataladingiz – Mushtumzo‘r ataladingiz;

Bu xo‘rlik meni yedi – Bu zo‘rlik meni yedi;

Bu karlik meni yedi– Bu ko‘rlik meni yedi.

(Tahlillar davomida beminnat oila bekasi, sadoqatli jufti halol, mehribon ona, adolatli qaynona, muhabbati daryo buvijonlikdan ortib yurt qayg‘usiga nafaqat sherik, zarur bo‘lsa, jon berishga tayyor shoir Halima Xudoyberdiyeva nomi hamisha e‘tiborga va e‘tirofqa loyiqligini dil-dildan his etamiz.)

Emotsional gaplar. So‘zlovchining o‘ta xursandlik yoki o‘ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi. Emotsional gaplar tarkibida maxsus ijobiy va salbiy bo‘yoqdor so‘zlar (*chehra, o‘ktam, nozik, tabassum qilmoq/turq, qo‘pol, ramaqijon, irshaymoq* kabi) mavjud bo‘ladi. O‘sha so‘zlar orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan sevinish, qo‘rquv, g‘azab kabi psixologik jarayonlarni hamda ijodkorning tasvir obyektiga nisbatan subyektiv munosabatini bilib olamiz. Emotsional gaplar tarkibida ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdor so‘z va iboralar, his-tuyg‘u ifodalovchi undovlar (*oh, voy sho‘rim, eh attang, bay-bay-bay* kabi), munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning ekspressivligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shoir Halima Xudoyberdiyeva she‘rlarida his-tuyg‘u ifodalovchi undovlarga kamroq murojaat etadi. Ularning o‘rnida undalmalarni, to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat shakllarini ko‘proq qo‘llaydi. Masalan, ***Vatan! Sening yigirma million Daryoyingni urush quritdi. Oqdi shuncha daryolarda qon, Shuncha dardni yuraging yutdi.*** (“Vatan” she‘ridan)

Onaginam! Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol, Qayon borsang, shaylanishlar va sozlashlar tor, Olcha gulin ko‘zlaringga surtasan behol “Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”. (“Dorilamon kunlar keldi” she‘ridan)

O, mening qattiq jonim! Ishonamanki, Sen chidab berasan bu talablarga jim. (“Yuragimda barglar shiviri” she’ridan)

Otaginam! Siz ketdingiz, qoldi ketmon-u, paxta, Paymonangiz shuncha erta to’lishini bilmabman. (“Oq olmalar pishganda” she’ridan)

Begim! Sizni xudoyim raso qilib yaratgan, Kimlarnidir o’ychan-u, Sizni kulib yaratgan. (“Begim, sizni xudoyim” she’ridan)

Bolakayim, bolakayim, Durkungina bolakay. Chal, menga bolalik nayin Bir kungina, bolakay. (“Bolakay” she’ridan)

Sizni sog’inyapman ko‘zim qaroqlari, Hamqishloqlarim! Sizga sig’inyapman ko‘nglim chiroqlari, Hamqishloqlarim. Siz ketmasin desangiz meni Tog’ misol nurab Qaroqlarim, Tortmangiz xira! (“Hamqishloqlarim” she’ridan)

Ijodkor asarlarining hech biri “she’rnng joni bo’lgan” emotsional o’rinlardan xoli emas.

Ritorik so‘roq gaplar ham badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta’minlovchi uslubiy vositalardan hisoblanishi sir emas. Tasdiq va inkor mazmuniga ega bo’lgan, tinglovchidan javob talab qilmaydigan gaplar ritorik so‘roq gap deyiladi. Ba’zan ritorik so‘roq gaplar tarkibida nahotki, axir so‘zlari keladi. Ular nutqqa ko‘tariki ruh bag‘ishlaydi va tasdiqning kuchli emotsiya bilan ta’kidlanishi uchun xizmat qiladi. Bunday gap shakllari qahramonning hayratlanishini, quvonchini, ajablanishini, shubha va gumonsirashini, g‘azab va nafratini ifodalashda juda qo‘l keladi. Ichki va tashqi nutqda, monologik va dialogik nutqlarda keng qo‘llaniladi.

Hovlingizda yotsa kimdir jon talashib, Siz uning og‘ziga suv tomizgan damlar, Men kuylay beraymi o‘z uyimda qo‘shiq? Oqibat, oqibat shumi, ey odamlar! (“Oqibat” she’ridan)

Payt poylamay, shodmon keling, tortib qo‘shin – Xolis keling bag‘rin ochib kutmasmi, xalq. Bir qushchaga zavol bo‘lmay safga qo‘shing, Soyangizga salom berib o‘tmasmi xalq... (“Burgutlarim” she’ridan)

Mazkur ritorik so‘roqli misralarda: “Halol bo’ling, tanti bo’ling. Shundagina xalq sizni hurmat qiladi, el orasida e’tibor topasiz”, deya uqtiradi shoira.

“Ayriliqning azoblari, shuncha talxmi, taxirmi...”,

“Kumush, ko‘zlaring qayta yumilmasa bo‘lmasmi, Shunday sarv tuproqqa ko‘milmasa bo‘lmasmi?!”,

“G‘alaba! Bul qadar chiroyli siymo! Uning ta‘rifiga bormi loyiq so‘z?”,

“Axir ona, Siz bilan o‘tgan Har bir kunim emasmi bayram”,

“Dunyo sen qildingmi qasddan, Ko‘p yiqitding baland, pastdan” kabi misralar ham shoira ijodidagi ritorik so‘roqlarning o‘ziga xos namunalaridir.

Ritorik so‘roqlar ta‘sirchanlikni oshiribgina qolmasdan, ijodkor muddaosini o‘quvchiga tez va oson yetkazib berishga ham xizmat qiladi.

Inversiya deb gap bo‘laklarining o‘rin almashinishi, yoki gap bo‘laklari joylashish tartibining ma‘lum bir maqsad bilan o‘zgarishi hodisasiga aytiladi. Inversiya, odatda, og‘zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi. Ayniqsa, she‘riyatda ifodalilikni, ohangdorlikni va ta‘sirchanlikni ta‘minlovchi muhim uslubiy vosita sifatida ko‘p ishlatiladi. Masalan,

Vatan jim turadi, ammo u haqda

Tog‘dan tushib kelgan tosh so‘z aytadi.

Bir sadolar kelar jim-jim kurtakdan,

Osmondan kelgan quyosh so‘z aytadi.

Vatan jim turadi, bayrog‘i yonib

Boshidagi tug‘i aytadi so‘zni.

Moziylardan kelib – chir-chir aylanib,

Momomning urchug‘i aytadi so‘zni.

Vatan jim turadi. Sabolarining

Naylarga qo‘shilib bo‘zlari ko‘pdir.

Saraton. Dashtdagi bobolarimning

Pastak chaylalarin so‘zlari ko‘pdir.

Vatan jim turadi...

Ijodkorning “Tog‘lardagi jayronidir O‘zbekning”, “Izlang meni”, “Men qalbinga aylanman savol”, “Baxt keladi bizlarni izlab”, “O‘chgan o‘tni yondirma qayta”, “Umr oti chopag‘on juda”, “Seni kimlar qilmaydi talash” kabi o‘nlab she‘rlari sarlavhalarida ham inversiya hodisasini kuzatishimiz mumkin.

Ellipsis (yun. elleipsis – tushish, tushirilish) deb nutqiy aloqa jarayonida gap bo‘laklarining muayyan maqsad bilan tushirilishi hodisasiga aytiladi. Bunday tushirilish tildagi lingvistik iqtisod – lisoniy tejamkorlik tamoyili asosida amalga oshiriladi⁵¹. Masalan,

1) *Inson aslan buyuk, aslan bechora...* (Misraning “Inson aslan buyuk” qismiga nisbatan olinganda uning “aslan bechora” qismida *inson* so‘zi ellipsisga uchragan.);

2) *Siz topmishim, yo‘qotmishimmas, (Siz topmishim, siz yo‘qotmishimmas)*

Sor lochinim, ojiz qushimmas. (Siz sor lochinim, siz ojiz qushimmas)

Siz dunyoda rost deb tutganim –

Tutolmagan yolg‘on tushimmas. (Siz tutolmagan yolg‘on tushimmas)

Bandning to‘rt o‘rnida *sen* olmoshi o‘rnida hurmat, ardoq, o‘zbek ayoliga xos andisha yuzasidan qo‘llanilgan *siz* so‘zi ellipsisini kuzatamiz.

3) *O‘z dunyom ichida bog‘lar yaratdim,*

So‘lib bitdilar. (Bog‘lar so‘lib bitdilar)

Tafakkur kuchidan tog‘lar yaratdim.

Nurab ketdilar. (Tog‘lar nurab ketdilar)

Demak, bu misolda bandning juft misralarida “**bog‘lar**”, “**tog‘lar**” so‘zlarii ellipsisga uchragan. Bu jonli nutq uchun tabiiy hol bo‘lib, badiiy matnda ham huddi shu – jonli nutqqa xos tabiiylikni ta‘minlash maqsadi bilan hamda vazn talabiga ko‘ra olib kirilgan. Badiiy matndagi ellipsis tekshirilganda, qaysi gap bo‘lagi ellipsisga uchraganligi va bundan qanday maqsad kuzatilganligi izohlanadi.

Gradatsiya (lot. gradatio – zinapoya, bosqichma-bosqich kuchaytirish)– nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma‘nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg‘u va kechinmalarni

⁵¹ Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.—Тошкент: Фан, 2006.

qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to'liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko'ra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga ko'ra: ko'tariluvchi gradatsiya (klimaks) va pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks); ifoda usuliga ko'ra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga ko'ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya⁵².

Halima Xudoyberdiyevaning "Turon" she'ri boshdan oxir ko'tariluvchi (klimaks) gradatsiyaga asoslangan:

O'ngimda ruhimga o'q otgan fikr,

Ko'nghimga bir yorug' cho'g' otgan fikr.

Uyqumda qonimni uyg'otgan fikr:

"Turklikning muqaddas o'chog'i Turon".

Moziyi har otar tongni emizgan,

Har tig'li aqlni, ongni emizgan.

Bo'ri, tulkimas, arslonni emizgan –

Turklikning ko'kragi, bulog'i Turon.

Ko'kiga turnalar "qur-qur"lab botgan,

Otganda kamoni bexato otgan.

Temurday xoqonlar qirqirlab yotgan,

Turklikning beshigi, quchog'i Turon.

Keyin... orqadan yov toshlari yetgach,

Sara keksalari, yoshlari ketgach,

Tarqoq arslonlarin boshlari ketgach,

Yerning tutab yotgan qir, tog'i Turon.

Boy-boy bobolarim boyib, yiqildi,

O'z qoniga o'zi toyib yiqildi.

Bir-biroviga bosh qo'yib yiqildi

Ko'nghimning kuyigi, dard, dog'i Turon.

Shukur, xun uyg'otdi qaytadan qonni,

Arslon bolalari qaytadan yondi.

⁵² Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.док... дисс.автореф. – Тошкент, 2009.

Yovlar ololmagay endi Turonni

Bugun, tik arslonlarning tog'i Turon!

Antiteza (antithesis – qarama-qarshi qo'yish, zidlash) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo'yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun asosan, badiiy nutqda zid ma'noli qo'shimchalar, zidlovchi bog'lovchilar, so'z va iboralardan foydalaniladi. "Zidlashda voqea, hodisa, belgilarni o'zaro zid qo'yib shulardan birining belgisi alohida ta'kidlanadi. Zidlash hodisasi ham ikki komponentdan iborat bo'ladi va keyingi komponentdan anglashilgan mazmun ta'kidlanadi. Demak, zidlashda ikki qism mavjud: zidlovchi qism va zidlash asosida ta'kidlanuvchi qism⁵³".

Zidlash, asosan, bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gap shakllarida kuzatiladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko'zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Ijodkorning mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko'rinadi. Masalan,

*Vatan **jim turadi**, ammo u haqda*

Tog'dan tushib kelgan tosh so'z aytadi.

*Vatan **jim turadi**, bayrog'i yonib*

Boshidagi tug'i aytadi so'zni. ("Vatan jim turadi" she'ridan)

Kutdirding, yomon kutdirding,

Hijron azobini shavq-la yutdirding.

***Yiqildim.** Boshimda **ustuvor turding**,*

Endi ket! ("Endi ket" she'ridan)

Men sen bilan xayrlashgan tun qaro edi, qaro edi,

*Tun **bag'ri but**, mening **bag'rim yaro** edi, yaro edi.*

Tun bag'rida qolsin derdim, ko'rmasinlar, ko'rmasinlar,

*Ko'rib birov **rost-u birov ro'yo** tomon burmasinlar.*

⁵³ Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.

(“Men sen bilan xayrlashgan tun” she’ridan)

Zidlanishni yuzaga keltirayotgan birliklar (*jim turadi – so‘z aytadi; yiqilmoq – ustuvor turmoq; bag‘ri but – bag‘ri yaro; rost – ro‘yo*) xiazmatik konstruksiya shaklida kelib kontrastlikni yanada bo‘rttirib ifodalashga xizmat qilgan.

O‘xshatish deb “ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalash”ga aytiladi⁵⁴. O‘xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta‘minlashda foydalanib kelinadi. Adabiyotlarda har qanday o‘xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, quyidagi unsurlar nazarda tutiladi: 1) o‘xshatish subyekti; 2) o‘xshatish etaloni; 3) o‘xshatish asosi; 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichlari; 5) o‘xshatish maqsadi. Masalan,

Nurli tong oqarar, tun bo‘lar oxir, Senga tilaklarim shu tong kabi oq. Qiziq, goh baxting ham men uchun o g‘ir, Baxtsizliging esa, yana og‘irroq! (“Taqqir ulaganda” she’ridan)

Ushbu misralarda o‘xshatish subyekti: *oshiq*; o‘xshatish etaloni: *tilak*; o‘xshatish asosi: *oq tong*; o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi: *kabi*; o‘xshatish maqsadi: *oshiqning munosabati samimiy ekanligini bildirish*.

“*Talpinib non kabi o‘pardim Ismingni yangratgan havoni*”, “*Garchand aqli yoritsa ham yarim ro‘yi jahonni Yoqolmasdan o‘tgan axir o‘z kulbasin chirog‘in*”, “*Men bag‘rim yoqib bo‘ldim, sel kabi oqib bo‘ldim...*”, “*Men ko‘z tiksam– mening kabi erta enkaygan, Mening kabi munkaygan daraxt ko‘rinadi*”, “*So‘nmas quyosh singari yonib – Bir-birovga O‘zingga ishonganday inonib*”, “*Boshimga ko‘tardim tojim misoli, Biroq tushunmadim, kimsan, nimasan?*”, “*Daryo yanglig‘ oldga chopaman Yoyib tashlab qirq kokilimni*”, “*Bir qadam oldinga o‘t, To‘marisdek Yov boshini qonli xumga botirib*” kabilarda ham go‘zal o‘xshatishlarni kuzatamiz.

She’riyat nafis tuyg‘ular ifodasidir. Bu turning qanchalar nafis, chiroyli tug‘ilishi shoir mahoratiga bog‘liq. Mahorat juda zarur, lekin u she’r bilan birga bir

⁵⁴ Zohidova S. Sirojiddin Sayyid asarlari lingvopoetik tadqiqi. MD.–AndijonDU, 2014.–66 b.

butunlikda tug'ilishi, tabiiy nutqni buzmasligi zarur. She'riy musiqa, tovushlar ohangdoshligi badiiy zaiflikni yashirishga emas, balki she'rdagi shakl va mazmun uyg'unligi hamda musiqiyligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Mahorat va iste'dod bir-birini to'ldirib kelishi taqozosi she'riyatning bosh talablaridan biridirki, Halima Xudoyberdiyeva she'riyati ularga "labbay" deb javob beradi, deb aytishga to'la haqlimiz.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Shoir Halima Xudoyberdiyeva she'rlarining har bir misrasida ona yurtga, qadim Turonga, Turonzaminda yashab o'tgan buyuk ajdodlarga, yurtodoshlariga bo'lgan kuchli muhabbat ufurib turadi. Shoiraning lirik qahramoni "Turon, seni sevaman!" deb hayqirmaydi; balandparvoz so'zlarni aytmaydi. Ammo u ona yurtini "ota Turonim", "hoqonim Turon", "arslonlarning tog'i Turon" deb biladi, o'z taqdirini uning kamolida, ravnaqida ko'radi.

2. Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida morfologik birliklarni estetik vazifa bajaruvchi unsurlar darajasiga ko'tara olgan.

3. Ijodkor she'rlarida badiiy uslub individualligini ta'minlashda sintaktik vositalardan ham mahorat bilan foydalana olgan. Sintaktik parallelism, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, o'xshatish kabilar shular jumlasidandir. Sanalgan sintaktik vositalar she'riy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga ma'noni kuchaytirishga, fikrning batafsil, atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog'liq ma'lumotlar fondining kengayib borishiga yetarlicha xizmat qilgan.

III BOB.

SHOIRA HALIMA XUDOYBERDIYEVANING TIL GRAMMATIK IMKONIYATLARDAN FOYDALANA OLIISH SAN'ATI

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish ko'rsatadiki, shoira o'z she'rlarida lisoniy vositalardan mohirona foydalangan va o'ziga xos, original, ta'sirchan uslub yarata olgan. Bu, xususan, uning she'rlari tilida yaqqol ko'zga tashlanadi, shu sababli Halima Xudoyberdiyevani o'zbek adabiy tilini, jumladan, poetik nutqni boyitishda muayyan iz qoldirgan shoira sifatida bilish va baholash muhimdir.

3.1. Shoiraning badiiylilikni ta'minlash

uchun lug'aviy shakl vositalaridan oqilona foydalana olishi

Son kategoriyasidan foydalanish. O'zbek tili grammatikasida son otning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida qaraladi. O'zbek tilida birlikni ko'rsatuvchi affiks mavjud emas. Otlarda ko'plikni ifoda etuvchi asosiy shakl -lar qo'shimchasi hisoblanadi. Demak, -lar va nol shakl – hozirgi o'zbek tilida miqdor anglatuvchi grammatik ko'rsatkich. Bu ular sof miqdor anglatadi, degani emas, albatta. Miqdor belgisi bu shakllarda kategorial ma'no bo'lsa, unda sifatiy yondosh va boshqa hamroh ma'no ham mavjud*. Bilamizki, ko'plik ma'nosini (-lar) morfologik shaklisiz ham ifoda eta oladigan *xalq, ulus, el, elat, olomon, guruh, to'da, armiya, batalion, rota, poda, otar, uyur, gala* kabi bir qator otlar bor.

Halima Xudoyberdiyeva birgina "Buyuk qushlar" she'riy to'plamining – 63 o'rnida *xalq*, masalan, *Yelkam xalqim yelkasiga tegib turmog'i uchun, Boshim xalqim ko'lkasiga egib turmog'im uchun, Unga qarshi nima kelsa yengib turmog'im uchun, Mendan qay ish lozim bo'lsa, Barchasiga tayyorman!* ("Unutmang" she'ridan) kabi;

5 o'rinda *olomon*, masalan, *Senga ergashgan olomon xalqqa aylansa, Ko'ksingdan uzib, O'z dilingni – bayroqni ko'tar* kabi;

* Grammatik jihatdan ko'plik ma'nosini, odatda, so'z birikmasi yoki gap tarkibida kelgan otlar oldidan sonlarni hisob so'zlari bilan keltirish (*besht nafar bola, olti dona qalam*), turdosh otlar oldidan takroriy birliklarni ishlatish (*savat-savat olma, qop-qop shakar*) yoki otlar oldidan daraja-miqdor sifatlarini ishlatish (*ko'p odam, bisyor mehmon*) orqali ham hosil qilish mumkin.

3 o'rinda poda, masalan, *Ayol, bolalarni podaday haydab Bir saroyga qamab fashist o't qo'ydi* ("Xato takrorlanmas" she'ridan) kabi jamlovchi otlardan foydalangan.

Shoira ko'plikni ifoda etuvchi vositalar orasidan ko'p hollarda –lar qo'shimchasiga murojaat etar ekan, uni ko'proq ko'plikdan boshqa turli emotsional-ekspressiv ma'nolarni ifodalashda ham ishlatadi. Masalan,

1) juftlik ma'nosida: *Bobolar bir vaqtlar tovuq pati-la Qiynalib-qiynalib yozgan so'zlarin. Men bugun o'qiyman, tarovatiga To'ymayman, o'qiyman, tinmas ko'zlarim.* ("Bobolar bir vaqtlar" she'ridan);

2) umumlashtirish ma'nosida: *Baxt keladi bizlarni izlab, Boqamiz biz beparvo, loqayd. Kunlar o'tar, u mumkin bo'zlab Tashlab ketar bizlarni bir payt.* ("Baxt" she'ridan);

3) kuchaytiruv ma'nosida: *Ufqlarda quyosh Hech gap bo'lmaganday qip-qizarib botar* ("O'zimizning bog'lar" she'ridan);

4) jamlik ma'nosida: *Xazonrez xayollar bosgan chog'larda, Men tinib, Voz kechib o'ylar-u tashvishdan Qachondir bog'larda g'arq pishgan Qip-qizil olmalarni eslayman.* ("O'zimizning bog'lar" she'ridan);

5) ta'kid ma'nosida: *Yuraklar, u yurakmas, dugonajon, asrangin, Uchqun tushsa kuydirar, unda yongan o'tlardan.* ("Yigit qadam tashlarkan" she'ridan);

6) tur ma'nosida: *Ko'katlar unmaydir unda so'ng, Fig'onlar tinmaydir unda so'ng.* ("Bo'shatilgan ot" she'ridan)

7) xil ma'nosida: *To'dalarni yorib, yonib o't, Tanbal otlar ketsinlar cho'chib* ("Bo'shatilgan ot" she'ridan) va h.

–lar ko'plik shakli otdan tashqari turkum so'zlariga ham qo'shila oladi va turli ma'no ottenkalarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Masalan,

1) kesatiq, achchiqlanish ma'nosi: *Qodiriyning qonlarini obdon ichib to'ydilar, Hanuz bilimam men Usmonni otdilarmi, so'ydilar. Nasimiyning terisini shilib, ko'zin o'ydilar, Endi bildim, nechun sening ko'zing kulmas, og'ajon, Ko'zlaringda "Xalqim" degan sezim kulmas, og'ajon.* ("A.Oripovga" she'ridan)

2) noaniqlik, mavhumlik ma'nosi: *Tunlari nimalarni shivirlaydi daraxtlar, Gurunqlarin ohangi o'xshab ketar armonga.* ("Bir vaqtlar" she'ridan)

3) davomiy ruhiy tushkun holat ma'nosi: *Siz yashashni bilasiz qandoq Sizga dala-dala, tuzdir, tuz – Netay, mening toqatlarim toq, Yuragimda yig'layversa kuz.* ("To'zim bersin yashashim uchun" she'ridan)

Bu sirani yana davom ettirish mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'z tarkibidagi –lar qo'shimchasining imkoniyatlaridan foydalanib, ijodkor turlicha stilistik ottenkalarni ifodalashga muvaffaq bo'lgan.

Qiyosiy daraja shakli. Sifatning qiyosiy va orttirma darajalari morfologik, leksik, ba'zi hollarda esa fonetik usulda hosil bo'ladi⁵⁵.

Morfologik va leksik vositalar yordamida yuzaga kelgan sifatning qiyosiy darajasida uning asosiy ma'nosidagi kamlik yoki ko'plik belgilari ifoda etiladi. Narsa va hodisalardagi belgining ortiqligi yoki kamligini ifodalash uchun xizmat qiladigan -roq affiksi Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida boshqa leksik vositalarga nisbatan ko'proq qo'llanilganligini kuzatamiz. Masalan,

Qiziq, goh baxting ham men uchun og'ir,

Baxtsizliging esa, yana og'arroq! ("Taqdir ulaganda" she'ridan)

Eshkak tort, qulochni kengroq yoz,

Eshkakchim, mardim, biz yuldamiz.

Qo'rqma, goh qiynalib qolsa jon

Shamollar madorni ketkazib.

Bolakay, borarmiz ikkovlon,

Qayiqni ufqqa yetkazib. ("Bolakay" she'ridan)

Va achchiqma-achchiq turib, baxtga qarshi, baxtki barbod,

Baxtlilardan shiddatliroq kuylarman shod, kuylarman shod.

Aminmanki, avjim bilan shu birinchi davridayoq,

O'zimga tong yaratarman, tongim mening otar oppoq.

⁵⁵ Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. –Т.: Фан, 1988.; Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. (Лексикология ва фразеология.Лексикография.) –Т., 2004.

(“Men sen bilan xayrlashgan tun” she’ridan)

“*Muhabbatning xazon libosin kiyib, Boli qolib, ko‘proq zahrin totganim. Sezilmasmish...*”, “*Shundan bobo o‘rtacharoq bizlarda toqat*”, “*Batafsilroq yozsang ular sig‘maydi she‘rga*”, “*Otamdan uzmagani qarzim, garchand yelkamdagi yuk, Bolakaydan qarzlari ham og‘irroqdir bu yukdan*”, “*Saqalay olsaydim shu qushni uzoqroq omon*”, Ketar bo‘lsam men *oldinroq* ketayin, biroq *Do‘stlarimning qora kunin ko‘rsatma taqdir*” kabi misralarda ham shoiraning qiyosiy darajaning morfologik shaklidan, ba‘zan achinish, ba‘zan kesatish, ba‘zan (kichiklar-u keksalarni) ayash ma‘nolarini singdirib qo‘llaganligiga guvoh bo‘lamiz.

“Kechagi kun” she’rida qiyosiy daraja qo‘shimchasi (vazn talabiga ko‘ra) o‘zgacharoq tarzda ifodalanadi: *Bu tungi oy ortiq ma‘yus, Kunduz quyosh ortiq sho‘x. Gullari ham boshqaroq tus– Kechagiday tortmas, yo‘q.*

Bilamizki, odatiy nutqda boshqacharoq, o‘zgacharoq shakllari qo‘llaniladi. Shoir boshqaroq so‘zini, fikrimizcha, vazn talabiga muvofiq (8+7) boshqaroq tarzida ishlatadiki, uning atrofidagi boshqa so‘zlar nutqiy kamchilikni sezdirmay, buni tabiiy holdek chiqishini ta‘minlab bera olgan.

Ijodkor bir she’rida: “*Nomard, qayga uchding sen qushday, Ishq gul ochmay qoldimi so‘lib. Visol bazmin quramiz tushda, O‘ngdagidan inoqroq bo‘lib*”, deb yozar ekan, agar band tarkibidan -roq shaklini olib tashlasak, undagi achchiq kesatish, yashirin anduh ruhi yo‘qoladi.

Yoki shoir “Keksa daraxtning aytganlari” she’rining biror o‘rnida men keksa daraxtman, demaydi. Ammo she’rdagi ushbu o‘rin –

Men haqimda mendan yoshroq daraxtlar balki –

Bir kun sening qulog‘ingga shunday shivirlar:

“U oy, quyosh bilan inoq yashadi balqib,

Novda, yaprog‘ida doim o‘ynadi nurlar”,

“Keksa daraxtning aytganlari” shakli “Mening aytganlarim” tarzida qabul qilinishini ta‘minlaydi va “*mendan yoshroq daraxtlar*” qismidan -roq shaklini olib

tashlasak (aytaylik, uning o'rnida leksik usulni ishlatsak), butun boshli she'r mantig'iga putur yetadi.

Bo'lib qoldi bari bir tugun, Tushmay sening oq qor yo'liga. G'amnokroqman undan-da bugun, Tushunmayin jilg'a tiliga. Men qor bilan xayrlashdim bugun...

Holat ifodalovchi g'amgin sifatining odatiy *g'amginroqman* shakliga nisbatan *g'amnokroqman* ko'rinishi misrada lirik qahramonning aftoda ruhiyatini yorqinroq ifodalashga xizmat qilgan.

Ijodkor orttirma daraja sifatlaridan, odatda, isyonkor ruhni, arosat tuyg'ular ifodasini berishda foydalanadi. Chunonchi, lirik qahramon tuyg'ularini bog'lab kelgan tomon oppoq (qor misoli), ammo sovuq, hech iliqligi yo'q (qor yanglig'). Qaynoq mehr sovuq qor bilan duchlashaverdi, duchlashaverdi, biroq hech "*oq qor yo'liga*" tusholmadi. Lirik qahramonga "sovuq qor"dan kechib "quvnoq jilg'a" tiliga tushunmoq ham endi og'ir...juda og'ir. Endi munosabatlar "*Bo'lib qoldi bari bir tugun*". Lirik qahramonning ruhi arosatda. U qormehr bilan kun o'tkazmoqdan g'amnok, lekin undan kechmoq yana "g'amnokroq".

Shoira vaziyatni tugun holatida qoldirmaydi. Uning qalbi huvillagan lirik qahramoni o'ta ojiz emas; u ich-ichidan o'ziga kuch topadi va "*Men qor bilan xayrlashdim bugun...*", deya oladi.

Umuman olganda, sifatning daraja kategoriyasi lirik qahramonning eng intim holatlarini ifodalashda ham yetarli vosita sifatida xizmat qila olishi shoira Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida yaqqolroq seziladi.

Subyektiv baho shakllari. Subyektiv baho ifodalashning morfologik usuli o'zbek tilida birmuncha mahsuldor ekanligi ma'lum. Bu munosabatni ifodalashga xizmat qiluvchi affikslar sifat, son kabi so'z turkumlariga ham qo'shilsa-da, asosan, otlarga xos xususiyat sanaladi. Otlarda kichraytirish-erkalash paradigmasi *-cha, -gina, -(a)loq, -jon, -xon* kabi shakllaridan iborat bo'lib, ular turli ma'nolarni ifodalaydi. Quyida ijodkor H.Xudoyberdiyevaning o'z she'rlarida subyektiv baho shakllaridan qay darajada foydalana olganligi haqida mulohaza yuritamiz.

-cha shakl yasovchi affiks sifatida, odatda, jonli va jonsiz predmetning kichik ekanligini (*dugonacha, qalamcha*); erkalash ma'nosini (o'g'il**cha**, qiz**cha**); kamsitish ma'nosini (*savdogarcha, odamcha*) ifodalaydi. Shoiralarida:

a) kichraytirish va erkalash ma'nosini ifodalaydi. Masalan,

Onajon... Biyron qizcha edim, senga sal o'xshash, U vaqtlari tutqich bermasdim senga. Tengdosh o'rtoqlarim o'ylardim yakkash, Ular kirar edi har vaqt tushimga. ("Tushimga kiribsan" she'ridan)

Aqiqachaday bir shaharcha bag'riga oldi – Chiroqlari ming yillardan so'zladi doston. ("Armaniston" she'ridan)

Kim, men qushcha misol talpingan damim, Qarg'aday xo'mrayib tashladi nazar. Bu kun ularda bor o'chim, alamim, Bu kun men ulardan qilarman hazar. ("Siz bilan minnatdor xayrlashaman" she'ridan)

Bir kemaday Dayr dengizini Tinchin buzib suzib ketaman. Baliqchaday sezib o'zimni, To'lqinlarni quvib yetaman. ("Xayr deymen" she'ridan)

b) kichraytirish ma'nosini ifodalaydi: *Alvido, yor, to'kilmoqda toqat degan jom, Ketmoq ishqiy kuydirmoqda o't bo'lib mani, Alvido, yor, ko'ksingizdan uchiring tamom, Bog'ingizga yanglish qo'nib, uchgan qushchani.* ("Alvido, yor" she'ridan)

U singlisini yotqizib tongda chanaga, Shoshilgandi, bog'chagamas, uni ko'mgani. Yo'l portladi, o'zin urdi bombapanaga, Singilchasin murdasini qaytib ko'rmadi... ("Qamal qishida" she'ridan)

[-chak/-choq] shakl yasovchi affiks sifatida:

Yuzy qizg'ish, olcha gullari tusida, Hurkak ko'zlarida iymonish, hadik. Kelinchak yuradi qaynота ko'ziga, Qaynona ko'ziga qaray olmay tik. ("Hamqishloqlarim" she'ridan)

Kelinchak to'ng'ichin suyar yashirib, Qaynota, qaynona, begonalardan. Quvonch kelsa hamki ko'nglin toshirib, Farzandga beparvo ko'z tashlar qaydam. ("Kitoblarim" she'ridan)

*To'ng'ich kitoblarim, bolakaylar, sho'x, Chuldiramang: "o'zing bizga nazar sol". Kim aytadi sizga muhabbatim yo'q, Men ham uyalaman **kelinchak** misol.* ("Kitoblarim" she'ridan)

Yuqoridagi 3ta misolda ham -chak affiksi bilan shakl yasagan bir xildagi so'z ishlatiyapti. Birinchi misolda o'zbek kelinlariga xos "*iymanish, hadik*" bilan hatto "*qaynota, qaynona ko'ziga tik qaray olmay*" uzatilgan xonadoniga endigina ko'nikayotgan (ohorli atlas-u adras libosda, boshida do'ppi – milliy libosdagi) yangi kelin tasviri ifodalangan bo'lib, unda **kelinchak** so'zi "*bu xonadonga yangigina tushgan*" ma'nosini voqelantiryapti. Ikkinchi misolda "**Kelinchak** *to'ng'ichin suyar yashirib*" misrasi kelinchak bir necha farzandli (to'ng'ichi bormi, demak, kichigi ham bor, albatta) degan ma'noni beradiki, keyingi misralarning mag'zi ko'z o'ngimizda "bolalari yosh, o'zi yelib-yugurib qaynota, qaynona, ro'zg'orining xizmatini qilib yurgan, iboli" (*Quvonch kelsa hamki ko'nglin toshirib, Farzandga beparvo ko'z tashlar qay dam*) ayol tasvirini chizadi. Shu o'rinda **kelinchak** so'zi "*farzandlari bor, tarovatli yosh ayol*" ma'nosini beradi.

Uchinchi misolda ham **kelinchak** so'zi ishlatilgan. Bu o'rinda endi ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topgan, bir necha kitoblari chop etilgan o'rta yashar ijodkor ayol ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Faqat bu ayol "birovlar oldida o'z farzandini-da suyib erkalashdan iymajib, uyalib turgan" kelinchak misol andishali. U o'z kitoblarini "qo'ltiqlab yurib birovlariga ko'z-ko'z qilish"ni o'ziga ep ko'rmaydi. Demak, bu yerda **kelinchak** so'zi "*katta yoshli, aqlli, andishali o'zbek ayoli*" ma'nosini bermoqda.

Har uchala misolda ham **kelinchak** so'zi mantiqan andishali degan ma'noni yuzaga chiqarishga xizmat qila olganligi bilan umumiylik hosil qilgan va ularda erkalash ma'nosi ham qavatlangan.

* O'zbekona odatlarimizning eng chiroylilaridan biri – o'zbek ayolining oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilar, qavm-qarindoshlar, umuman, birovlar oldida farzandini oshkora "ko'z-ko'z qilib" erkalamasligi yoki, aytaylik, turmush o'rtog'i uzoq safardan qaytgan bo'lsa-da, o'zgalar oldida, hatto farzandlari yonida ham (xuddi ertalab ishga ketgan yostiqdoshini tshlikda kutib olayotgani kabi hissiyotlarini jilovlab) bo'yniga osilmasligi.

Bir **kelinchak** to‘rt oylik xasta chatsalog‘ini qaytib olmaslik sharti bilan kasalxonaga tashlab ketdi. “Eng toza meva” she‘ri izohida ishlatilgan **kelinchak** so‘zida erkalash ma‘nosi mutlaqo yo‘qoladi va uning o‘rnini ranjish, iddao egallaydi.

[-gina/-kina/-qina] shakl yasovchi affiks sifatida: Bu affiks shoira asarlarida, asosan, ot va sifatarga qo‘shilib, erkalash ottenkasini ifodalashga xizmat qilgan hamda boshqa subyektiv baho shakllariga nisbatan ko‘proq qo‘llanilgan. Ularning anglatgan ma‘nolari quyidagicha:

a) erkalatish ma‘nosini anglatadi: *Birgina sen, **boboginam**, quyoshim, birday Mehring bilan isitasan yaxshi-yomonni.* (“Bobo quyosh ” she‘ridan)

*O‘zbekiston, **boshginang**dan quyosh abad nur to‘kib, Dorilomon kunda yasha, bor ekansan toki San, Tongotarda tuprog‘ingga egilaman tiz bukib, Sen quyoshga qo‘li yetgan bobolarim xokisan.* (“O‘zbekiston” she‘ridan)

b) kichraytirish ma‘nosi: ***Belginangga** tirak bo‘lay, onajonim, tur, Dorilamon quyoshga boq, unga qasdma-qasd.* (“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor” she‘ridan)

*Kemangni burmagil, qistama, **Do‘stginam**, sen ortga qaytma, yo‘q. Men senga sarsonlik istamam, Boq, axir kemangda qancha yuk.* (“Kemalar tikkaga yo‘l olsin” she‘ridan)

d) erkalatish-kichraytirish ma‘nosini bildiradi: ***Onaginam!** Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol...Olcha gulin ko‘zlaringga surtasan behol “Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”. So‘lg‘in-so‘lg‘in lablaringdan ucharkan shu so‘z, **Otaginam** xayolimda rostlay boshlar qad..* (“Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor” she‘ridan)

*Qayta bir bor ko‘rsam edi, O‘sha shirin **tushginam**. Ko‘nglim seni olqishlaydi, **Qushginam**, hoy **qushginam**.* (“Bolakay” she‘ridan)

e) ba‘zan achinish-kichraytirish ma‘nosini ham ifodalanadi: ***Essizgina** umrov...*

f) ma'noni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi: *Tasodifdir va balki havas, Jilmayish-u boshing saragi. Ammo bilmaysanki, shu nafas Qo'lginamga tushar yuraging.* ("Bog'lab olgayman" she'ridan)

Bu (ma'noni ajratib ko'rsatishga xizmat qilish kabi) subyektiv ma'no *-gina* qo'shimchasining sonlarga yoki sonlar bilan birga qo'llaniladigan hisob so'zlarga qo'shilganida ko'proq seziladi:

Ko'klaringdan tushdim, chiqdim qa'ringdan, Ammo so'ramadim oltin, zaringdan. Xudo, mengayam bir donagina ber Pahlavonga bergan injularingdan. (To'rtliklaridan)

Qirq joyidan darz ketgan, qirq yamoq ko'nglim mening, Abad toza qo'nji yo'q, dog'-u dog' ko'nglim mening, Shu birgina dard bilan sog'-u sog' ko'nglim mening, Harki paymol yurakni yig'latadigan dardim. ("Yig'latadigan dardim" she'ridan)

[-jon] shakl yasovchi affiks sifatida: mazkur affiksoid shoira ijodida lug'aviy shakl affiksi sifatida subyektiv baho munosabatini ifodalovchi boshqa vositalarga nisbatan birmuncha mahsuldor qo'llangan. Bu affiks emotsional-ekspressiv o'ttenkani bera olishi bilan ajralib turadi.

-jon affiksoidi o'zining asosiy xususiyatidan kelib chiqib, shoira tomonidan, odatda, shaxslarga nisbatan qo'llanilgan.

Yuraklar, u yurakmas, dugonajon, asrangin, Uchqun tushsa kuydirar, unda yongan o'tlardan, Garchand biz deb hamisha baxt, borlig'in asradi, Hayiqmay bo'lmas axir, ul asov burgutlardan.. ("Yigit qadam tashlarkan" she'ridan)

*Beshik tebratolmay qolganda qo'lim,
O'g'lim, sen o'shanda men bilan tillash.
Bugun ikkimiz ham o'sish-u, gullash
Shavqi bilan mastmiz, uyg'on, bolajon,*

Onajoni jondan suygan bolajon. ("Uyg'on bolajon" she'ridan)

Hatto Mohlaroyimday oyim bebaxt, momojon, Ayting, kimga baxt bergan bu she'riy taxt, momojon.. ("Bu o't" she'ridan)

Ijodkor she'rlarida “*Sen ko'ksimda ishq eding, endi sen o'q, Bodomjon. Men uchun ham uvvos sol, yoshingni to'k, Bodomjon*”, “*Enajon*”, *deb bosh ur bolam, Boyovutga, Tilingdagi xotirani o'ldirmagil*” kabilar ham uchraydi.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida kishi otlariga qo'shilib, ma'lum stilistik ottenkalarni ifodalaydigan *-boy, -beka, -toy, -oy, -xon* kabi affiksoidlar ham uchraydi.

Yuqorida sanab o'tilgan subyektiv baho shakllaridan shoira o'z she'rlarida o'rinli foydalana olganligi uchun ham ijodkor she'rlarining mag'zi to'q, ta'sirchan va o'qimishli.

3.2. Ijodkorning sintaktik shakl vositalaridan poetik rang-baranglikni yaratish mahorati

Egalik kategoriyasi. O'zbek tilida egalik ma'nosini ifodalovchi *-(i)m, -(i)ng, -i (-si, -yi), -(i)miz, -(i)ngiz, -(lar)i* kabi maxsus affikslar mavjud. Shoir va yozuvchilar ma'lum stilistik maqsadlarni nazarda tutib, bir shaxsga tegishli affikslarni ikkinchisining o'rnida qo'llaydilar⁵⁶. Bunday holatni biz Halima Xudoyberdiyeva ijodida ham kuzatamiz. Shoira II shaxs birlik qo'shimchasini I shaxs birlik ma'nosida qo'llaydi. Bu bilan lirik qahramonning sodir bo'layotgan voqelikka betaraf munosabati beriladi. Ayni paytda berilayotgan fikrning alohida ta'kidlanishiga ham erishiladi.

Shoiraning ko'pgina she'rlarida har uchala shaxs qo'shimchalari qariyb baravar qo'llanilganligini kuzatamiz. Shunday she'rlardan biri “*Navoiyning qoni menda*” she'rini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Yashayapman goh g'ash, goho ko'ngil to'q, bolam,

Ko'kragimni kuydirar bir laxcha cho'g', bolam.

Borimni bor deyman senga, yo'g'im yo'q bolam,

Navoiyning qoni menda, tili menda yo'q.

Qandayin xush, chet tillarda sayraymiz bugun,

Bu jahonga chiqmoq yo'li – yayraymiz bugun,

Tilimizni qayroqtoshda qayraymiz bugun,

⁵⁶ Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т., 1991.

Navoiyning qoni menda, tili menda yo‘q.
Moziydagi bog‘larimiz gullatmadilar,
Borimizni oldi, qaytib to‘latmadilar,
Yetmish yillab asliyatga yo‘latmadilar,
Navoiyning qoni menda, tili menda yo‘q.

Topqir bolam, bobolaring zarin yo‘qotma,
Ne zar, “Lug‘atit-turk”lari, orin yo‘qotma,
Onangning shu chirqiragan zorin yo‘qotma,
Navoiyning qoni menda, tili menda yo‘q.

Bolajonlar, Siz oldinga o‘tib borgaysiz,
Turk tug‘ini Kubro yang‘lig‘ tutib borgaysiz.
Navoiyning tiliga ham yetib borgaysiz,
Navoiyning qoni menda, tili menda yo‘q.

Mazkur she‘rda ijodkor tomonidan faqat II shaxs ko‘plikdagi egalik shakli qo‘llanmagan, boshqa barcha egalik qo‘shimchalari o‘z o‘rnida ishlatilgan. Shuningdek, III shaxs birlikdagi -i qo‘shimchasini boshqa egalik qo‘shimchalariga nisbatan ko‘proq qo‘llanilgani e‘tiborni tortadi.

Halima Xudoyberdiyeva, avvalo, “*Navoiyning qoni menda*” she‘rida (boshqa ijod namunalarida bo‘lgani kabi) shakl va mazmun simmetriyasiga erisha olgan. Aslida, ijodkor “o‘zimning dardim”ni “o‘g‘limga aytyapman”i orqali butun jamiyatda ildiz otib ulgurgan, odamlar jiddiy qarashga “erinayotgan” “millat qayg‘usi”ni, “el dardi”ni so‘zlaydi. “*Navoiyning qoni menda, tili menda yo‘q*”. Demak, shakl-u shamoyilimizga ko‘ra shu millat vakillarimiz. Rasmiy davralarda, maqola-yu referatlarimizda, insho-yu bog‘lanishli matnlarimizda, ma‘ruzalarimiz, tabriklarimizda...boringki, bizga asqotadigan istalgan o‘rinda “Biz ulug‘ Navoiylar avlodi” ekanligimizni aytishga odatlanib qolganmiz. Biroq hazratning asarlariga tishimiz o‘tmaydi...(Aslida, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan XXI asr kishilari ajdodlar ruhi oldida bir qadar uyatlimiz.)

Shoira yana bir dolzarb muammoga urg‘u beradi: “O‘zga tillarni o‘rganish kishining o‘z ona tili(si) hisobiga bo‘lmog‘i katta xatodir”. “*Onangning shu*

chirqiragan zorin”. Nega chirqiragan zor?! Nega *chirqiragan zorni yo‘qotmaslik kerak*?!

Chirqirash – tinimsiz zorlanib, iltijo qilib, kuyinib yig‘lash. Qushning polaponlariga kushandasi yetganda ular chirqirab qoladi. Bolasini ilonga oldirib qo‘ygan ona qaldirg‘och chirqirab ini atrofida charx uradi. Turmush o‘rtog‘idan bevaqt ayrilib bir etak bolasi bilan qolgan oila chirqiraydi... Demak, shoiraning butun ruhiyati millat tili, ona tili uchun chirqirab turibdi... Zero, tilni asrash, avaylash, boyitish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazib berish uchun bugun har birimiz mas‘ulmiz.

Shoira “*Dardimni qo‘ymoqqa boshqa joyim yo‘q*” she’ri tarkibida I shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasini bir necha o‘rinda qo‘llash orqali go‘yo sokinlik va mayinlikni yuzaga keltirgandek bo‘ladi. Biroq bu sokinlik, shu mayinlikning ortida po‘rtanali dengiz shiddati yashirin.

Balli, ko‘zlarimdan dardimni uqding,

Ammo, ko‘zlarimga kelmagil kirib.

Dardimni qo‘ymoqqa boshqa joy yo‘qdir,

Ko‘zimga qo‘yaman yashirib.

Buncha sinchkov bo‘lma, buncha topong‘ich,

Ko‘zim daryosiga sho‘ng‘imagil, jim.

Axir bu dunyoda eng bexavf va tinch

Dard yashirar joyim – mening shu ko‘zim.

Murojaatlarda qo‘llaniladigan -(i)m affiksi tinglovchining tasvir obyektiga e’tiborini kuchaytirish bilan bip qatorda, so‘zlovchining obyektga munosabatini ham anglatadi: “Bahor, *yaratuvchim*, senga ming qulluq”, “kecha kuygan *qanotim*”, “o‘zimning yo‘lim”, jonim do‘stim”, “panohim”...

Shunisi ham xarakterliki, shoira ba’zi hollarda egalik qo‘shimchalari takroridan foydalanib o‘quvchida g‘ururlanish tyg‘usini uyg‘otadi. Chunonchi, *Ozod quyosh o‘par toshlarimizni, Qabrimiz, sabrimiz, So‘zimiz ozod. Erk deb shart kesilgan boshlarimiz-u, Erk deb oqib tushgan ko‘zimiz ozod.* (“Ulug‘ kun” she’ridan)

Ta'kidlaymizki, egalik ma'nosini qaratqich kelishigi vositasida berish o'zbek adabiyotida birmuncha an'anaviy hisoblanadi. Buni Halima Xudoyberdiyeva ijodida ham ko'rishimiz mumkin: *bizning yurak, bizning sog'inch, bizning zamon* va shu kabilar.

Ba'zi o'rinlarda shoira ham qaratqichni, ham egalik shaklini baravar (qavatlab) qo'llaydiki, bu holat misraning ta'sir kuchini mustahkamlaydi. Bu shoiraning Muhammad Yusuf vafotiga bag'ishlangan she'rida yaqqol seziladi: *So'zlarini suyib olmasdan, Bag'rimizga o'yib olmasdan. Ko'zlariga to'yib olmasdan, Ketdi bizning Muhammadimiz.*

Bir arsloni o'tdi o'zbekning, Ohi ko'kka yetdi o'zbekning. Quyosh yig'la, osmon aza tut, Muhammadi ketdi o'zbekning.

Kelishik kategoriyasi. Asosiy grammatik kategoriyalardan hisoblanadigan kelishik kategoriyasi so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. U ismlar doirasida amal qiladi, ya'ni ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifatdosh, taqlid, ba'zan undovlarga ham qo'shiladi. Bu kabi so'z turkumlari uchun kelishik qo'shimchalarining qo'shilishi zaruriy va doimiy xususiyat sanalmaydi: kelishik shakllarining ularga qo'shilishi ma'lum bir sintaktik vazifa bilan bog'liq bo'ladi⁵⁷.

O'zbek tilshunosligida kelishiklarning grammatik tabiati, aytish mumkinki, batafsil o'rganilgan. Kelishiklar stilistikasiga oid ayrim nazariy masalalar R.Qo'ng'urov tomonidan o'rta tashlangan va o'zbek tili kelishiklarining semantik-stilistik imkoniyatlari katta til materialida asosida ochib berilgan⁵⁸. O'zbek tilida kelishik kategoriyasi o'zining asosiy grammatik mazmuni bilan birga, matnda ma'lum stilistik vazifani bajarishi mumkin. Bu, ayniqsa, bir kelishik shaklini boshqa kelishik ma'nosida qo'llashda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, bosh kelishikdan tashqari barcha kelishiklar grammatik ko'rsatkichlarga ega. Masalan, qaratqich kelishigi -ning, tushum kelishigi -ni,

⁵⁷ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2010.

⁵⁸ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари.– Тошкент: Фан, 1977.; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т: Ўқитувчи, 1992.

jo'nalish kelishigi -ga, o'rin-payt kelishigi -da hamda chiqish kelishigi -dan affikslari orqali ifodalanadi. Ularning qo'llanilishi vaziyatga qarab o'zgarib turadi.

Lekin ba'zi bir hollarda kelishik ma'nolari nutqda ularni qo'llamasdan ham anglashilaverishi mumkin. O'zbek tilshunosligida bunday hodisa kelishik affikslarining belgisiz qo'llanilishi deb ataladi. Kelishik affikslarining qo'llanilishi yoki tushib qolishi nutq jarayoni bilan bog'liq hodisa. Ikkinchi tomondan, ularning qo'llanilmasligi nutqda qisqalikka intilish qonuniyati bilan ham bog'liq.

Sintaktik munosabatlarni shakllantiruvchi omil sifatida kelishik qo'shimchalari ijodkorlar qalamida faol. Biz buni Halima Xudoyberdiyeva she'rlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Buni quyida shoironing "Muqaddas Ayol" she'ri misolida jadvalga solishga harakat qilamiz:

She'r misrasi	Kelishik shakli (belgisi qo'llangan)	Kelishik shakli (belgisiz qo'llangan)
<i>Oshiqlaring poyingga gul otib ham bo'ldi,</i>	<i>poying+ga</i>	<i>gul(ni)</i>
<i>Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo'ldi,</i>	<i>xilvatlar+da labing+dan</i>	<i>bol(ni)</i>
<i>Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo'ldi,</i>		
<i>Sen bari bir muqaddassan, muqaddas ayol!</i>	<i>muqaddas(Ø)</i>	
<i>Avval: "Kel-ey, quchog'imga to'l, balq", dedilar,</i>	<i>quchog'im+ga</i>	
<i>Unamading, ayol o'zi ters "xalq", dedilar.</i>		<i>ayol(ning)</i>
<i>Icholmagach yuz o'girib sho'r, talx, dedilar...</i>		<i>yuz(i+ni)</i>
<i>Sen bari bir muqaddassan, muqaddas ayol!</i>	<i>muqaddas(Ø)</i>	
<i>Sen daryosan, o'pganini qirg'oq yashirar,</i>	<i>o'pgani+ni</i>	
<i>Juftim bo'l, deb chopganini har toq yashirar,</i>	<i>chopgani+ni</i>	
<i>Jannatim, deb quvonmasdan qumloq yashirar,</i>	<i>quvonmas+dan</i>	
<i>Sen bari bir muqaddassan, muqaddas ayol!</i>	<i>muqaddas(Ø)</i>	
<i>Asli bu bor ermaklarning borar yeri Sen,</i>	<i>ermaklar+ning</i>	
<i>Rost-u yolg'on ertaklarning borar yeri Sen,</i>	<i>rost-u yolg'on(Ø) ertaklar+ning</i>	
<i>Asov otday erkaklarning borar yeri Sen,</i>	<i>erkaklar+ning</i>	
<i>Sen bari bir muqaddassan, muqaddas ayol!</i>		
<i>Chorlashganda sen kelsang, goh bekor kelsangda</i>	<i>chorlashgan+da</i>	
<i>Mast davraga bir sarin yel, bir tor kelsangda</i>	<i>mast davra+ga sarin(Ø)</i>	
<i>Xor kelsang-da, nomardlarga goh xor kelsang- da,</i>		<i>nomardlar+ga</i>
<i>Sen bari bir muqaddassan, muqaddas ayol!</i>		
<i>Qimtinasan, astagina ko'tarasan bosh,</i>		<i>bosh(ni),</i>
<i>Ming yillikdir ko'zingdagi jovdiragan yosh,</i>		
<i>Gunohkorlar ming-u bitta senga tegar tosh,</i>	<i>sen+ga</i>	

<i>Sen bari bir muqaddassan, muqaddas ayol!</i>		
<i>Harir, xushbo'y badanida toshlar izi bor,</i>	<i>harir(ó), xushbo'y(ó) badanida</i>	<i>toshlar(ning)</i>
<i>Ko'kragingda egilgan ne boshlar izi bor,</i>	<i>egilgan(ó)</i>	<i>boshlar(ning)</i>
<i>Quyosh izi, kuydirgan quyoshlar izi bor,</i>	<i>kuydirgan(ó)</i>	<i>quyosh(ning) quyoshlar(ning)</i>
<i>Sen bari bir muqaddassan, muqaddas ayol!</i>	<i>muqaddas(ó)</i>	

Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyatinnng mavzu va ma'no ko'lamini nihoyatda keng va chuqur. Uning she'rlarida go'dak, ayol, ota-ona, yer-suv, tabiat va tog'-u tosh va qushlar taqdiri, ularning yashash tarzi, tabiati, holati ifodalanadi desa bo'ladi. Yaxlit holda inson, tabiat va janiyat muammolarining deyarli barcha ko'rinishlari shoirani hayajonga soladi. Tuproq, ona yer va inson taqdiri bir butunlikni tashkil etadi. Shu boisdan ham u bir she'rida "Men shu tuproq kuychisiman" deb g'ururlanadi. Eng muhimi, shoir nima haqida, kim to'g'risida yozmasin, ko'pincha ichki yoki tashqi, ruhiy holatlarni chizishdan ko'ra, o'y-mushohadalar ziddiyatlarini chizishga ishtiyoq kuchli.

Fikrimizcha, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining cho'qqisida vatan va erk, milliylik va ayol mavzulari yonma-yon turadi. Tom ma'noda, shoiraning "Muqaddas ayol" she'rini dunyo ayollariga atalgan bag'ishlov desa bo'ladi.

Yurtimizda ayollarga, onalarga bag'ishlangan katta bayramlar, ulug'anjumanlar o'tkazilsa, ularning kulminatsiya qismida, albatta, "Muqaddas ayol" qo'shig'i kuylanadi. Demak, elning ardoqli shoirasi jisman bo'lmasa-da, ruhan "Muqaddas ayol"i bilan xalq orasiga kirib boraveradi.

Umuman, Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida kelishiklarning barcha shakllari poetik matn tuzilishi, ohang va boshqa she'riy talablarga, jarangdorlikka, rifma taqozosiga mos ravishda o'z o'rnida qo'llanilgan va shoira she'riyati uchun "husnbezar" vazifasini bajargan.

Odatda, kelishik shakllaridan qofiyada foydalanish kutilgan natijani beravermaydi. Ammo Halima Xudoyberdiyeva ijodida buning aksini kuzatamiz.

Odamzod o'z tug'larini O'ramasayam zarga, Boshida kutarmasayam, Itarmasaydi jarga... Unda bizning bu dunyomiz Ketardi oldinroqqa. Tan berolsak oramizda Biz-la yurgan bayroqqa. ("Tug'lar" she'ridan)

Shaxs-son kategoriyasi. Halima Xudoyberdiyeva ijodida shaxs/son qo'shimchalari stilistik ma'no anglatish imkoniyatini namoyon etgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday vazifani, asosan, II shaxs qo'shimchalari bajaradi. Masalan, II shaxs ko'plik shakli ko'plik ma'nosini ifodalabgina qolmasdan, hurmat, ehtirom ma'nolarini ham anglatadi: *Berdingiz shu saf uchun ikkilanmay, o'rtab jon, Bor bisot, "Na'matak"day gulingizni berdingiz. Keyin... bilmadik, bizni ne bir g'aflat bosgan on, Qay qabohatga biyron tilingizni berdingiz.* ("Ustoz Oybekka" she'ridan)

Shuningdek, II shaxs birlik shakli ham shoira tilida o'ziga xos ma'no kasb etadi. Misollarga murojaat etamiz: *Bolalarim, qadni ko'taring...Ko'ksimdan bu dodni ko'taring! Xokisor millatni ko'taring...Ulug' mamlakatni ko'taring!*

Kesim vazifasida kelgan fe'llarning II shaxs shaklida berilishi butun she'r davomida asar ritmikasinani bir xilda ushlab turishga xizmat qiladi. Masalan, *Ishqi ko'ngillar-ku pardan yengilday, Ishqsiz qalbga qancha tosh to'ldi, ayting?! Lahza... ishq tutildi qancha ko'ngilda. Lahza... qancha dilda ishq o'ldi, ayting?!*

Shoira II shaxs birlik affiksalaridan keng foydalangan va shu orqali ijodkor hamda lirik qahramon o'rtasida o'ziga xos muloqot o'rnatgan.

Ijodkor she'rlaridagi fe'l kesimlar tarkibida I shaxs birlik sondagi birliklar ham ko'p uchraydi. Jumladan, *Dilimni ishq bilan dog'lab olganman, Ishq dog'idan ko'nglim chog'lab olganman, Sochim zanjiri-la bog'lab olganman, Mendan ikki dunyo ketmagaysiz Siz.* ("Mendan ikki dunyo ketmagaysiz" she'ridan)

Ba'zi she'rlarda shoira lirik qahramon holatini chizishda I shaxs birlik shaklidagi shaxs/son qo'shimchalaridan foydalanadi-da, keyin ruhiy holat boshqa shaxsga ko'chiradi va ajib uyg'unlik paydo etadi: *O'z dunyom ichida bog'larni yaratdim. Tafakkur kuchidan tog'larni yaratdim. Nurab ketdilar... Shunday, ha,*

mahkam bo‘l, sen jonim. Yelkaga Hali ko‘p yuklarni yuklarmiz, Ko‘p xazon bog‘larni tiklarmiz... (“Yuragimda barglar shiviri” she’ridan)

“Yuragimda barglar shiviri” she’rida shaxs/son qo‘shimchalari I shaxs birlikdan III shaxs ko‘plik shakliga, keyin II shaxs birlikka, so‘ngra I shaxs ko‘plik shakliga ko‘chgan va ajib “men~ular~sen~biz” uyg‘unligini hosil qilgan.

Mayl kategoriyasi. Real voqelikni aks ettiradigan harakat bilan subyekt o‘rtasidagi munosabat kesimlikning uch (aniqlik, buyruq-istak, shart) maylini ko‘rsatadigan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu munosabatlar xarakteri turlichadir. Agar fe‘lning aniqlik maylida harakat har uchala zamonda ham ifodalana olsa, buyruq-istak maylida bir harakatning amalga oshishi uchun ikkinchi harakat zarur bo‘ladi. Buyruq-istak maylida harakatning bajarilish yoki bajarilmasligi ma‘lum shakllar yordamida ifodalanadigan buyurish, undash, iltimos, xohish kabi hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shubhasiz, kesimlik mayllari nafaqat mazmuniga ko‘ra, balki grammatik jihatdan ham farqlanadi⁵⁹.

Matnda vaziyat bilan bog‘liq holda bir mayl ma’nosini ikkinchi mayl shakli bilan berish mumkin. Bu ba’zan ijodkorning subyektiv munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pchilik holatlarda esa bu so‘z va uning ko‘rinishlarining semantik strukturasidagi muayyan o‘zgarishlardan kelib chiqadi. Halima Xudoyberdiyeva ijodida ham biz aynan ana shunday holatlarga duch kelamiz. Ularning ba’zilarini ko‘rib o‘tamiz.

Buyruq-istak mayli. Shoiralarida bu mayl shakli asosan buyruq, undov, istak, iltimos ma’nolarini bergan:

a) ***istak ma’nosi:***

Mukash!

Sirli suhbatlardan ogoh yotoqda

So‘nggi sirlashuvlar ko‘ngilni yozsin.

Taqdir oppoq tole ulashar chog‘da

Sening peshonangga muhrini bossin. (“Dugonalarimga” she’ridan)

⁵⁹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2010.

b) **buyruq ma'nosi:**

Tarang tortmoqda simlar, ayting–

Xayollarga tolsinlar, ayting.

Siz–jon, olsa jonim qiynamay,

Birdaniga olsinlar, ayting.

Siz topmishim, yuqotmishimmas... (“Siz topmishim” she’ridan)

d) **iltimos ma'nosi:**

Tutashmoqda o‘tlarga ko‘ksim,

Qo‘y, yaxshisi, men tinglayin jim,

O‘zing alvon qo‘shiqlardan ayt.

Omon-omon qo‘shiqlardan ayt. (“Omon-omon qo‘shiqlardan ayt” she’ridan)

e) **undov ma'nosi:**

Ajdodim hayot deb, ishq deb ochgan so‘z,

Avlodim ham undan o‘ylarga cho‘msin.

Shu dard oqibati men ochganman ko‘z,

So‘ng dam tag‘in shu dard ko‘zimni yumsin. (“Muhabbat” she’ridan)

Shart mayli. Kesimlikning “shart mayli formasi boshqa biror harakatning bajarilishi uchun shart, sharoit bo‘ladigan harakatni bildiradi”. Bu uning grammatik vazifasi hisoblanadi. Matnda bu mayl ham ayrim hollarda stilistik vazifani bajaradi. O‘zbek tilida shart mayli shakli *-sa* bo‘lib hisoblanadi. Bu mayl Halima Xudoyberdiyeva asarlarida o‘zining asosiy vazifasidan tashqari o‘zida stilistik yuk ham tashiydi.

Qiyin bo‘lar ajralmoq biri-birini suysa –

Qiyin ajralganlarning zavolini ko‘rgaysan.

Qush, daraxtki shunchalar bir-biri uchun ko‘ysa,

Yorab, kuzda Insonga o‘zing toqat bergaysan. (“Kuzgi daraxtlar” she’ridan)

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Xulosa shuki, grammatik vositalarning semantik-stilistik imkoniyatlari Halima Xudoyberdiyeva poeziyasida xilma-xil ranglarda namoyon bo‘ladi.

Shoiraning o'zbek tili grammatik vositalarining tasviriyl imkoniyatlariga tanlab munosabatda bo'lganligi sezilib turadi.

3.3. Halima Xudoyberdiyeva poetikasi tilining stilistik-tasviriyl tizimi

Shoira Halima Xudoyberdiyeva so'zning lug'aviyl ma'nolarini turfa jilvalarda aks ettira olgan, mag'zi to'q she'rlari bilan o'zbek kitobxonining qalbidan joy ola bilgan, o'ziga xos, betakror ijodkor. U hozirgi o'zbek tilining leksik-semantik xususiyatlariga tayangan holda yangicha tashbehlar yaratishga erishgan. Shoira ijtimoiyl-siyosiy mavzularda bo'ladimi, lirik yoki intim mavzularda qalam tebratadimi, go'zal o'xshatishlardan ko'proq foydalanadi. Shoira tuyg'ular tasvirini yangi-yangi shakllarda berar ekan, shakl va mazmun mutanosibligiga erishadi; haqiqatni aytish, adolat tantanasini ulug'lash uchun tinmay izlanadi; shuning barobarida barchamizga tanish so'zlar zimmasiga yangi va chuqur ma'nolar yuklaydiki, bu uning haqiqiy iste'dod egasi ekanligini dalillayveradi. Misollarga murojaat qilamiz. Shoira "Ayol o'tib borar" she'rida shunday yozadi:

Sen so'rama. Men ham aytmayin,

Kuragimni(ng) singanini qars.

Shovqin solma, men uyg'otmayin,

Yuragimda yotar bir yo'lbars...

H.Xudoyberdiyeva "Yuragimda yotar bir yo'lbars" misrasi orqali go'zal tashbeh yaratadi.

Mutaxassislar tomonidan "dunyo ayollariga bag'ishlov" deb e'tirof etilgan shoiraning "Muqaddas ayol" she'rida ham "Sen daryosan...", "Unamading, ayol o'zi ters "xalq", dedilar", "Icholmagach yuz o'girib sho'r, talx, dedilar" kabi o'nlab misralarida ham go'zal tashbehlar bor.

Ijodkorning she'riyl tug'yonlarida so'zlar tabiatidagi shartlilik, "kosa tagidagi nimkosa" tarzida ifodalanadigan ko'chma ma'nodorlik ustuvorlik qiladi. Yuqoridagi misralar ma'no ifodasiga ko'ra ijtimoiyl-falsafiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Yana bir misol:

O'z kuchi, o'z bardoshini bilmagan daraxtman men,

*Qoqilganday **bitta joydan jilmagan daraxtman** men.*

Sershox, serbarg novdalari chaq-chaqlatib qushlarni

*Umr bo'yi o'zi bir bor **kulmagan daraxtman** men...*

Ibrohim G'afurov ta'biri bilan aytganda: "She'r bu shoirning o'zi". Shoir ruhiy iztiroblarini, dil qiynoqlarini "o'z bardoshini bilmagan daraxt", "bitta joydan jilmagan daraxt", "o'zi bir bor kulmagan daraxt"ga o'xshatadi va betakror istioralar yaratadiki, bu fikrning ifodaliligini va ta'sirchanligini ta'minlaydi. Mazkur parchadagi o'xshatishlarda mantiq kuchli, ularni o'qir ekansiz, shoiraning dil tug'yonlariga beixtiyor sherik bo'lasiz.

Birov pichoq bilan kesdi, so'rdi shiralarimni,

Boshqa birov kallakladi, ko'rdi ichim, qa'rimni.

Bargim pilla qurti yedi, birov kiydi zarimni

*Men-chi, **birovlardan bir barg yulmagan daraxtman** men...*

Shoira o'xshatishlari o'quvchida rahm hisini uyg'otmaydi, aksincha, bir po'rtananing ichidan omon chiqishga intilgudek holatga soladi kishini. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchini AYOL, HAZRATI INSON qalbi po'rtanalariga chorlaydi. Bu holatni Halima Xudoyberdiyeva kabi dadil tasvirlash, nazarimizda, barcha shoirlarga ham nasib etavermaydi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodida o'zbek she'riyatidagi an'anaviy o'xshatishlar ham ko'p kuzatiladi. Chunonchi,

*...**Rost-u yolg'on ertaklarning borar yeri Sen,***

Asov otday erkaklarning borar yeri Sen...

Yana bir misol: ***Onaginam! Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol... yoki O'g'lonlaring meva qadar bir shirinlikdir ...***

Manbalarda ko'chimlar⁶⁰ borasida fikr borar ekan, odatda, ularni ot turkumiga oid misollar bilan izohlash keng uchraydi. Biroq fe'llarning ham ma'no taraqqiyoti keng uchrashi shoir she'riyatida o'z ifodasini topgan. Masalan,

⁶⁰ Ko'chimlar deyilganda "adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi" nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi... Ko'chimlar adabiyotlarda "troplar" atamasi ostida o'rganilgan. Ko'chimlar tasnifi quyidagicha: «1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga

*Moziyi har otar tongni emizgan,
Har tig'li aqlni, ongni emizgan.
Bo'ri, tulkimas, arslonni emizgan –
Turklikning ko'kragi, bulog'i Turon.*

Halima Xudoyberdiyevaning “Turon” she'rida “o'q otmoq”, “cho'g' otmoq” kabi birikmalar o'ziga xos tarzda ustalik bilan bayon etiladi. Aytmoqchimizki, odatiy hollarda ular salbiy ma'no ifodasi uchun qo'llaniladi. Ammo shoira mazkur she'rida ulardan ijobiy stilistik ottenkani yuzaga chiqarish uchun ishlatgan:

*O'ngimda ruhimga o'q otgan fikr,
Ko'nglimga bir yorug' cho'g' otgan fikr.
Uyqumda qonimni uyg'otgan fikr:
“Turklikning muqaddas o'chog'i Turon”.*

Shoira she'riyatida inson va tabiatning boshqa yaralmishlari xususiyat-holatlarini yonma-yon qo'yish, taqqoslash, qiyoslash orqali ularga murojaat qilish ham ko'p uchraydi. Natijada, bunday she'rlardagi obrazlar falsafiy umumlashma xususiyatiga ega bo'la boradi, ma'no kuchayib, metaforalashadi. Shoira faqat shuhratmand tarixda kechgan ajdodlarimizning ibratli hayotlarini vasf etibgina qolmay, bugungi avlodni g'olib bobolar izidan borib, Vatanga sadoqatli farzand bo'lishga chaqiradi. Bu chaqiriq donishmand faylasufning o'giti, qahramon boboning nasihati, yarador sarbozning bitigi bo'lmay, balki shu tuproqning har zarrasida, eng avvalo, ilohiy bir mehr va muqaddaslikni teran mushohada qilgan, jonu tani shu zamin bilan qorishib ketgan, har bargi, har giyohi, har bir bolasining jon tolalariga jigarining qon tomirlari tutash Ona-shoiraning nidolari, faryodlaridir⁶¹. Bu hol shoiraning “Ona-Vatan”, “Navoiy – non”, “Bu umr o'tar ko'chadir” she'rlarida yaqqol kuzatiladi:

asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis. 2. So'z ma'nosining sifatli ko'chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; v) ironiya.»

Qolgan tasviriylar vositalari mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: «simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota – meyozisning ko'rinishlaridir». Ularning asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmaslik kerak. (Manba: Ёўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари.—Тошкент: Фан, 2006.)

⁶¹ Худойбердиева Х. Сайланма.—Тошкент: Шарқ, 2000.—398 б.

Men Turonning qadim qo'ng'irog'imen,

Jarang bersam qir-dalasi uyg'onar...

Bolam, kimsan, kim bobongning qotili,

Bilarmisan turkning to'qson zotini?

Tomirimdan chiqqudayin otilib

Nayman onaning nolasi uyg'onar...

Sir emaski, zamonaviy she'riyatning lirik qahramoni hayot to'g'risida, inson haqida ko'proq o'ylaydigan bo'lib qoldi, o'ylaganda ham yuzaki emas, ancha chuqur o'ylaydigan, dono fikrlar aytadigan bo'lib qoldi⁶². Mana shu holat Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini bir-biriga bog'lab turgan "rishtalar"dir, desak to'g'riroq bo'ladi. Bu borada metaforik usuldagi ko'chimlar shoira tomonidan o'rinli tanlanadi.

Biz hazrat mir Alisher Navoiyni "mutafakkirlar mutafakkiri", "avliyolar avliyosi", "g'azal mulking sultoni", "ash'or kishvarining shohi"» kabi tashbehlar bilan ulug'lanishlariga ko'nikib qolganmiz. Bu borada shoira yangi o'xshatishlarni qo'llaydi va "Bu buyuk shoir bizniki" deb ayyuhannos soluvchilarga, tortishuvchilarga yoki behuda bahs qiluvchilarga aniq javob aytadi:

Navoiy – non. To'sma. Unga borar yo'ldan qoch,

G'ashlik qilma, to'rt yonni ham yoritarkan toj.

Navoiyga o'zin ursa, urma kofirni,

Axir nonga musulmon-u kofir birday och.

Shoira she'riyatida metonimiya va sinekdoxa ma'no ko'chish usullaridan ham keng foydalanadi. Sinekdoka hosil qiluvchi va hosila ma'nolari denotatining biri butun, ikkinchisi, albatta, uning bo'lagi bo'lishini yaxshi bilamiz. Metonimiyada esa hosil qiluvchi va hosila ma'no denotatlari alohida-alohida narsa hamda voqelikdan iborat, ular butun-bo'lak munosabatiga ega emas. Sinekdoxalarda so'zning leksik ma'nolaridan birida ifodalangan bo'lak, ikkinchisida ifodalangan

⁶² Каримов О. Бадий образнинг кўп маънолилиқ хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. –1990, № 3. 21-26-б.

butunning muhim belgisi bo'ladi⁶³. Metonimiyada o'zaro aloqadorlik belgisi o'ringa, zamonga yoki biri ikkinchisining materiali bo'lishiga ko'ra yuzaga chiqadi, shu asosda hosil qiluvchi ma'no hosila ma'noni yuzaga keltirgan bo'ladi⁶⁴.

Metonimiya usulida hosil bo'lgan ko'chimlarga Halima Xudoyberdiyevaning quyidagi she'riy misralarini misol qilib keltirish mumkin: "Tun bo'yi oyoq uchida yurib chiqar So'z", "Turkiy elni balolardan qo'rib chiqar So'z", "Bor lash-lushing birma-bir yech-da, Boshdan-oyoq HURLIKni kiyin!", "Kul qiladir bizlarni u o't", "Hali meni qiynamoqdan to'ymas Ostona", "Ko'p xushro'y ko'rinar qalbingdagi bog'", "Jonli vijdonlarni tortajak dorga" ...

Keltirgan misollarimizdagi **so'z, hurlik, o't, ostona, bog', vijdon** singari so'zlar metonimik hosila ma'noni yaratish uchun xizmat qilgan. Bu misollarda so'zning leksik ma'nosi hosila ma'noni narsalar o'rtasidagi aloqadorlik va yaqinlikka ko'ra yuzaga keltirgan.

Sinekdoxa usulida ma'no ko'chgan misralar sirasiga "Ko'ngil, qo'lin bog'lab odam ahlini, Band-u band qiladi tag'in muhabbat", "Bu hayot g'alati, jigarim", "Qo'rqma, goh qiynalib qolsa jon", "Aytaversam jonga tushar o't" kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ushbu misralarda **ko'ngil, jon** so'zlari sinekdoxa usulida ko'chgan polisemantik so'zlardir.

Misollarda **ko'ngil, jigar, jon** so'zlari bilan "odam" nazarda tutilgan. Qolaversa, "qo'lin bog'lab" birikmasi individual nutqqa xos bo'lib, u matn talabiga ko'ra yangicha ma'no ifodalay olgan. (Xalq jonli so'zlashuvida, odatda, qo'lini bog'lamoq iborasi biror yumushdan qo'ymoq ma'nosida qo'llanilsa, shoir bu o'rinda sevmoq ma'nosini mujassamlashtiradi.) Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida o'ziga xos ma'no tashuvchi, boshqa shoir-u shoirlar ijodida kuzatilmaydigan bir qator individual nutq ko'rinishlari uchraydi:

⁶³ Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010.; Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.–Т.: Ўзбекистон, 1993.; Сувонова Р. Ўзбек тилида метонимия. НДА. –Самарқанд, 2001. 22 б.

⁶⁴ Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010.–25-б.

To bu bayroq, Vatan, nurlar

Ich-ichingga ketsin kirib.

*Toki g‘anim **vatanxo‘rlar***

Ololmasinlar sug‘irib... (“Vatan bayrog‘i” she’ridan)

*Bolakayim, sen qo‘rqma, sen **hovuchlamagin jon** –*

Sen qog‘oz kaptaringni yasayvergin shodlanib ...

(“Ulug‘bekni kuzatib” she’ridan)

Navro‘zona shavq-la kuylay g‘unchani uyg‘ottirib...

G‘am na qilsun ul munavvar sham‘i shabiston oldida.

(“Navro‘z” she’ridan)

Hech kim bilan sirlashmay, hech kimsaga tutmay may,

***O‘z qonim bilan o‘zim alvonlanib boraman.** (“Begin” she’ridan)*

Bu kabi so‘zlar poetik tasvirni berishda, ifodalanayotgan fikrning emotsional ekspressivligini ta‘minlashda muhim uslubiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Shoiraning poetik uslubida quyidagi so‘zlardan keng foydalanganligini kuzatishimiz mumkin: *erk, vatan, muhabbat, ona, quyosh, ko‘ngil, gul, yurak, kurash, ayol, yonmoq* va h. Mazkur so‘zlar har bir o‘rinda o‘ziga xos semantik-funksional vazifa bajargan, betakror ko‘chimlar yaralishida xizmat qilgan.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida lug‘aviy shakl vositalarining estetik imkoniyatlaridan, asar mazmunining tez va qulay idrok etilishi hamda she’rda o‘ziga xos jozibador ohangdorlikni ta‘minlash maqsadida unumli foydalanilgan.

2. Halima Xudoyberdiyeva o‘z she’rlarida sintaktik shakl vositalaridan poetik rangba-ranglikni mahorat bilan yarata olgan.

3. Halima Xudoyberdiyeva ijodi – poetik ummon. Shoira tomonidan qo‘llanilgan grammatik vositalarning lingvopoetik imkoniyat sifatida namoyon bo‘lishini kengroq o‘rganish ham o‘ziga xos ahamiyatga ega.

UMUMIY XULOSALAR

1. Lingvopoetikani tilshunoslik fanlari qatoriga qo'yish ham, adabiyotshunoslik fanlari sirasiga kiritish ham to'g'ri emas; lingvopoetika tilshunoslik, adabiyotshunoslik va shevashunoslik fanlarida erishilgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etib, filologiyani yaxlitligini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan filologik fandır. (V.P.Grigoryev) Zero, bugungi kunda lingvopoetik tahlillarga bag'ishlangan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilayotganligi mazkur yo'nalishning jadal suratda rivojlanib borayotganligidan dalolatdir.

2. Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud. Ana shu qonuniyatlardan to'la xabardor bo'lgan, badiiy didi, so'z sezgisi va mahorati yuksak ijodkor betakror tasvir, kutilmagan, ohorli badiiy lavhalar, so'z chaqinlarini paydo qila oladiki, kitobxon adibning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Halima Xudoyberdiyeva XXI asr o'zbek she'riyatida ana shunday yuksak mahoratga erisha olgan yetuk namoyandalaridan biri.

3. Shoir she'rlarida lirik qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda fonografik vositalar (*alliteratsiya* (undoshlar takrori), *assonans* (unlilar takrori), *geminatsiya* (undoshlarni qavatlash) kabilar)dan unumli foydalana olgan.

4. Halima Xudoyberdiyeva lingvopoetik vositalardan foydalanishda o'zbek she'riyatining davrlar osha shakllangan va takomillashgan an'ana va mezonlariga amal qiladi. Halima Xudoyberdiyeva favqulodda kashf qilgan lingvopoetik vositalar, kutilmagan obrazli ifodalar kitobxonni hayratga soladi, ulardagi shoirning hayotni teran ko'z bilan kuzatishi asosida yuzaga kelgan o'ziga xos badiiy tafakkur, bir-birini to'ldiruvchi mantiqiy xulosalar matnga poetik bo'yoq, ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Shuning uchun u tomonidan qo'llanilgan va matnga bog'liq holda badiiy obrazga aylangan tushunchalar she'rdan she'rga ko'char

ekan, har gal o'zlarining yangi-yangi nozik qirralarini kitobxonga oshkor etadi va poetik ta'sirchanlik xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

5. Shoir Halima Xudoyberdiyeva she'rlarining har bir misrasida erkka, ona yurtga, shu yurtning kamtar insonlariga bo'lgan kuchli muhabbat ufurib turadi. Shoiraning lirik qahramoni "Vatan, seni sevaman!" deb hayqirmaydi; balandparvoz so'zlarni aytmaydi. Ammo u ona yurtini "To'marisning tumorin taqqan ayol", "To'marisning chirog'in yoqqan ayol" bo'lib, "Vatanim onaginam" deb biladi, o'z taqdirini uning kamolida, ravnaqida ko'radi.

Ijodkorning tildan foydalanish mahoratini leksik vositalar (ma'nodosh, uyadosh, darajalanuvchi, zid ma'noli, ko'p ma'noli so'zlar, yangi yasalmalar, shuningdek, iboralar, izofalar, xalq maqollari va b.) to'laroq namoyon eta olgan.

6. Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida morfologik birliklarni estetik vazifa bajaruvchi unsurlar darajasiga ko'tara olgan. Shuningdek, badiiy uslub individualligini ta'minlashda sintaktik vositalardan ham mahorat bilan foydalana olgan. Sintaktik parallelism, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, o'xshatish kabilar shular jumlasidandir. Sanalgan sintaktik vositalar she'riy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga ma'noni kuchaytirishga, fikrning batafsil, atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyekti bilan bog'liq ma'lumotlar fondining kengayib borishiga xizmat qilgan.

7. Ijodkor she'rlarida lug'aviy shakl vositalarining ham, sintaktik shakl vositalarining poetik estetik imkoniyatlaridan asar mazmunining tez va qulay idrok etilishi hamda she'rda o'ziga xos jozibador ohangdorlikni ta'minlash maqsadida unumli foydalanilgan.

8. O'zbekiston Xalq shoirasi, satrlari qatidan "*Qiyinalib yashamoq – yozug'im mening*" deya "*Ich-ichida yo'lbars o'kirib sirtdan mayin jilmaygan ayol*" ijodkor Halima Xudoyberdiyeva poeziyasi tili boyligi va jo'shqinligi, xalqchilligi va millatparvarligi, betakror va jarangdorligi bilan; til vositalarining keng va rang-barang stilistik imkoniyatlarini o'ziga xos tovlanishlarda yuzaga chiqara olganligi bilan yuksak baholanishga loyiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I.Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.04.2018 йилдаги N ПҚ-3652-сонли «Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори// "Халқ сўзи", 2018 йил 6 апрель.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги ПҚ-4479-сон Қарори.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2019-yil 21-oktabr.

II.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. Ma’naviyat, 2008.– B.87.
5. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз.– Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

III.Ilmiiy risola, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar

6. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.
7. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Фан, 1962.
8. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. –Т.: Фан, 1988.
9. Григорьев В.П. Поэтика слова. –М., 1979.
10. Жамолхонов Ҳ.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. (Лексикология ва фразеология.Лексикография.) –Т., 2004.
11. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
12. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.
13. Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография.– Самарқанд: СамДУ, 2006.

14. Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. –М., 2007.
15. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
16. Маматов А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Т., 1991.
17. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Т.: Фан, 2000.
18. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010.
19. Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати.– Самарқанд: СамДУ, 2003.
20. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili (Morfologiya). – Qarshi: Nasaf, 2005.
21. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: XXI аср авлоди, 2001.
22. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975.
23. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари.– Тошкент: Фан, 1977.
24. Қўнғиров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Т: Ўқитувчи, 1992.
25. Қодиров П. Тил ва эл. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2005.
26. Раҳимжонов Н., Ҳамидова М . Ҳалима Худойбердиева лирикаси. –Т., 2004.
27. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981.
28. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари.– Т.: Фан, 1996.
29. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор , 2006.
30. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Т.: Fan va texnologiya, 2010.
31. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М., 1986.
32. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.–Т.: Ўзбекистон, 1993.
33. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. –Тошкент, 1990.

34. Умуркулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.
35. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – 654 с.
36. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. – Т.: Ёзувчи, 2001.
37. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2006.
38. Йўлдошева Д., Ортиқова Ҳ. Лингвоперсонология–тилшуносликнинг мустақил соҳаси. – Тошкент: Paradigma, 2018.
39. Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983.

IV. Matbuot materiallari va ilmiy maqolalar

40. Каримов О. Бадиий образнинг кўп маънолилик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1990, № 3. 21-26-б.
41. Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлилига бағишланган янги тадқиқот ҳақида // Филология. 10-чиқиш. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.
42. Орипов А. Жонфидолик (сўз боши) / Худойбердиева Ҳ. „Сайланма“ (Тошкент: Шарқ, 2000.)
43. Расулов А. Ҳалима Худойбердиева / Китоб: Ўзбекистон Ёшлари мукофоти лауреатлари. Тошкент: Ёш гвардия, 1977, 140-146-б.
44. Ражабова Р. „Мен Туроннинг қадим кўнғироғи...“ / „Гулистон“ журнали, 1997, 5-сон.
45. Ғафуров И. Дарёнинг овози / Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 4-5-б.
46. Шукуров Р.М. Синтактик параллелизмнинг услубий вазифалари // ЎТА, 2004. – №2, 73-75-б.

V. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

47. Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол.фанлари номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2010.

- 48.Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): дисс... док.филол.наук.–Ташкент, 1992.
- 49.Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири, 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.
- 50.Орипжонов Ш.Г. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол.фанлари номзоди ...дис. автореф. –Т.: ТАИ. 1995.
- 51.Содиқова М. Феъл стилистикаси.–Т.: Фан, 1975.; Садыкова М. Стилистика глагола в современном узбекском литературном языке: Автореф.дис. ...д-ра филол.наук. – Т., 1991.
- 52.Сувонова Р. Ўзбек тилида метонимия. НДА. –Самарқанд, 2001. 22 б.
- 53.Toshaliyeva S.I. O‘zbek tilida okkazonal so‘z yasalishi.Filol. fanlari nomzodi ... dis. – T., 1998. – 170 b.
- 54.Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.док... дисс.автореф. – Тошкент, 2009.

VI. Magistrlik dissertatsiyalari va bitiruv malakaviy ishlar

- 55.Sadinova N. Anvar Obidjon she'rlarining lingvopoetikasi.MD.–O‘zMU, 2014.–95 b.
- 56.Tillayeva M. Usmon Azim she'rlarining lingvopoetik xususiyatlari. BMI.–SamDU, 2013.–82 b.
- 57.Zohidova S. Sirojiddin Sayyid asarlari lingvopoetik tadqiqi. MD.–AndijonDU, 2014.–66 b.

VII. Lug‘atlar

- 58.Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.–Т.: ЎзМЭ, 2002.

VIII. Badiiy adabiyotlar

59. Худойбердиева Ҳ. Сайланма.–Тошкент: Шарқ, 2000.–398 бет.
60. Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар.–Тошкент: Ўзбекистон, 2012.–728 бет.
- 61.Худойбердиева Ҳ. Осойишта шам. Шеърлар, назм.–Тошкент: Ўзбекистон, 2017.–168 бет.

IX. Internet materiallari

www.uz adabiyot/ Ot haqida she'r yozgan Boyovutlik qizaloq

kh-davron.uz Xurshid Davron kutubxonasi. Ulug'bek Hamdam. Qarzdorlik va umidvorlik tuyg'usi

kh-davron.uz Xurshid Davron kutubxonasi. Halima Xudoyberdiyeva: Eng qora ish, eng toza ish–bizning ishimiz...

<https://uz.wikipedia.org/wiki/> Halima_Xudoyberdiyeva

www.uz adabiyot/ Halima Xudoyberdiyeva bilan suhbat

www.uz adabiyot/ Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol



Halima Xudoyberdiyeva
(1947–2018)

ENG QORA ISH, ENG TOZA ISH– BIZNING ISHIMIZ* ...

Halima Xudoyberdiyeva 1947-yilda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida tavallud topgan. 1972-yilda Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetini tamomlagan. 1975-77-yillarda Moskvada M.Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida tahsil olgan. O‘zbekiston xalq shoiri (1992).

Mehnat faoliyatini talabalik yillaridayoq boshlagan shoira 1971-75-yillarda “Saodat” jurnalida bo‘lim boshlig‘i, 1978-83-yillar oraliq‘ida “Yosh gvardiya” nashriyotida bo‘lim boshlig‘i, 1983-85-yillarda “Saodat” jurnalida bosh muharrir o‘rinbosari, 1985-94-yillarda esa “Saodat” jurnalining bosh muharriri vazifalarida ishladi. Shu bilan bir vaqtda 1989-94-yillarda Respublika xotin-qizlar qo‘mitasi raisi lavozimida faoliyat yuritdi.

Halima Xudoyberdiyevaning “Ilk muhabbat”, “Oq olmalar”, “Suyanch tog‘larim”, “Chaman”, “Issiq qor”, “Sadoqat”, “Muqaddas ayol”, “Bu kunlarga yetganlar bor”, “Hurlik o‘ti”, “Yuragimning og‘riq nuqtalari”, “To‘marisning aytgani”, “Saylanma”, “Yo‘ldadirman”, shuningdek, rus tilida “Белые яблоко», “Решимость” singari o‘nlab kitoblari chop etilgan.

Shoira ijodiy faoliyati davomida tarjimachilik ishlarida ham bir qator yutuqlarga erishgan. Xususan, uning tatar dramaturgi To‘fon Minnullinning “Alla” pyesasini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Bu spektakl keyinchalik Hamza nomidagi Milliy akademik teatrda sahnalashtirilib, uzoq yillar tomoshabinlar e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

* Maqola mazkur saytdan olindi: kh-davron.uz Xurshid Davron kutubxonasi. Halima Xudoyberdiyeva: Eng qora ish, eng toza ish–bizning ishimiz...

Bolalik yillarimni eslaganimda olmazor hovlimiz ayvoni oldida uzun qilib tortilgan patgilamning o‘rmagi ko‘z oldinga keladi. O‘rmakning kuzuvini onam bog‘lar, (odatda, kuzuvni, asosan, kayvonilar, ishining ustasi bo‘lgan chevarlar bog‘laydi) biz uning turini (o‘rmak iplari) yigirardik.

Keyin onam “Bismillahir rohmanir rohiym” deb ot ustida o‘tirgandek o‘rmakning ustiga o‘tirib to‘qishni boshlar, onamning har qilich qoqib, bir yo‘l arqov o‘tkazganlarida patgilamning gullari ochilib, kattarib, to‘lishib borishini havas bilan kuzatar, o‘zim ham onam bilan basma-bas patning turini chalishardim. (Yerda tortilgan patgilamning o‘rmagi ikki tarafda o‘tirib to‘qiladi) Bilasizmi, o‘shanda hali maktabga borib-bormagan vaqtlarim edi.

Onam bilan yonma-yon o‘tirib o‘rmak to‘qirdik, iroqi do‘ppilarning iroqisini tikardik. Mana bu to‘rtliklar o‘shanday paytlar, onamning o‘rmak to‘qib yoki do‘ppi tikib o‘tirib aytgan xirgoyilaridan esimda qolgan:

Iydirgin mardga meni,

Kuydirgin mardga meni.

Alloh, Allah, zorim eshit,

Suydirgin mardga meni.

Yoki:

Talh hijronni yutgayman,

Kuyib noma bitgayman.

Seni nafaqat tirik,

Qabrimda ham kutgayman.

Onamning ovozi shirali, xirgoyilari chiroyli edi. Bu satrlarning ma’nosini chuqur tushunmasam-da, u kishiga qo‘shilib xirgoyi qilib o‘tirganlarimni kuni kechagiday eslayman. Muhitda gap ko‘p.

Otamning Abdurahmon bova, Rajabov bova, Abdumo‘min bova, Eshon bova kabi yetti-sakkiz nafar qadrdonlari har o‘n, o‘n besh kunda uyimizda kitobxonlik qilishardi. Bu suhbatlarda Navoiy, Fuzuliy, Bedil singari ulug‘larimiz g‘azallaridan tashqari ishqiy, sarguzasht dostonlar ham o‘qilardi. Go‘ro‘g‘li, Kuntug‘mish, Avazxon, Alpomish kabi dostonlar qahramonlari otamning do‘stlari singari menga ham qadrdon bo‘lib qolgandi. Bu kitobxonlik kechalarida dostonu g‘azallarni ko‘proq otam Ummatqul Xudoyberdi o‘g‘li o‘qirdi. Chunki u kishining ovozlari baland, qiroatlari yoqimli edi. Bu ovozni hali-hanuz ba‘zan tushlarimda eshitganday bo‘laman.

Bunday kechalarda men doim otamning yoniga suqilib kirib olib, xayolan Barchinga aylanardim. Boychiborga dardimni aytardim. Xullas, dostonlar olamida yashardim.

Bu dostonlarda yengilmas kuch, qudrat timsoli Hazrat Ali o‘zi bilan “Yengsang senga tegaman, yengilsang o‘ldiraman” sharti bilan kurashga tushgan

Zufununni yengar va uni shu muzofotga hokim qilib qoldirib, o'zi yangi muzofotlarni zabt etish yo'lida ot solib ketardi.

Men Hazrat Alining yollari bo'ron yanglig' guvillab ketayotgan qorabayir otining har yelkasi bir muzofotni ko'tarib ketayotganiga ishonib yashardim. Bu vaqtlarda otam bog'bon, onam pillachilik agronomi bo'lib ishlardi.

...Ozgina ortga qaytamiz.

O'z onam Sharofat Xonnazar qizi paxta dalasidagi o'qariqdan dorilangan suv ichib qo'yib, o'ttiz besh yoshlarida olamdan o'tganlarida men ikki yoshga yetmagan go'dak ekanman. Shunda amakim Ummatqul Xudoyberdi o'g'li bilan xolam Qarshigul Xonnazar qizi meni o'z tarbiyasiga olgan ekanlar. (Biznikilar aka-uka, opa-singillarga uylanishgan ekan).

Men o'z onamni eslay olmayman. Hatto birorta suratlari ham qolmagan. Bu dunyoda kun ko'rmay, yosh ketgan onajonimning huru g'ilmonlarga qo'shilgani rost bo'lsin.

Ammo amakim ("amaki" deganim uchun Xudo meni kechirsin, chunki men dunyoda farzand uchun u kishidan mehribonroq ota bo'lishiga ishongim kelmaydi) va xolam tufayli hech bir kamim yo'q edi. Xoladan onaning hidi kelarkan. Bu ikki jannatmakon insonlar – amakim bilan xolam meni onam dunyodan o'tgan kundan boshlab o'zlarini "ota, ona" deyishga o'rgatishgan ekan. Joylari jannatda, tuproq to'shaklari pardan bo'lsin ularning. Ular hali-hanuz yer ostida yotib ham meni qo'llayotganlariga ishonaman.

Shunday qilib, onam agronom bo'lib ishlayotgan yillarga kelgandik. Haqiqiy mehnat hamma zamonlarda ham o'z qadr-qimmatini topadi. Onaizorimning 3-4 marta Moskvaga, syezdga delegat bo'lib borib kelganlarini eslayman.

Onamning to'q ko'k rangli oti bo'lib, peshonasida katta oq qashqasi bo'lardi. Shuning uchunmi uning nomi "Ola qashqa" edi. Otning ko'zlari shunday aqlli ediki... Keyin men umrim davomida bunday otni boshqa uchratmadim. U haqiqatan ham shunday betakror xushsurat otmidi, yo bolalikning ko'zlari katta bo'ladi, deganlariday bu mening bolalik tasavvurimmidi, bilmayman... Shuning uchun ham birinchi she'rimni 7-sinfda o'qib yurganimda shu otimizga bag'ishlab yozganman va bu she'r tuman gazetasida bosilgan.

Qishloqda nima ko'p – ish ko'p. Kunduzlari maktabga, pillaga, dalaga, paxtaga... xullas, tinim bilmasdik. Kechasi yozishga odatlangandim. Tarki odat – amri mahol. To hanuz asosan tunda ishlayman. Garchi uyqusizlik sog'likka zarar ekanini bilsam-da, tunda maza qilib ishlayman. Har qalay, tunda hech kim sizga xalaqit bermaydi. Maktabda o'qib yurgan vaqtlarimda ham yarim kechasigacha o'tirib yozaverardim. Bu hol onamning jahlini chiqarar, xonaning chirog'ini o'chirib, meni yotishga buyurib chiqib ketardilar. Shunday paytlarda onamning uxlab qolishlarini kutib yotardim. Shu yotishda xayolimda bir-ikki she'rni to'qib

qo‘yardim-da, keyin sekin turib qog‘ozga tushirardim. Chiroqning yana yonganini ko‘rgan onam yana kelar, endi yotib uxlamasam otamni uyg‘otishini aytib qo‘rqitardilar. Bu hol 2-3 martadan qaytariladigan kechalar ham bo‘lardi.

Rahmatlik onayizorim haqida keyingi yillarda Lila opa degan tatar qo‘shnimiz (ular onam bilan egachi singilday qadrdon edilar) aytib bergandi. O‘sha yillarda onam qo‘shnilarga chiqib kuyinarkan: “Kechasi bilan o‘tirgan bola ertalab yuzini yuvib maktabga chopqillab ketaveradi. E, Xudoyim-ey, nima qilsam ekan, bolam bechora uvuz etida kuyib ketyapti?”.

Yildirim yillar bir-birini quvib shu alfozda o‘taverdi. Maktab davri tugab, betakror talabalik yillarim boshlandi. Jurnalistika fakultetining birinchi kursida o‘qiyotganimda “Ilk muhabbat” nomli kitobim chop etildi. Bu kitob shunchalar katta mehr-muhabbat bilan kutib olindiki, buning uchun muxlislarimdan, ayniqsa, universitet domlari – ustozlarimdan minnatdorman. Ularning bir yutug‘imga o‘n yutuq qo‘shib maqtashlari, ba‘zan imtihon paytlari Rasul Hamzatov, Silva Kaputikyan yoki Eduard Mejelaytisdanmi yo Bella Axmadullinadan birorta she‘r o‘qitib (o‘zbekcha tarjimada albatta yod o‘qirdim) imtihon daftarchamga “5” baho qo‘yib berishlari meni qanotlantirib yuborardi. Abdug‘afur Rasulovning san‘atkorlarga xos nutq san‘ati hammamizni rom etib qo‘yardi. Ba‘zan darslardan qochib ketgan paytlarimiz ham u kishining darsiga qaytib borardik.

U vaqtlarda she‘riyat kechalariga odamlar oqib kelar va biz ham bu anjumanlarga bayramga borayotgandek shoshilib borardik. Adashmasam, bu yillarda “Minbar she‘riyati” davri boshlanib kelayotgan edi. Moskvada Yevgeniy Yevtushenko, Robert Rojdestvenskiy, Bella Axmadullina, Andrey Voznesenskiy kabi rusning vijdoniga aylanib ulgurgan shoirlari sahnada 2-3 soatlab she‘r o‘qir, ularning so‘z aytilish jozibasi, voizliklariga mahliyolik kundan-kun ortar va bu holatning ta‘siri bizning yurtimizda o‘tayotgan uchrashuvlarda ham sezila boshlagan edi. Biz Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon kabi shoirlardan soatlab she‘r eshitishdan zerikmasdik. O‘z navbatida ular ham she‘r o‘qishdan charchashmasdi.

“Bu shoirlar, – degandi universitetdagi bir uchrashuvda adabiyot va she‘riyatnig katta bilimdoni, aziz domlamiz (joylari jannatda bo‘lsin) Begali Qosimov, – daryolarga o‘xshaydi. Gurrosi, shiddatli g‘alayonlari boshqa-boshqa daryolarga. Asov daryolarga”.

Bu haqda adabiyotimizning tolmas, otashnafas targ‘ibotchilaridan biri Hamid Sulaymondan yana bir ta‘sirli gap eshitgandim: “Sizlar hozir juda gurkirab yetilib keldilaring. Xuddi bug‘doy boshloqlariday. Shunday yetilish jarayonlarida har xil voqealar ham sodir bo‘lishini biz ko‘rdik, sizlar ko‘rmanglar. Ilohim, sizlarni Xudo o‘z panohida asrasin”.

Adabiyot muzeyida (u kishi muzey direktori edilar) Gerkules domlamizning (ular haqiqatan ham, juda basavlat, kelishgan, doston qahramonlarini eslatadigan odam edilar), 3-kurs talabasi bilan shu qadar jiddiy, samimiy suhbat o'tkazganlari bir umr yodimda qoldi.

Shamolday o'tib borayotgan umrimiz dovonlarida shoir akalarimizning hayot yo'llarini kuzatib, jannatmakon ustozlarimizning bu e'tiroflari qanchalar haqligiga amin bo'ldim.

Xalqimizning bu sevimli shoirlari o'zbek she'riyatining yuqori pog'onalarga ko'tarilishida zamondosh ijodkorlarga yalovbardor bo'ldilar deb ikkilanmay ayta olaman.

Mening Toshkentga kelib qolishimga jannatmakon ustoz, davlat arbobi Sharof Rashidov sabab bo'lganlar. U kishi Sirdaryoga borganlarida "Sirdaryo haqiqati" gazetasida mening she'rlarimni o'qib, o'sha yillardagi viloyat hokimi Nosir Mahmudov va gazeta bosh muharriri Ismoil Sulaymonovga otam bilan gaplashib, maktabni tugatganimdan so'ng meni (unda 9-sinfda o'qirdim) Toshkentga o'qishga yuborishlarini tayinlab ketgan ekanlar. Keyinchalik bu haqda Ismoil Sulaymonov o'z kitoblarida batafsil yozdilar. Toshkentda aziz ustozlarim Mirtemir aka, qadrli Zulfiya opa, Komil Yashin kabi millatimizning faxr-iftixoriga aylangan odamlardan ko'p mehr-muruvvatlar ko'rdim. Ishlash, yashash saboqlarini oldim. Allohga shukrki, menga ana shunday ustozlardan tahsil olish saodatini berdi. Shuning uchun ham Toshkent va Moskvada tahsil olgan yillarim hayotimning eng yorqin fasllari bo'lib qoldi.

Ijodkor o'z ijodiga, hayot yo'liga o'zi baho berishi qiyin. Biroq insonda ko'ngil degan narsa bor. Ko'ngil – o'z sohibining xolis hakami! Odam ko'ngli to'lmagan narsasini birovga ko'rsatgisi kelmaydi. Shu nuqtai nazardan aytishim mumkinki, men ham she'rlarimni ko'nglim to'lgani uchun nashr ettirganman. Ammo gazeta yoki jurnallardagi ayrim chiqishlarda ba'zan qandaydir kamchiliklar bo'lganday, kitoblarimda ham ba'zan shunday kamchiliklar bo'lib turadi. Demoqchimanki, har tomonlama mukammal deb o'ylagan kitobimni hali chiqarolganim yo'q. Shu tuyg'u ham insonni ishga, ijodga undab tursa kerak.

Adabiyot, nazarimda, ko'ngillarni zang bosishdan saqlab, poklab turadigan toza daryo suvlariga o'xshaydi. Biz ma'naviy ko'tarilishlarsiz hech qayoqqa borolmaymiz. "Qobusnoma"da "Aql bilan pul topish mumkin, ammo pul bilan aql topib bo'lmaydi" degan purhikmat bir gap bor. Jamiyat binosining qad ko'tarishida ma'naviyat poydevor vazifasini o'taydi.

Adabiyot – ko'ngil uchun ishlaydi. Uni dag'allashib, toshga aylanib ketishdan saqlaydi. U odamlarni mehr-muhabbatga o'rgatadi. Bir-biridan teskari tomonga emas, bir-biriga peshvoz yurishga undaydi. Peshvoz yurganda ham birinchi qadamni ikkilanmay o'zing tashlashing kerakligiga o'rgatadi. Qanday sevis,

qanday yashash kerakligini o'rgatib oqayotgan toza daryo suvlaridan ichmay yashab bo'ladimi?!

Shu pok suvlardan bir qultum – Sent Ekzyuperining “Istehkom” romanidan bir jumla keltirmoqchiman: “Ayol zoti sevishini bildirishi uchun ayolning soyasi va aks-sadosiga aylanishga rozi bo'lgan erkakdan nafratlanadi. O'z aksi bilan so'zlashishning kimga ham qizig'i bor. Unga sening “istehkom” singari mustahkamliging zarur. Zero, har bir toshingdan senliging bilinib tursin”.

Darhaqiqat, adabiyot rivoji millat ma'naviyati va kelajagi uchun shunchalik muhim ekan, bu sohaga yana-da diqqatli bo'lishimiz kerak. Ulug'larimizdan meros an'analarni davom ettirishimiz va shu bilan birga yangi an'analarga muallif bo'lmog'imiz lozim bo'ladi. Kurashchan qozoq shoiri O'ljas Sulaymon yozadi: “Yangi deb hamma yangiliklarni qabul qilib, eski deb hamma eskilardan voz kechib bo'lmaydi. Sivilizatsiya uchun xizmat qiladiganlarini olib qolish kerak”.

Bu fikrni hamma masalada tadbqiq qilish mumkin. Xayolinga dastlabki kitoblarimdan birida yozgan satrlarim keldi:

*Bundan agar el uchun,
Kelar bo'lsa qilcha naf.
Qilday tilini topib,
Tillashaver mard bilan.*

Taraqqiyotimiz, ertangi kunimizning tinchligi, obodligi uchun xizmat qiladigan har qanday an'ana, qadriyatlarni ko'z ustiga qo'yib saqlash va uning aksi bo'lgan hodisotlardan zudlik bilan voz kechish yo'llarini topish kerak.

Sevimli adibimiz Asqad Muxtor shunday degan ekanlar: “Klassika – bu shunday chuqur va po'rtanali dengizki, uning shiddatli to'lqinlari kuch bilan bir urilishdayoq har qanday “izm”larni qirg'oqqa chiqarib tashlaydi”.

Haqiqatan ham, mumtoz adabiyotimizning qudrati cheksiz. Hammamiz shu buyuk daraxtning ildizlaridan oziqlanib oyoqqa turganmiz. Ammo masalaning yana bir tomoni borki, yuki yengil, maza-matrasiz, fikran qashshoq she'ru g'azallarni ba'zan mumtoz adabiyotimizda ham, modern she'riyatida ham uchratish mumkin.

Modern so'zining tarjimasi “zamonaviylik”dir. Zamonaviylikka, yangilikka kim intilmaydi? Modern qo'rg'onlarida yurgan shoirlarimizning chaqmoqday chaqnagan fikrlari ko'ngilni yoritib yuboradigan paytlar ko'p bo'ladi. Bizning she'riyatimiz mavqei baland she'riyat va bu balandlik bizning “modern”chilarimiz ijodida ham asta-sekinlik bilan ko'zga tashlanib boryapti.

Dadil, nozik fikrlovchi yosh shoiramiz Oydinniso misralariga diqqat qiling:
*Shu lahza,
aynan shu lahza
hamma-hammasidan kechaman!*

*Hayot yo‘q,
o‘lim yo‘q,
Sevgi bor lim kosa,
Yurak to‘lguncha ichaman.
Shu lahza,
faqat shu lahza...
Qolganini Xudo biladi.
yoki:
Men tog‘ni sevaman
U menga lolalar tutmaydi.
Faqat
Meni jarliklardan
Jimgina qizg‘anadi u.*

Hajman siqiq, lekin o‘quvchini o‘yga toldiruvchi bu kabi she’rlarni modernning yaxshi namunalaridan degim keladi.

Xullas, adabiyotimizni rivojlantirish uchun biz juda ko‘p ishlarni amalga oshirish bilan birga har birimiz o‘z ustimizda ishlashimiz, qattiq ishlashimiz kerak bo‘ladi. “Eng qora ish, eng toza ish – bizning ishimiz”, deydi yozuvchining mehnati haqida Robert Rojdestvenskiy. Qora mehnatdan qochmaslik fazilati oqliklar, yuksakliklar beradi. Biz bu fazilat bilan ko‘zlagan manzillarimizga yetib boramiz.